

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**M. F. LAFASOV**

# **EKSTREMIZM, TERRORIZM TARIXI VA MOHIYATI**

*(Oliy ta'lismu muassasalari bakalavrlari uchun o'quv  
qo'llanma, 5141500 – «Milliy istiqlol g'oyasi: huquq  
va ma'naviyat asoslari» ta'limgo'nalishi)*

*To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr*

TOSHKENT  
«TURON-IQBOL»  
2013

**Mas’ul muharrir:**

*E. Xoliqov* – tarix fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

*M. Abdurahmonov* – tarix fanlari doktori, professor;

*I. S. Xaitov* – tarix fanlari nomzodi, dotsent;

*O’. E. Yusupov* – falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

**Lafasov Moyli Fozilovich**

**Ekstremizm, terrorizm tarixi va mohiyati:** Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo’llanma / M. Lafasov O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Tosh. Dav. ped. un-ti. –T.: «Turon–Iqbol», 2013. - 184 b.

UO‘K 323.285 (075) (09)

KBK 66.4 (0)

Ushbu o‘quv qo’llanmada diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm tarixi, vahhobiylilikning yuzaga kelishining asosiy g‘oyalari, diniy ekstremizmnинг O‘zbekistonga yoyilishi, ekstremist va terroristlarning vahshiyona jinoyatlari hamda ularga qarshi kurash choralarini yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2008-yil 28 fevral 51-sonli buyrug‘iga asosan nashrnga ruxsat berilgan.  
O‘quv adabiyotining nashr ruxsatnomasini ro‘yxatga olish raqami 1544.

---

## KIRISH

XX asr oxiriga kelib ikki qutbli dunyoning yemirilishi, ya’ni jahonning deyarli yarmiga hukmronlik qilib kelgan sotsializmning inqirozga yuz tutishi, uning bosh qo’rg’oni hisoblangan Sho’rolar saltanatining qulashi natijasida bir qancha davlatlarning mustaqil taraqqiyot yo’liga o’tishi yillar davomida berkitib kelingan din buloqlari ko’zining qaytadan ochilishiga imkon yaratdi.

Bunga uzoq yillar tashna bo’lgan xalqlar tushunib-tushunmay din sohasidagi hamma narsani qabul qilaverdi. Bu narsa dindan siyosiy maqsadlarini amalga oshirishni ko’zlab yurgan qator kishilar va tashkilotlarning tegirmoniga suv quydi.

Avvalo mustaqil davlatlarga o’zlarini do’st ko’rsatib va u yerda ichki nizo janjallarni kuchaytirib so’ngra “tinchitish” qo’shin kiritishni hamda bu davatlarda mustahkam o’rnashib olishni o’ylagan davlatlarning tashqi ta’siri ayniqsa kuchli bo’ldi. Chunki hali tajribasiz mustaqil davlatlar o’z oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va milliy muammolari ni hal qilib olishi uchun vaqt va moddiy-ma’naviyat imkoniyat zarur edi.

Bizning yurtimiz geostrategik jihatdan qulay joyda joylashganligi, moddiy resurslarga boy bo’lganligi uchun ularning o’qiga nishon vazifasini o’tadi va tajriba maydoniga aylandi.

Lekin Yurtboshimizning qat’iy siyosati, xalqimizning birligi, ahilli-gi mamlakatimizni katta falokatlardan asrab qoldi. Shu sababli bo’lib o’tgan voqealarни haqqoniy o’rganish, orttirilgan tajribani yoshlar ongiga singdirish, yurtimiz kelajagini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm, osongina taslim bo’ladigan kuch emas. Uning Vatani, millati yo’q. U vaqtı-vaqtı bilan o’zini ko’rsatib yurt tinchligini buzib turadi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov xalqimizni xush-yorlikka chaqirib keladi. “Qo’poruvchilik qilganlarning maqsadi xalqimizning tinchligini buzish, qo’rqtish, yuragiga vahima solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchini so’ndirish, amalga oshirayotgan ulkan ishlarimizga zarba berishdan iborat bo’lgan. Ammo, yana ta’kidlab aytaman, bizni hech kim qo’rqtolmaydi, tanlaganimiz – Vatanimizning mustaqilligi yo’lidan qaytara olmaydi”, – deb alohida ta’kidlaydi Yurtboshimiz.

O'zbekistonda, Rossiya, AQSH, Hindistonda bo'lib o'tgan voqealar diniy ekstremizm va terrorizmning nihoyatda xavfli kuch ekanligini va unga qarshi izchil kurashish lozimligini ko'rsatdi. Oliy ta'lif muassasalari bakalavriat talabalariga mo'ljallangan ushbu kursning maqsadi hozirgi vaqtida dunyo davlatlari va jumladan O'zbekistonimiz uchun xavf tug'dirayotgan diniy ekstremizm, fundamentalizm va terrorizmning kelib chiqishi tarixi va hozirgi faoliyatini talabalarga tushuntirishdan, dunyoviy jamiyat qurayotgan davlatda dinning o'rnnini, uning konstitutsiyaviy vazifasini, diniy e'tiqodning siyosatdan ajralganini, lekin ba'zi xorijiy mutaassiblar ta'sirida ularning uzoqni ko'zlagan va Markaziy Osiyoni Islom davlatiga aylantirib, bu yerda o'rta asr xalifaligini tiklab o'zlariga tobe qilishni o'ylaganlarning makr-xiyalariga uchib, diniy niqob ostida o'zining g'arazli maqsadlarini, hukmronlikka intilish pozitsiyasini ilgari surayotgan va bu ishda har qanday qonunsizlikdan, jinoyatlaridan toymayotgan aqidaparast, ekstremist va terrorchilarining haqiqiy qiyofalarini ko'rsatishdan iboratdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Olloh qalbimizda, yuragimizda" nomli asarida ta'kidlaganidek: "Eng achinarlisi shundaki bu yovuz kimsalar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iiga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zlarining iflos maqsadlari yo'lida foydalannoqda. Bu esa islomning insonparvarlik g'oyalarini obro'sizlantirishga olib kelmoqda".

Aslida, dunyodagi asosiy dinlardan biri bo'lgan Islom dini mohiyat – e'tibori bilan adolat mezoni sifatida jahon dinlari orasida alohida ahamiyat va qadriyatga ega. Qur'oni Karimning barcha oyat va suralari, Hadissi shariflarda keltirilgan barcha manbalar ana shu adolatni bir jihatdan asoslovchi, ikkinchi jihatdan esa, musulmonlarning turmush tarzini belgilovchi ilohiyot hisoblanadi. shuningdek, insonning davlatga munosabati, jamiyatda, insonlar orasida vujudga kelgan munosabatlar, ularning qadriyat mezonlari faqat bir narsaga, u ham bo'lsa adolatga qaratilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin chuqur iqtisodiy-siyosiy islohotlar, ayniqsa, ma'naviy sohada, inson haq-huquqlari ni ta'minlash borasida benihoyat keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, vijdon erkinligini ta'minlash, uning imkoniyat doirasini yanada kengaytirish borasida juda katta ishlar qilindi.

Shunday bir sharoitda o'zlarini "adolatparvar muslimmonlar" yoki "islomparvarlar" deb nomlangan vahhobiylar xalqimizning tinch, osoyishta hayotini notinch qilishni o'zlariga maqsad qilib oldilar. Ular bu yo'lida har qanday xunrezliklarga, g'ayriinsoniyliklarga, shafqatsiz-

liklarga, tubanliklarga bormoqdalar. O'zlarining ana shu shafqatsizliklarini adolatdandir, degan tamoyil bilan isbot qilishga urinmoqdalar.

Ularning fikrlariga qaraganda, O'zbekistondagi bugungi musulmonlar hayoti, turmush tarzi va mohiyatiga ko'ra, haqiqiy musulmonlar deb ataluvchi ilohiy birlikka mutlaq to'g'ri kelmas emish. Ularni boshdan-oyoq kiyinishidan, hatti-harakatidan, turmush tarzidan, orzu-xayolidan, e'tiqodidan boshlab tubdan o'zgartirmoq kerak emish. Bu degani, vahhobiylarning Respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha musulmonlarga nisbatan g'azovati emasmi? Bu degani musulmonlarni musulmonlarga qarshi jangga, xunrezlikka chaqirish emasmi? Bu chaqiriq, da'vatni qaysi adolat mezoni bilan o'lchash joiz bo'ladi? Nahotki, shunday chaqiriq bilan chiqqan muslim jannatda o'z makonini topishi mumkin!

Prezidentimiz I.A.Karimov Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XI sessiyasida, 1997-yil 16 fevralda bo'lib o'tgan maxsus yig'ilishida va 2004-yil 29-30 aprelda bo'lib o'tgan Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida, Andijon voqealari munosabati bilan imtasaddi idoralar, hokinilar, deputatlar, olimilar, o'qituvchilar va boshqa soha xodimlari oldiga xalqimizga xavf solayotgan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qanday kurash olib borish va yoshlarmizni ularning ta'siridan xalos qilishimiz haqida jiddiy ko'rsatma va topshiriqlar bergen edi.

Xalqimiz uchun bu voqealar juda katta saboq bo'ldi. Prezidentimiz atrofida yanada qattiq jipslashib g'alamiislarga qarshi la'natlar o'qimoqda.

Ilgari Respublikamizda vahhobiylar, diniy fundamentalizm, ekstremizm va xalqaro terrorizm haqida ma'lumotlar deyarli yo'q edi. Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Xushyorlikka da'vat", "Vatan tinchligini saqlamoq kerak", "Tinchlik uchun kurashmoq kerak", "Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq", "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" va boshqa asarlari da diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmnning mohiyati va xavfi haqida bat afsil tushuntirish berilgan.

Keyingi yillarda Respublikamizda vahhobiylarning kelib chiqishi, diniy fundamentalizm, ekstremizm va xalqaro terrorizmnning kirdikorlari haqida bir qator asarlar, ko'plab maqolalar paydo bo'ldi.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: «xalqimiz, avvalombor, yosh avlodimiz ma'naviy olamining daxilsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barhamizni o'ylantirishi tabiiy...

... taboro kuchayib borayotgan xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va xushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'yangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzuksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin»<sup>1</sup>

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash umum davlat ishi-ga aylanib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26 martdag'i "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar orasida bu xavfning oldini olish uchun keng tushuntirish ishlari olib borish va ta'lim muassasalarida bu sohada maxsus kurslarni kiritish belgilab berilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25 avgustdag'i "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarorida "yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish"ga alohida e'tibor qaratiladi.

Muallif ushbu qo'llanmaning yuzaga kelishida Abdurashidqori Baxromov, Muhammadboburqori Yo'ldoshev, Najmiddin Komilov, Qutbiddin Burxonov, Maxsudxo'ja Nuriddinov, Abdiqayum Azimov, Yunus Abdulayev, Xoji Ismatulloh Abdulloh, Sobir O'nar, Shodiqul Xamroyev, Hamrobonu Musurmonova, Zohidilla Munavarov, Yevgeniy Abdullayev, Abduvohid Ochildiyev, G'affor Xotamov, Abdusalom Umarov, Abdullajon Begmatov, Zuxriddin Xusniddinov, Aydin Gudarzi va boshqalarning asarlari va maqolalaridan foydalandi. Shu sababli muallif ularga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T: Ma'naviyat, 2008, 117-bet.

---

## **I BOB. DINIY FUNDAMENTALIZM, EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING TARIXI VA MOHIYATI**

### **1-§. “EKSTREMIZM, TERRORIZM TARIXI VA MOHIYATI” KURSINI O’RGANISHNING AHAMIYATI**

#### **1. XX asr oxiriga kelganda dunyoning jug‘rofiy-siyosiy xaritasida o‘zgarishlar va diniy qadriyatlarning uyg‘onishi, kursning predmeti, maqsadi va vazifalari**

XX asr oxiriga kelganda dunyo taraqqiyotida juda katta o‘zgarishlar yuzaga keldi. 70 yildan ortiq sotsializm qo‘rg‘oni bo‘lgan sobiq Sho‘ro sultanati yemiriildi va uning o‘rnida 15 ta mustaqil davlat vujudga keldi. Sho‘ro sultanatining qulashiga asosiy sabab tarixiy taraqqiyotning yangi zamonaviy bosqichiga moslasha olmaganligi, turli millatlarning milliy g‘ururiga mensimay qaralganligi, barcha xalqlarni yagona mafkuraga bo‘ysundirish uchun zo‘rlik ishlatalganligi, ittifoqdosh respublikalar xalqlarining ona tili, diniy e’tiqodlari va asriy qadriyatlari oyoq osti qilinganligi, mamlakatda adolatning qo‘pol ravishda buzilganligi sabab bo‘ldi.

Ayniqsa xudosizlik g‘oyasini doimo olg‘a surib, unga amal qilib sho‘rolar sultanati o‘rnida islom diniga amal qilingan territoriyalarda yangi paydo bo‘lgan mustaqil davlatlarda demokratik jarayonlarning kuchayishi, qator mamlakatlarda diniy uyg‘onishning kelib chiqishida asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ta’kidlab o‘tilganidek: “XX asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar asri, inson koinot sirlari qo‘yniga kirib borayotgan asr, axborot va g‘oyat ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo‘ldi. Shu bilan birga, bu asrning oxiri diniy qadriyatlarning uyg‘onish davri, vazmin, behuda urinishlardan holi diniy ma’naviyatga o‘ziga xos tarzda qaytish davri bo‘lib qoldi”.

“Ekstremizm, terrorizm tarixi va mohiyati” kursining ***predmeti*** – ekstremizm va terrorizmning paydo bo‘lishi va jamiyat uchun xavfi; shuningdek, yoshlarni begona g‘oyalarga qarshi kurashish va yurtparvarlik ruhida tarbiyalashdir.

Hozirgi davrda dunyoda eng xavfli kuchga aylanib borayotgan ekstremizm va terrorizmning kelib chiqishi, mohiyati, kimlarga xizmat qilishi, taraqqiyotga salbiy ta’sirini talabalarga tushuntirish va ularni bu xavfga qarshi kurashga tayyorlash kursning ***maqsadini*** tashkil qiladi.

Kursning ***vazifikasi*** – keyingi davrdagi diniy-siyosiy o‘zgarishlarni, diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi va dunyoviy davlatlarda dinga munosabat, vahhobiylikning yuzaga kelishi va asosiy g‘oyalari, diniy ekstremizmning paydo bo‘lishi va jamiyat uchun xavfi, ekstremist va terroristlarning O‘zbekistonndagi qilmishlari, dunyo davlatlarida terrorizm harakatlari, missionerlik va uning oqibatlari masalalarini o‘rganish masalasidir.

## **2. O‘zbekiston Respublikasida diniy qadriyatlarga erkinlik berilishi**

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin xalqimizning ma’naviy va madaniy merosiga, tarixiga, ona tilimizga munosabat tubdan ijobjiy tomonga o‘zgardi. Bizning mamlakatimizda diniy qadriyatlarga erkinlik berildi. Muborak istiqlolimiz tufayli ko‘p yillar quvg‘inda bo‘lgan dinimiz yana ravnaq topa boshladi. Jumladan, siyosiy dunyoqarashlar erkinligi, xurfikrliligi, diniy tashkilotlar faoliyatining rivoj topishiga zamin yaratdi. Musulmonlar uchun turli xil adabiyotlar chop etildi. Gazetalar, jurnallar sahifalarida, zangori ekranda Islom dinining yetuk vakillari o‘z maqolalari va suhbatlari bilan ishtirok etdilar. Taqvodorlarning jamoa bo‘lib toat-ibodat qilishlari uchun qishloq va mahallalarda masjidlar barpo etildi. Agar O‘zbekistonda mustaqillikka qadar 90 ga yaqin masjid bo‘lgan bo‘lsa, hozir ularning soni 3000 tadan oshib ketdi. Farg‘ona viloyatida istiqlolga qadar bor-yo‘g‘i 3 ta Jome masjadi qonuniy ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, hozir bunday masjidlar 200 dan ortiqroq. Namangan viloyatida ham mustaqillikkacha atigi uchta masjid bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrda 1300 dan ortiq masjid-

lar faoliyat ko'rsatmoqda. Masjidlarning ko'pi juda katta mablag' evaziga qurilgan bo'lib, moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan.

Masjidlar qayerda va qanday qurilishi kerak? qancha musulmonga bitta masjid to'g'ri keladi? har bir mahalla uchun alohida masjid qurish kerakmi? Bu borada Z. Munavvarovning "Xalq so'zi" gazetasining 1998-yil 3 mart sonida bosilib chiqqan "Dunyoviy davlat va din" maqolasida keltirilgan quyidagi fikrlar diqqatni o'ziga tortadi: "Bayon etilgan fikrning isboti sifatida Imom A'zam Abu hanifaning Jome, masjidlari soni va ularni ta'sis etish tartibi haqidagi tavsiyasi ni keltirish mumkin. Ul mo'tabar zotning fikricha, bir shaharda 2 ta Jome masjidini faoliyat ko'rsatishi uchun uning o'rta sidagi ko'priksiz katta daryo oqishi, yo bo'lmasa, musulmonlarning Jome masjidiga yetib borishini qiyinlashtiruvchi boshqa bir tabiiy to'siq (masalan, tog') bo'lishigina uzrli sabab bo'lishi mumkin".

Ushbu tavsiyalar musulmonlar jamoasi orasidagi hamfikrlik va yakdillikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash va ta'minlashda Jome masjidlarining alohida o'rni borligini ta'kidlab turibdi.

Darhaqiqat, Jome masjidlari sonining uzlucksiz ortib borishi, ayrim hollarda xalqimiz diniy an'analari uchun yot bo'lgan ko'rinishlarning ham namozxonlar orasida tarqalishiga sharoit yaratib bermoqda. Misol uchun o'tgan asrning 90-yillari oxirida vahhobiylilikka xos bo'lgan g'oyalardan oziqlangan diniy oqimlar kengroq tarqalgan Namangan viloyatida – 164, Namangan shahri ning o'zidagina 25 Jome masjidini faoliyat ko'rsatgan, ba'zan ularda o'qilayotgan xutbalarda bir xil masalalarining turlicha talqin etiliши, oddiy namozxonlarni sof diniy ibodatdan chalg'itadigan siyo-siyashgan g'oyaviy oqimlarga kirishib ketish hollari yuz berdi.

Hozirgi vaqtida albatta, Imom A'zamning "bir shaharda - bir Jome haqidagi tavsiyasini hayotga to'g'ridan to'g'ri tatbiq etishga da'vat etish qiyin. O'rta asrlardagi shahar tushunchasi bilan zamonaviy shaharlar o'rta sidagi farqni ham barcha yaxshi idrok etadi. Biroq ul zotning tavsiyasi zamirida yotgan oliy hikmat -- Jome masjidlar sonining kimo'zarga ko'payishi natijasida diniy bilimlari sayoz, bundan ham yomonrog'i – dindan g'arazli maqsadlarda foy-dalanishdan ham toymaydigan kimsalar oddiy musulmonlarni sof diniy ibodatdan chalg'itmasligi, ular orasida ixtiloflar chiqarmasligiga qaratilganligini yana bir karra ta'kidlash joiz.

Mustaqil mamlakatimizda muqaddas qadamjolarni tiklashga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Diniy ta'lim beruvchi 9 ta o'rta maxsus ta'lim muassasaları, Oliy Islom bilimgohi, bitta universitet faoliyat ko'rsatmoqda. Musulmonlarning asosiy qismi haqiqiy demokratik dunyoviy jamiyat qurish rejasini qat'iyat bilan amalgalashirayotgan davlatimiz tomonidan e'tiqod erkinligini ta'minlashga qaratilgan quylay imkoniyatlardan ongli foydalanimoqda.

Muborak Haj va Umra ibodatlariga aynan shu dunyoviy jamiyatni barpo etishni bosh maqsad qilib qo'ygan davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozli imkoniyatlar tufayli borib kelmoqdalar. Ammo bu yengilliklardan, imtiyoz va sharoitlardan ba'zi bir Islomdan yetarlicha xabari bo'lмаган chalamullalar esankirab qoldilar. Ular demokratik davlatda xohlagan ishni qilish mumkin, deb o'ylab, fuqarolar o'rtasida ig'vegarona, jangarilikka chorlaydigan diniy ta'limni kuchaytirib yubordilar. Ba'zi g'alamislar diniy ta'lim jarayonida siyosatga aralashishni, kelgusida o'zlarini davlat mansablarida ko'rishni orzu qilib, turli maktablarda buni tashviqot qila boshladilar. Diniy saboq berish hamma joyda avj oldi. Ayniqsa, Namangan viloyatida bu narsa ommaviylashdi. Qonunga muvofiq musulmonlar idorasini ijozatlisiz, Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinmagan muassasalar va shaxslarning diniy saboq berishlariga ruxsat etilmaydi. Shuningdek, din davlatdan va maktabdan ajratilgan. Binobarin, o'quvchi yoshlarga maktabdan bo'sh paytlarida diniy mashg'ulotlarga qatnashishlariga ruxsat etilgan. Lekin shunga qaramasdan, ayrim yoshlarning maktabdagagi darslarini qoldirib, masjidlarga qatnayotganligi, qonunga xilof ravishda diniy tahsil olayotganliklari, ko'cha-ko'yda chalasavod mullalar tomonidan xurofot ham targ'ib etilayotganligidan tashvishlanmaslik mumkin emas. Chunki o'tmishda bizning ma'naviy merosimizga ta'sir ko'rsatgan, nihoyatda teran o'rta asrlar Islom falsafasini o'rganish o'rniga, johilik va tarixan eskirgan turmush qoidalarini ko'r-ko'rona o'zlashtirib olgan kimsalardan olingen saboq yoshlarning dunyoviy bilimlardan bezdirishi, taraqqiyot yo'lida qiyinchiliklar tug'dirishi tabiiyidir.

Vaholanki, Islom dini musulmonlarga taraqqiyot yo'lidan yurishni farz qilgan, kishilarni ilmga undagan. Alloh Qur'oni Karimda shunday deydi: "Aytgin, ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo'la oладиларми, албатта бу haqda faqat aqlii kishilargina eslaydilar"

(“Zumar” surasi, 9-oyat). Buning yaqqol isbotini Islom olamida tarbiyalangan buyuk mutafakkirlarimiz: Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqa o‘nlab allomalarning ijtimoiy-tabiiy fanlar sohasida dunyo ilm ahlini hayratda qoldirgan beqiyos kashfiyotlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Ba’zan Ramazon va qurban hayitlarida qabrlar qarshisida nimaningdir ilinjida qur’on oyatlaridan o‘qib o‘tirgan yosh bolalarni ko‘rib, ularga saboq bergan “xonaki” mullalardan ranjiysan kishi. Nahotki, ular Qur’oni Karimdag“Albatta ko‘p odamlar ilmsizligi tufayli xavoi nafsga berilib yo‘ldan adashadilar” (“An’om” surasi 119-oyat) oyatidan bexabar bo‘lsalar. Ular Islom dinida diniy tariqatlardan moddiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanan qoralanishini, sunniy mazhabining asoschisi Imom A’zam (Abu hanifa an-No‘mon ibn Salot) hazratlari mo‘yna va sholifurushlik qilgанини, hazrati Bahouddin Naqshband hunarmandchilik orqasidan kun kechirganligini ham bilishmas, balki.

### **3. Din niqobi ostida ba’zi jaholatparast guruhlarning tashkil topishi va ularning jamiyat taraqqiyoti uchun xavfi**

Islom tarixidar mukammal xabardor bo‘lmagan kishilar ning jamiyatimizga mos kelmaydigan, ayrim guruuhlar manfaatini ko‘zlovchi ta’limctilarini ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirib, atrofdagilarga “yuqtirishga” harakat qilishlari, yoshlарimiz ongida milliy istiqlol masifikasini shakllantirishda Islom dinining ahamiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi muqarrardir. Chunki mamlakat ijtimoiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar tarixiy merosimiz, ma’naviy madaniyatimizning boy va qudratli qatlamlari ochilishiga samarali ta’sir etib, xalqinizing ruhiyati milliy iftixor va butun dunyo uchun bag‘rikenglik tomonga o‘zgarmoqda.

Shu o‘rinda, bunday munosabatlar qaror topishi jarayoniga xalaqt berishi mumkin bo‘lgan turli harakterdagi salbiy harakatlar, mezonlar va boshqa bir qator illatlar ham namoyon bo‘ldiki, ularning namoyandalari xalq orasiga qutqu solish kabi o‘z qora niyatlar yo‘lida har qanday vositadan, hatto qonundan chekinishlardan ham tap tortmadilar

Ushbu salbiy oqibatlarning eng qabibi vahhobiylar tomonidan diniga siyosiy tus berilishi, uning vositasida hokimiyat sari intilishlari, musulmonlar orasiga nifoq solishlari, qo'poruvchilikni, hatto pirovard-oqibatda, dinning ham o'z ich-ichidan buzulishiga qaratilgan harakatlardir. Bunday harakatlar mohiyati, tarihiy ildizlari va g'oyalari haqidagi turkum ko'rsatuvar oynai jahon orqali namoyish etildi va respublikamiz gazetalarida e'lon qilin-gan maqola va munosabatlarda ham o'zining ifodasini topdi. Ular-ning mazmunidan shuni anglab yetish mumkinki, fojiali ishlarning sodir bo'lishiga sababchi shaxslar millatimizni ezgu niyatlardan chalg'itish yo'lida Islomni "qurol" qilib olishgan. Chunki Islom dini asrlar davomida xalqimizning muqaddas e'tiqodi, ma'naviy hayotining dasturilamali bo'lib kelgan. Shu bois, bugun biz qu-rayotgan yangi jamiyatda Islom dini alohida hurmat va e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Binobarin, jamiyat bilan Islom dini manfaatlari o'rtasidagi mushtaraklikni mustahkamlash bugungi kunning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Ko'rinish turganidek, jamiyat bilan din o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, xususan, fuqarolik jamiyatining din va uning ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rni va ahamiyatiga to'g'ri yondashuvi, undan ezgu maqsadlar yo'lida keng foydalanishni maqsad qilib qo'yishi g'oyat muhimdir.

Din jamiyat rivojiga asrlar davomida ta'sir etib kelayotgan omillardandir. Shunday ekan, ushbu ta'sirchan targ'ibot vosita-sidan keng foydalanish istiqlol mafkurasi va axloqini shakllan-tirishga, jamiyat a'zolarini zamonomiz talab qilayotgan yuksak fazilat-lar ruhida tarbiyalashga ham yaqindan yordam beradi. le-kin, shu bilan birga, mamlakatimizda ba'zi doiralarning g'arazli maqsadlarga yetishish vositasi sifatida, hatto mutaassiblik, ya'ni fanatizm yo'lida ham dindan foydalanayotgani sir emas. Shu bois, Prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" deb nomlangan kitobida o'sha davrdagi murakkab vaziyati chuqur his etgan holda, e'tiborni odamlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq har qanday muammo g'oyat nozik ekanligiga, xususan, Islomni qayta tiklash shiorlaridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko'zlayotgan, dinga aloqasi bo'limgan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o'rtasidagi farqni tushunib olishlari zarur

ekanligiga qaratgan edi. Darhaqiqat, ommaning chinakam Islomga zid bo‘lgan, zo‘ravonlikka da‘vat etuvchi g‘oyalarning mohiyati ni atroficha anglab yetishuviga erishish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur kitobda islomshunosligimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalar haqida ham so‘z yuritiladi. Bular diniy taassub, ekstremizmning oldini olish, unga qarshi kurashish vositalari bilan bog‘liq masaladir.

Yana shu narsaga alohida e’tibor qaratish zarurki, ba’zi g‘arazgo‘y kuchlar ekstremizm va terrorizmni faqat islom dini bilan bog‘lab ko‘rsatishga harakat qilmoqdalar. Bu narsa jahon miyosida islom dinining obro‘sini to‘kish uchun ataylab qilinmoqda.

Lekin tarixiy faktlar shuni ko‘rsatadiki, ekstremizm va terrorizm hali islom dini paydo bo‘lмаган davrda ham mavjud edi. Buni qadimgi davrda amalga oshirilgan terroristik harakatlar isbotlaydi. Bu harakat xristianlikda ham, buddaviylikda ham mavjud bo‘lgan. Biz bu haqda keyingi boblarda batafsil fikr yuritamiz.

Mazkur asarda ta’kidlanganidek, taassub, ya’ni fanatizmning yuzaga kelishiga ko‘proq jamiyatdagi “siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi sabab bo‘ladi”. Darhaqiqat, “diniy tizimlarning o‘zi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishning samarali dasturlarini taklif qilishdan olis” bo‘lganligi uchun taassubchilar bu muammolarning osongina yechimi sifatida dinlar vujudga kelgan zamonlardagi jamiyatda mavjud bo‘lgan dastlabki shart-sharoitlarga qaytishni ma’qul ko‘radilar. Lekin ular keyingi asrlar dovonidan yana ortga qaytish umuman mumkin emasligini e’tiborga olmaydilar.

O‘z davrida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida mahalliy va xorijiy mamlakatlar ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bo‘lib o‘tgan brifingda aytishicha: “hizbi harakati jihad”, “Da‘vat ul-Irshod” va “Pokiston islom ulamolari jamiyat” kabi tashkilotlar yordamida O‘zbekistonlik (aksariyat Farg‘ona vodiysidan) yoshlar Peshovar tumanida joylashgan diniy o‘quv yurtlarida “o‘qitilmoqda” ekanlar. Barchani tashvishga solib, o‘ylantirgan hamda Vatanimizning osoyishtaligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga ko‘proq e’tibor berishni taqozo etgan narsalardan biri Pokistondagi mazkur yashirin o‘quv markazlarida Markaziy Osiyodan, asosan, Tojikiston va O‘zbekistondan

kelgan to‘rt yuzga yaqin kishilarning bizning davlatimizda turli qo‘poruvchilik ishlarini olib borish uchun tayyorgarlik ko‘rganligidir. Ana shunday murakkab sharoitda Vatanimizning har bir fuqarosi barcha o‘ylarini, fikri-zikrini bir joyga yig‘ib, o‘z yurtining kelajagi, tinchligi haqida, xalqimiz istiqboli haqida, oila va Vatan oldidagi o‘z burchlari haqida chuqur mulohaza yuritib Prezidentimiz siyosati atrofida birlashdilar.

Demak, insoniyat diniy ekstremizm va terrorizinga qarshi kurash avj olgan pallada turibdi. Yurtboshimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘n to‘rtinchi sessiyasidagi nutqida “Hozirgi vaqtida terrorizmning tajovuzidan o‘zini xoli his qiladigan birorta qit‘a yoki davlatning o‘zi yo‘q. Xuddi vabo singari yer yuzining ko‘plab mamlakatlariga yoyilib borayotgan bu baloqazo ertaga kimni nishonga olishini ham oldindan aytish qiyin”<sup>1</sup>.

## **2-§. DINIY AQIDAPARASTLIKNING KELIB CHIQISHI VA DUNYOVIY DAVLATNING DINGA MUNOSABATI**

### **1. Rivojlangan davlatlarda din bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar**

Barcha dunyoviy davlatlar kabi O‘zbekistonda ham din davlatdan ajratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida “hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan denga e’tiqod qilish yoki hech qanday denga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, deyiladi.

Dunyoviy davlatlar erishayotgan yutuqlar dunyoning siyosatini belgilayotgan bir paytda, davlat bilan din o‘rtasidagi yoki uning bir oqimi o‘rtasidagi kelishmovchilik kimga xizmat qilishini hamma tushunishi kerak. Hozirgi davrda dunyo xaritasiga nazar tashlasak, rivojlangan, iqtisodi baquvvat, harbiy jihatdan qudratli, ilmiy-texnika taraqqiyotida oldinda turgan davlatlar asosan dunyoviy davlatlardir. Lekin bu davatlardagi odamlar denga Xudoga ishonmaydi, de-

---

<sup>1</sup> Karimov I.A O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi 2005-yil 4-dekabr.

gan so‘z emas, aksincha, ularda ham diniy erkinlar yo‘lga qo‘yilgan, hatto davlat siyosatida asosiy rol o‘ynaydigan ko‘pgina mo‘tabar arboblar ham dinga amal qilib, ibodatni kanda qilmaydilar. Ularda din o‘z yo‘lida barqaror rivojlanmoqda. Din bilan davlat o‘rtasida mustahkam ittifoq tuzilgan bo‘lib, din davlat taraqqiyotiga, osoyishtalikka, fuqarolarni Vatanga fidoyilik, Allohga ishonch, imonli-e’tiqodli, rostgo‘y, pokiza, o‘z mehnati evaziga kun ko‘radigan, haromdan hazar qiladigan, kishining haqidan qo‘rqadigan,adolatli, o‘z huquqini taniydigan, boshqalarni hurmat qiladigan, mamlakatda mavjud qonunlar asosida ish yuritadigan ruhda tarbiyalashga ko‘maklashadi.

Yuqorida tilga olingen Z.Munavvarovning “Dunyoviy davlat va din” maqolasida muallif dunyoviy davlat haqida yaxshi ma’lumotni keltirib, shunday fikrni o‘rtaga tashlaydi, “O‘zbekiston dunyoviy davlat qurish yo‘lidan bormoqda. Xo‘s, dunyoviy davlatning dinga bo‘lgan munosabati nima bilan belgilanadi? Unda diniy e’tiqodga qanday o‘rinlar ajratilgan? qolaversa, din va umume’tirof etilgan tamoyillarga asoslangan demokratiya tushunchasi o‘rtasidagi aloqalar qanday bo‘lishi kerak? Ushbu murakkab savollarga javob izlar ekanmiz, xalqaro hamjamiyatning mutlaq ko‘pchiligin tashkil qilgan dunyoviy davlatlar tajribasi, ular taraqqiyotining tamal toshi bo‘lib xizmat qilayotgan g‘oya aslo xudosizlikka asoslanmagani, yaqin o‘tmishimizdagiga o‘xhash dahriy jamiyatni e’tirof etmaganiga amin bo‘lamiz. Dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatdagi dinga bo‘lgan munosabat demokratiya mezonlariga asoslanganligini chuqur idrok etamiz. Ular din hayotidagi ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-ruhiy muhit rang-barangligini ta’minlovchi xilma-xil tarixiy qadriyatlar silsilasidagi teng huquqli bo‘g‘in sifatida qabul qilinganligiga ishonch hosil qilamiz. Yana bir bor ta’kidlaymiz: demokratik dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatlarda din rang-barang ma’naviy-madaniy va tarixiy qadriyatlar tizimidagi teng huquqli bo‘g‘in, u boshqa bo‘g‘inlardan zaifroq ham yoki kuchliroq ham emas. Bizning jamiyatimiz taraqqiyoti negizi qilib belgilangan hurfikrlik tamoyili ham xuddi ana shu tajribalar idrokiga asoslangan”.

Maqolada dunyoviy davlatlarning dinga munosabati masalalariida qimmatli fikrlar bildiriladi. O‘zbekiston Respublikasida bu masalaning qanday hal qilinayotganiga ham alohida to‘xtaladi. Mual-

lifning fikriga qaraganda, dunyoning ko‘pchilik davlatlari, xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shani ko‘rsatadiki, din dunyoviy davlat tuzumi bilan nafaqat murosa qilishi, balki umummilliy yuksalish yo‘lida u bilan samarali hamkorlik qilishi mumkin. Demokratik davlatlarda aholining ko‘pchiligin tashkil etadigan xalqning diniy e’tiqodiga ko‘rsatilgan izzat-hurmat bilan bir qatorda, tub etnoslar uchun noan’anaviy bo‘lgan, lekin fuqarolarning muayyan qismi e’tiqod qiladigan dinlarga yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikka bir xil munosabatning qaror topganligi – Qur’oni Karimdagagi ibratli hikmatlardan “Dinda majburlash yo‘q” degan so‘zlarning chuqur insonparvarlik falsafasini yanada yorqinroq olib beradi.

## **2. Islomni yoyish uchun olib borilayotgan kurashning ba’zi xalqlar boshiga keltirgan tashvishlari**

XX asrning II yarmida umummusulmon sivilizatsiyasi hududida joylashgan ayrim davlatlar taraqqiyoti tajribasi, afsuski, ba’zilarida, xususan, G‘arb dunyosida Islom dinining jamiyat rivojlanishiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ijobiy ta’siri haqida jiddiy shubhalar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Masalaning taassufli jihatlaridan yana biri shundaki, haqiqiy islomning asl mohiyatidan yiroq ko‘rinishlar oxirgi yillarda ayrim olimlar tomonidan olg‘a surilayotgan sivilizatsiyalararo qarama-qarshilik va ziddiyatlar haqidagi sun‘iy nazariyalarni oziqlantirmoqda, turli madaniyatlar ni qiyoslash jarayonida umummusulmon madaniyatining salbiy jihatlarini bo‘rttirib ko‘rsatishga dastak bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fikrimiz ravshanroq bo‘lishi uchun bir-ikki misol keltiramiz.

Jabrdiyda afg‘on xalqining xohish-irodasiga xilof holda yigirma yilcha davom etgan xunrezlik mutaassib islomiy unsurlarning vujudga kelgan to‘s-to‘polondan o‘zlarining sof diniy e’tiqodidan tashqari bo‘lgan g‘arazli maqsadlariga erishishga intilishi tufayli, hozirgi bosqichda Afg‘onistondagi siyosiy-harbiy beqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy bo‘xchonning asosiy sababiga aylandi. Qo‘pol zo‘ravonlik shaklini olgan diniy taassub natijasida millionlab begunoh kishilar qirilib, uy-joyi, mol-mulki va hatto vatanidan mahrum bo‘ldi. Ular dunyoning turli mamlakatlarida hijratu g‘ariblik alamlarini tortishga mahkum etildilar.

Tojikistondek bizga qardosh, madaniyat va urf-odatlari uyqash bo'lgan mamlakat tajribasi ham Islom omilining sof diniy e'tiqod doiralaridan tashqariga chiqishi, ayniqsa, uning siyosiylashuvi jamiyat taqdiri uchun naqadar katta xatarga aylanishi mumkinligini ko'rsatdi.

Xuddi shunga o'xshash omillar ta'siri ostida Jazoirda atigi 5-6 yil ichida 80 ming musulmonning yostig'i qurigani har qanday sog'lom fikrli odamni dahshatga soladi.

Demokratik davlatlar tomonidan musulmon Sharqida dunyoviy rivojlanishning nusxa ko'chirishga arzigelik etaloni, deb baholanib kelingan. Turkiyada 1970-yillardan boshlab islomi kuchlarning faollashuvi va siyosiylashuvi tufayli avj olgan mafkuraviy ziddiyatlар natijasida sodir bo'layotgan ijtimoiy notinchlik ham kishi ni sergaklashtiradi.

Asrimizning 60-yillarida dunyoning sanoati rivojlangan davlatlari qatoriga kirishni maqsad qilib qo'ygan, o'sha paytda musulmon Sharqidagi "Dunyoviy rivojlanish" ning yana bir ibratli misoli tariqasida e'tirof etilgan Erondek qadimiy va baquvvat davlatdagi jamiyat hayotining barcha jabhalarini islomiylashtirishga qaratilgan sa'y - harakatlar eronliklarning rivojlangan davlatlar safiga kirish haqidagi orzularini puchga chiqaribgina qolmasdan, balki Eron Islom Respublikasini eng muhim xalqaro jarayonlardan chetga surib chiqqanganini kim inkor eta oladi?

Keltirilgan misollarga oxirgi yillarda Misr Arab Respublikasi va ba'zi G'arb mamlakatlari, shuningdek, sobiq sho'rolar o'rniда shakllangan yangi mustaqil davlatlarning ayrimlari hududida o'zini o'ta taqvodor deb da'vo qilayotgan mazhabiy va toifaviy islomi harakatlar, oqimlar va shaxslar tomonidan sodir etilayotgan turli ko'rinishdagi qonli zo'ravonliklarni qo'shsak, manzara yana ham oydinlashadi.

Biz Islom demokratiyaga murosasiz, degan da'veni olg'a surayotganlar (ular qaysi niyatlar bilan bu ishni qilayotganidan qat'iy nazar) tegirmoniga suv quymoqchi emasmiz. Zotan, o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lidan borayotgan yangi O'zbekiston tajribasi bunga zarracha asos bermaydi. Aksincha, mamlakatimiz rivojlanishi diniy omilining mutlaqo yangicha, ya'ni dinning jamiyat taraqqiyotidagi haqiqiy rolini tan olib. unga muavvan daraiada

tayanishi bilan o'tmish davrlardan tubdan farqlanib turadi. Shu sababli ham O'zbekistonda 1991-yildayoq "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" qonun qabul qilingan edi. Bu qonunda vijdon erkinligi huquqi fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar teng huquqliligi, dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi, Respublikamizda diniy tashkilotlar, diniy jamoa, diniy boshqarmalar, markazlar va birlashmalar, diniy o'quv yurtlari, ularning nizomlari, nizomlarni ro'yxatga olish va rad etish, diniy tashkilotlar faoliyatini qanday sharoitda to'xtatish kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Ayni paytda, bu qonunda diniy tashkilotlarning mulki va ulardan foydalanish, ularning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati, diniy urf-odatlar va marosimlar, diniy adabiyotlar, diniy tashkilotlarning xayriya va madaniy-ma'rifiy faoliyati, xalqaro aloqlari, bu tashkilotlarda mehnatga oid huquqiy munosabatlar, fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunni buzganligi uchun javobgarlik haqida to'la ma'lumotlar berilgan.

### **3. O'zbekiston sharoitida dunyoviy davlatning din bilan o'zaro munosabatlari tamoyillari**

Dinning jamiyatimizdagi o'rni, eng avvalo, uning konstitutsion maqomi bilan belgilanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, barcha fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlangan. Har bir insonga xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi berilgan. Diniy qarashlarni majburan singdirish qat'yan man etilgan. Diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani hamda ularning qonun oldida tengligi belgilab qo'yilgan.

Dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatida ikki muhim jihat bor:

- birinchisi, dindorlarning huquqiy maqomi;
- ikkinchisi, davlat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirdarda diniy konfessiyalar haqidagi qonunlarning hayotga tatbiq etilishi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu masalalar o'z yechimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me'yoriy talablarga to'la javob beradi. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishi-

lar uchun bir xildagi shartlar qo‘yilishini ta’minlovchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida shunday deyiladi:

“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan denga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi denga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarning majburiy singdirishiga yo‘l qo‘yilmaydi”.

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning denga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o‘z ifodasini topgan.

Birinchidan, Davlat vijdon erkinligini kafolatlash orqali denga qarshi siyosat olib bormaslikni e’tirof etadi.

Ikkinchidan, e’tiqod qilish yoki qilmaslik inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida tan olinadi.

Uchinchidan, yuqoridagi ikki asosiy tamoyildan kelib chiqqan holda va jamiyatda e’tiqodiy muvozanatni ta’minalash maqsadida, davlat diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Davlatning denga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Har qanday din birinchi o‘rinda ma’naviy-axloqiy jihatni o‘z ichiga oladi.

Vijdon erkinligi to‘g‘risidagi qonundan kelib chiquvchi tamoyil-larga qat‘iy rioya qilinayotganini quyidagilarda ham ko‘rish mumkin.

Mustaqillik yillarda diniy tashkilotlarning soni o‘sdi. 1990-yilda respublikada 119 ta diniy tashkilot mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2004-yilning 1 avgustiga kelib ularning soni 2170 ga yetdi. Diniy o‘quv yurtlarining ishi rivojlantirildi. Mustaqillikkacha bor-yo‘g‘i 2 ta diniy o‘quv yurti ishlagan bo‘lsa, o‘tgan yillar davomida ularning soni 11 taga etdi. Ilk marotaba diniy o‘quv yurti talabalariga sti-pendiya berish ta’sis etildi.

Toshkent Islom institutini 1975-1990-yillar orasida 153 kishi, Mir-Arab madrasasini 1950-1990-yillar orasida 272 kishi, umuman olganda sobiq sovet davrida diniy bilim yurtlarini jami 425 kishi bitirgan bo‘lsa, mustaqillik yillarda, ya’ni 1991-2004-yillar orasida ularni 5058 kishi bitirib chiqdi. Shu jumladan, imomlarning diniy ma’lumoti darajasi sezilarli oshirilishiga erishildi.

Fuqarolarga haj ibodatini ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. 1994-yildan hojilar uchun imtiyozli valuta konvertat-

siyasi tashkil etildi. Ushbu maqsadda o'tgan yillarda 47 mln.dan ortiq AQSH dollari ajratildi. 1991-yilda hajga boruvchilar soni 1500 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1996-yilda bu raqam yiliga 3800 ni tashkil etdi. Mustaqillik davrida jami 45110 kishi haj ibodatini ado etdi.

Davlatning denga bo'lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishga harakat qiladi. I. A. Karimovning 2004-yilning 29-30 may kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisining 14-sessiyasida so'zlagan nutqida bu tamoyil o'zining quyidagi ifodasini topgan: "Mamlakatimizning demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologik asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz". Bu fikrlar hayotiy voqelikka aylanmoqda.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat asosida dinning davlatdan ajratilishi tamoyili ham yotadi. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi".

Mazkur moddaga uchta muhim ahamiyatga ega qoida mustah-kam qo'yilgan.

Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Bugungi kunda Respublikamizda 15 ta noislomiy konfessiyaga mansub 185 ta tashkilot emin-erkin faoliyat olib borayotgani buning amaliy ifodasıdir.

Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish, ularning ichki ishi hisobidan va davlat nazoratidan holidir.

Uchinchidan, diniy tashkilotlar, davlatdan ajratilgan. Ammo bu dinding jamiyatdan ajratilganini anglatmaydi. Zero, biror denga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeiga ega bo'ladi.

Shu bilan bir vaqtida, masalaning ikkinchi tomoniga ham katta ahamiyat berilgan. Ya'ni yuqorida mezonlar Konstitutsiyaning 57-moddasida quyidagicha aniqlashtiradi: "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi,

Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligi, fuqarolar-ning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyatiga ta’qilanganadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi”.

Prezidentimiz I. A. Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida mamlakatimiz sharoitida dunyoviy davlatning din bilan munosabatlarini aniqlashtiruvchi asosiy tamoyillar qatoriga:

**“– dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish; - diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;**

**– diniy qadriyatlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, unga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;**

**– ma’naviy tiklanish umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zaruriyat;**

**– dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish”** kiritilgan.

Dunyoviy jamiyat qurishni ko‘zlagan davlatimizning dingga munosabatini belgilovchi zikr etilgan konstitutsion mezonlar va Prezidentimiz fikrlaridan quyidagi ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi:

Birinchidan, O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy va adolatli dunyoviy jamiyat qurish konsepsiyasida din mada-niy-ma’naviy omillar umumiyligiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida so‘zsiz tan olinadi. Mustaqil rivojlanish yillarda ushbu mezonnning hayotga nechog‘lik izchil tatbiq etilayotganini faqat qalbi ko‘r, adolatga xusumat bilan munosabatda bo‘lgan kimsalargina inkor etishi mumkin;

Ikkinchidan, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida bo‘lgan har qanday g‘arazga erishish yo‘lida diniy omildan foydalanishga intilish qat’iyan man etiladi.

Prezident haqli ravishda, dinning O'zbekiston fuqarosini tarbiyalashdagi katta imkoniyatlariga ishonadi va “**biz din hundan buyon ham aholini eng oliv ruhiy-axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdomiz**”, deb ta'kidlaydi. “**Lekin biz**, deb davom etadi I.A.Karimov, - **hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'yaymiz**”.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida” qonun qabul qilinganidan o'tgan 7 yil vaqt ichida bu sohada mustaqil O'zbekistonda ancha tajriba to'plandi. Ana shu to'plangan tajribalarni umumlashtirgan holda 1998 yil aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yuqoridagi qonunni yangi tahrirda qabul qildi.

Ushbu qonunning asosiy mohiyatini tushunish uchun uni to'la o'qib chiqish va konspektlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki talabalar uyda ota-onalari bilan maslahatlashgan holda, shuningdek, mahalla va qishloqdagi tengqurlari bilan bu masalada fikr almashadilar, mustaqil mushohada qiladilar. Shunday qilib, qonunni o'qish-o'rganish bilan unga itoat qilish, uni hurmat qilish ko'nikmasi ham paydo bo'ladi. Zotan, huquqiy ongga tayangan madaniyatning eng muhim uzviy qismlaridan biri qonunga itoatkorlik ko'nikmasidir.

Erkinlik-demokratiya degani faqat huquqlardan iborat emas, balki ular bilan barobar zimmamizga yuklangan majburiyatlar ham ekanini qon-qonimizga singdirmagunimizcha demokratik huquqiy jamiyat qurish bilan bog'liq ezgu niyatlarimiz shirin orzuligicha qolaveradi.

### **TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:**

Rivojlangan davlatlar, dunyoviy davlatlar, ijtimoiy-madaniy muhit, ma'naviy-ruhiy muhit, dinda majburlash yo'q, islam demokratiyasi, odamlar va marosimlar, Konstitutsiyaviy tuzum, ma'naviyatga tajovuz qilish, maxfiy jamiyat va uyushmalar, diniy tuyg'ular, dinda buzg'unchilik maqsadlari, erkinlik va demokratiya.

### **MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:**

1. Islam omilining sof diniy e'tiqod doiralaridan tashqariga chiqishi, siyosiylashuvi Jazoirda qanday oqibatlarga olib keldi?

2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?
3. Dunyoviy davlatning din bilan munosabatlarini aniqlashtiruvchi asosiy tamoyillarni sanang.
4. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida»gi Qonunning yangi tahriri qachon qabul qilingan?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasi mazmu-ni nimalardan iborat?

### **3-§. AMALIY MASHG'ULOT**

#### **Diniy fundamentalizm va aqidaparastlikning kelib chiqishi**

**Darsning maqsadi.** Talabalarga islom dinining jamiyat ma'nnaviy hayotidagi o'rni va uning vazifasi, fundamentalizm va aqidaparastlik, islomdagi asosiy yo'nalish hamda mazhablarning hozirgi holati haqida bilim berish. Talabalarni dinni niqob qilib olib, o'zlarining yovuz maqsadlari yo'lida foydalanish uchun harakat qiluvchilarga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash.

**Darsning shakli.** Guruhlar taqdimoti (prezentatsiyasi). Darsga oid jihozlar. Markerlar, flamaster, plakatlar va kerakli adabiyotlar. Sinf taxtasi va undan ko'rgazmali materiallardan kodoskop va multimedia materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

#### **Darsning tuzilishi:**

Tashkiliy daqiqa, yangi mavzu bo'yicha guruhda ishslash, guruhlar ishining yakuni, darsga yakun yasash va uyga vazifa.

#### **Sinf taxtasiga quyidagi yozuv osib qo'yiladi:**

«Din, shu jumladan, islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'nnaviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariiga aylantirgan. Madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko'maklashgan va ko'maklashmoqda».

**Islom Karimov**

Noan'anaviy amaliy mashg'ulot bo'lganligi uchun ushbu darsning maqsadini o'qituvchi talabalarning ijodiy izlanishi va mustaqil fikr-lashi uchun imkoniyat yaratishini tushuntiradi. Shu maqsadda talabalarning bilimlari va qobiliyatları hisobga olingan holda guruhlarga bo'linadi. Mavzu taqdimoti plakatga yoki sinf taxtasiga yoziladi. Kodoskop yoki multimedialiaga moslab kompyuterga yoziladi.

Darsda asosan talabalar faol ishtirok etadilar. O'qituvchi esa ularni boshqarib boradi.

### **Guruhlarga beriladigan topshiriqlar:**

**1-guruh.** Dinning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Islomning paydo bo'lishidagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit.

**2-guruh.** Islomni asl holicha saqlab qolishga intilish-fundamentalizm yoki aqidaparastlik. Uning turlari, amal qilish tarzları.

**3-guruh.** Islomdag'i asosiy yo'nalish va Hanafiy hamda Xanbaliy mazhablar.

**4-guruh.** Molikiy va Shofe'iyya mazhablari. Hozirgi holat.

#### **1-guruh taqdimoti:**

**1-talaba:** Biz bu masalani to'la tushuntirishimiz uchun tarixiy bilimlarga tayanishimiz va shu bilan birga islomga oid ko'pgina adabiyotlarni o'qigan bo'lishimiz lozim. Chunki diniy aqidalar paydo bo'lishida tarixiy sharoit asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli Oliy Majlisning XI sessiyasi materiallarida ham bu masalaga katta e'tibor berildi.

**2-talaba:** Darhaqiqat, insoniyat tarixinining eng qora bulutli kunlarida yovuzlik ezgulik ustidan g'olib kelgan paytalarida xalqni yorug'likka yetaklovchi oliyanob g'oyalari bo'lgan. Johiliyat davrida arablarda axloqsizlik, diyonatsizlik tamoman avjiga chiqqan, insof vaadolat oradan ko'tarilib, qavm mayparastlikka mukkasiidan ketgan. Butlarga sig'inishgan. Qiz bola tug'ilsa, uni tiriklayin yerga ko'mish odad tusiga kirgan. Jaholat qutqusida Yaman hukmdori Abraxa Ka'bani buzishga chog'langan va o'zi baloga giriftor bo'lgan. Oradan qirq besh kun o'tgach, Muhammad alayhissalom dunyoga kelgan. Uning dini esa islam. Islomning mohiyati yagona Allahga sig'inish, rost gapirish, hidoyatga yo'llash.

**3-talaba:** Lekin har kim har xil talqin qiladi. Tabiatan odam bolasi dunyoni o'zining qarichi bilan o'lchaydi. Shuning uchun

ham, garchi islom dini muqim turgan bo'lsa-da, daraxt tanasidan chiqqan shoxlarday turli qarash va turli oqimlar paydo bo'lgan, ayrim kimsalar esa sultanatni qo'lga kiritish niyatidagi sa'y-harakatini islom dini vositasida niqobladi va oqibatda ular mo'minlarni turli guruhlarga ajratib yubordi. Ba'zilari esa o'zlarining g'arazli niyatlarini amalga oshirish uchun dinga yolg'onni qo'shdilar, munofiqlar o'zlarining buzuq fikrlarini oyat yoki hadislar bilan isbotlashga harakat qilib musulmonlarni aldadilar va islomdan buzg'unchilik yo'lida foydalandilar.

Diniy ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga quyidagi omillarni ko'rsatish mumkin:

- sovet tuzumida ozod bo'lgan respublikalarda mavjud bo'lgan turli guruhlarning hokimiyat uchun olib borgan kurashlari;
- yosh mustaqil davlatlarda o'tish davridagi qiyin ijtimoiy-iqtisodiy ahvol;
- joylarda fuqarolarning ish bilan ta'minlashdagi muammo-lari;
- ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarashi;
- sobiq ateistik mafkura oqibatida din haqida bilimlarning kamligi;
- diniy-ekstremistik guruhlar faoliyatini fosh etuvchi adabiyotlarning tanqisligi.

Mazkur omillarni bartaraf etish uchun mamlakatimizda, dinalar, diniy jarayonlarni xolisona o'rghanish maqsadida mustaqil O'zbekistonning yangi dinshunosligi yuzaga keldi, deb aytishimiz mumkin.

**4-talaba:** Aslida islom dunyosida Qur'oni Karim va Hadisi shariflardan kelib chiqqan turmush tarzi Mavarounnahr hududidagi barcha musulmonlarning kundalik hayotiy turmush tarzi si-fatida qadrlanadi. Uning asosiy qadriyatları - Iyd ramazon, Qurbon hayit, payg'ambarlarni ulug'lash, an'analar va urf-odatlarni qadrlash islom sultanatini mustahkamlash va abadiylashtirishda xizmat qilgan buyuk allomalarning kundalik ehtiyojiga aylanib goldi. Bugungi kunda o'zini musulmon hisoblagan har bir insonni ana shu qadriyatlarsiz va musulmon turmush tarzisiz tasavvur qilish qiyin. Ma'lumki, mazkur turmush tarzi kishilarning ha-

lol, sof, imonli bo‘lishlarida katta rol o‘ynaydi. Umuman olganda islom dini axloqiy pok insonlarni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy qadriyatdir. Bu ma’naviy qadriyat musulmonlarni hamisha bir butun uyushgan va hamjihatlikda yashovchi birlik sifatida mavjudligini ta’minlovchi muhim omil bo‘lib kelgan.

**5-talaba:** Albatta, tarix manfaatlar uyg‘unligi va ziddiyatlar birligidan iborat bo‘lgan hodisadir. Shuning uchun ham islom dinining paydo bo‘lishidan to shu bugunga qadar, g‘oyalar, manfaatlar, hokimiyat uchun kurashlar silsilasidan iborat bo‘lgan voqealarni kuzatish mumkin. Bu kurashlar hamisha xalqning tinchligi, osoyishtaligi va pokiza hayotini buzgan, uni notinch qilgan. Shuning uchun ham din tarixini varaqlaganimizda ana shunday notinchliklar guvohi bo‘lib, ularning saboqlarini muhokama qilib, bugungi kunda islom dunyosida sodir bo‘layotgan har qanday harakatga juda katta javobgarlik hissi bilan baho berishimiz lozim.

## **2-guruh taqdimoti:**

**1-talaba:** Islomni asli holida saqlab qolish uchun harakat qilib odamlarni bir-biriga qarshi qo‘yib, qon to‘kishni tashkil qilayotgan, amalda o‘zining huzur-halovatini o‘ylayotgan kimsalarni Yevropada fundamentalistlar, Markaziy Osiyoda aqidaparastlar yoki ekstremistlar, deb ataydilar.

«Fundamentalizm» so‘zi asli lotinchadan kelib chiqqan bo‘lib, asos yoki poydevor ma’nosini bersa-da, aqidaparastlik tushunchasi unga mos keladi. Biron narsaning asosi, jumladan, dinning asosi yoki poydevori. Fundamentalizm barcha dinlarga xos bo‘lib, dinning asli qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi.

Fundamentalizm atamasi aslida xristian dini bilan bog‘liqdir. Bu ibora birinchi bor 1908-yilda AQSHning Kaliforniya shtatti protestantlari tomonidan rasmiy ravishda qo’llanilgan. Uning 5 qoidasi bor.

- Isoning bokira ayoldan dunyoga kelishi;
- uning insoniyat gunohlarini oqlash uchun qurban bo‘lgani;
- jismonan qayta tirilish;
- yer yuziga jismonan ikkinchi bor kelishi;
- kitobning muqaddasligi va uni dastlabki holiga qaytarish lozimligida ifodalanadi.

Yuqoridagi aqidalarda xristian dini sof holda tasavvur etilgani ni tushunish qiyin emas, ammo keyin boshqa dinlarda jumladan, islomda ham fundamentalistik g'oyalalar ishlab chiqila boshlandi.

Umuman olganda turdi dindagi oqimlar yo'nalishlar tarafdlari muqaddas kitoblarda bayon etilgan aqidalarni o'zgartirmaslik hamda diniy qoidalarni so'zsiz bajarishni o'zlariga ma'qul ko'radilar.

Ammo islom fundamentalistlarining g'oyalari protestantlarni kidan mutlaqo farq qiladi.

Keng ma'noda tahlil qiladigan bo'lsak, u allaqachon diniy oqim chegaralaridan chiqib, ijtimoiy-siyosiy qarashlar yo'nalishiga aylangan. Islom dinini niqob qilib olgan, islom fundamentalizmi sof islom asosiga qaytish, asl holida qo'llash zarur va faqat ana shu yo'l bilan islom dinini bid'atdan "tozalashga" erishish mumkin, degan noto'g'ri qarashlarni targ'ib qiladi. Albatta, "Islom fundamentalizmi" tushunchasi hozirda islom dinining g'oyalari siyosiy tus berilgani bilan bog'liq. Islom fundamentalizmi tarafdlari kuch ishlatish, zo'ravonlik qilish, qon to'kish hatto qurolli kurash yo'li bilan o'z maqsadlarini amalga oshirishga urinayotganligini hech kim inkor etmaydi. Islom fundamentalistlarining harakati hozirgi paytda ekstremistlar, muttaassiblar va terrorchilar harakatiga yo'g'rilgan jinoiy tushunchaga aylangan. Islom ekstremistlarning "Jihodi"ni qattiq qoralab, ularning qilmishini jinoyat deb baholamoqdalar va qattiq jazolamoqdalar. Qolaversa, bu norasmiy diniy siyosiy oqimlarning jinoyatlari shariatda qonuniy hukumatga qarshi isyon deb baholangan va ularga nisbatan Ollohning kechirilmas jazosi – o'lim qo'llangan.

**2-talaba:** Islom fundamentalizmi hozirgi islom dinidagi uch oqimdan (traditsionalizm va modernizm bilan birga) biri. Bu oqim o'zini diniy uyg'onish tarafdlari deb ataydi. Islom fundamentalizmining asosiy konsepsiysi islomning fundamental prinsiplari kapitalizmdan ham, sotsializmdan ham farq qiluvchi mustaqil «Islom taraqqiyot yo'li»ni belgilab beradi, deb hisoblaydilar. Islom traditsionistlaridan farq qilgan holda, ular ana shu fundamental prinsiplarni tiklash va ularga amal qilish tarafdlaridir. Lekin islom modernistlariga qarshi ular ana shu prinsiplarni hozirgi davr taqozosiga moslab qayta talqin etish mumkin emas, deb hisoblaydilar.

**3-talaba:** Islom traditsionistlari esa o'rta asr aqidalariga izchil amal qilib, dinni har qanday isloh qilishlarga qarshi chiqadilar yoki ularning fikricha, dinda «ijtihod eshiklari yopiqdir». Ular milliy ong sohasida islomni millatchilikka qarshi qo'yadilar, ya'ni musulmonlar qaysi millatdan bo'lishiga qaramay, jamiyatda islom aqidalariga so'zsiz amal qilishlari kerak, ijtimoiy ong sohasida esa musulmon jamoasi a'zolari, ummatlar teng huquqli, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas, degan konsepsiyanı ilgari suradilar.

**4-talaba:** Ular ham fundamentalistlarga o'xshab din va siyosatni bir deb tushunadilar. Fundamentalistlar islom bilan millat manfaatlarini bir, deb hisoblaydilar. Fundamentalizm tarafдорларининг мақсади ижтимоий адодат учун курасиши бо'либ, хатто мазлум табақаларни бoshqalardan ajratib, ular nomidan ish ko'radilar.

Traditsionalizm yarim feodal tabaqalar mafkurasi bo'lib, dehqonlar va hunarmandlar psixologiyasini aks ettirsa, fundamentalizm radikal va konservativ dunyoqarashdagi mayda guruhlar manfaatlarini ifodalaydi.

**5-talaba:** Diniy fundamentalizm, ya'ni aqidaparastlik ko'rko'rona ishonishga, e'tiqodga asoslangan dalilsiz, isbotsiz qoidaga, ishonch bilan aytilgan fikrga yoki qattiq ishonilgan mulohazaga asoslanadi. Shu sababli aqidaparast odamlarga aqidalarga ko'rko'rona ishonuvchi, aqidalarga yopishib olgan, dogmatizm taraf-dori sifatida qaraladi. Chunki dogma - bu tanqidiy tekshirmay, ko'rko'rona qabul qilingan qonun-qoida, fikr- mulohaza, aqidadir. Shuning uchun ham aqidaparast dogmalarga, aqidalarga asoslangan tafakkurga, eskirgan, qotib qolgan nazariy qonun-qoidalarga tanqidiy ko'z bilan qaramay, ko'rko'rona ishonadi va unga amal qiladi.

Shu sababli ular:

1. Aqidaparastlikni yoyish orqali musulmonlarning dunyoviy islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishga urinadilar.
2. Yosh davlatlarda tobora mustahkamlanib borayotgan umum-milliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar o'rnida fuqarolararo to-tuvlikka rahna solishga qaratilgan faoliyat yuritadilar.
3. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e'tiqod erkinligiga asoslangan ko'p konfessiyali dunyoviy jamiyatni

obro'sizlantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar.

**6-talaba:** Demak, diniy fundamentalizm - aqidaparastlik aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo'jizalarining muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqinga murosasiz, so'zma-so'z talqinga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir. Demak, diniy fundamentalizm -- ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarni hal qilish mumkin, degan fikrni ilgaru suruvchilarning yo'nalishi. Aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan harfiy talqin tarafdori. 1910-yilda bu nom bilan xristianlikdagi protestant oqimlar atalgan.

Shundan kelib chiqib, islom fundamentalizmining ilk davrlariga nazar tashlasak, islomning boshqa mamlakatlarga yoyilishida ham o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

### **3-guruh taqdimoti:**

**1-talaba:** Ma'lumki, islom dini asosan ikki yo'nalishdan iborat: sunniylik va shialik. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, jahondagi 1,2 milliard nafardan ko'proq musulmonlarning 92,5 foizini sunniylar tashkil etadi. Sunniylik tarafdorlari dunyoning 120 ga yaqin mamlakatida, jumladan, Pokiston, Arabiston yarim oroli, Fors ko'rfazi atrofidagi arab mamlakatlari, Suriya, Livan, Iordaniya, Eron, Shimoli-sharqiy va G'arbiy Afrika mamlakatlari, Rossiya, Markaziy Osiyo, Bolqon davlatlari, Kipr, Germaniya va AQSHda yashaydilar. Dunyoning 35 mamlakatida musulmonlar mamlakat aholisi tarkibining asosiy qismini tashkil etadi.

**2-talaba:** Shialar esa Eron, Iraq, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Ozarbayjon va Tojikistonda bo'lib, Abu Bakr, Umar, Usmon kabi halifalarni tan olmay, hazrati Ali tarafдорларидир va 12 imomni tan oladilar.

Sunniylar Qur'oni Karim va sunna (Muhammad alayhissalom hadislari)ga e'tiqod qiladilar. Sunniylikda 4 ta diniy huquq mazhabbi bo'lib, ular: Hanafiy (Abu Hanifa an-No'mon, 699-767), Hanbaliy (Ibn.Hanbal, 780-855), Molikiy (Molik ibn Anas, 721-795)

va Shofe'iyya (Abu Abdullo Muhammad ibn Idris ash – Shofe'iy, 767–820) mazhablaridir.

**3-talaba:** Hanafiy – Iroqda vujudga kelib, islom dini tarqalgan barcha mamlakatlarda, jumladan, Xuroson va Movarounnahrda ham keng yoyilgan. Burhonuddin Marg'inoniyning «Hidoya» to'plami bu mazhabning asosiy qo'llanmasi sifatida tanilgan. Hanafiy qonunlari nisbatan yumshoqroq va qulayroqligi, xalqlarning mahalliy an'analarini e'tiborga olganligi sababli keng yoyilgan. Sunniylik yo'naliishiga mansub musulmonlarning uchdan bir qismidan ko'prog'i bu mazhabga kiradi.

Xalqimiz tarixan sunniylikning mo'tadilligi va bag'rikengligi bilan siyosiy-iqtisodiy va ilmiy-madaniy yuksalishga qulay sharoitlar yaratib kelgan hanafiy mazhabi (Imomi A'zam Abu Hanifa mazhabi)ga chuqur e'tiqod qilib kelgan. Bundan ham muhimi, mazkur mazhab diniy aqidalarning shakllanishida mintaqamizdan chiqqan Abu Lays Samarcandiy, Nasafiy, Moturidiy, Kosoniy kabi o'nlab buyuk allomalar asosiy rol o'ynaganlar.

**4-talaba:** Kezi kelganda shuni ta'kidlash joizki, hanafiylik sunniylikni tashkil etuvchi to'rt mazhab ichida eng kattasidir. Hisob-kitoblarga ko'ra, dunyodagi musulmonlar mazhablar bo'yicha quyidagi-cha bo'lingan: hanafiyalar – 47 foiz, shofe'iyyalar – 27, molikiylar – 17 va hanbaliylar – 1,5 foiz. Qolgan 7,5 foizni shialar, ibodiylar va xorijiyalar tashkil qiladilar. Masalaning yana bir ibratli jihat shundaki, hanafiyalar Indoneziya va boshqa janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlaridan boshlab, Turkiyagacha bo'lgan ulkan geografik hududda mutlaq ko'pchilikni tashkil qiladilar. Shofe'iyyalar – Shimoli-sharqiy Afrikada, molikiylar esa – Shimoli-g'arbiy Afrikada aksariyatni tashkil etadilar.

**5- talaba:** Modomiki, hanafiylik an'analarini eslagan ekanmiz, shu o'rinda uni sunniy mazhablardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlaridan bittasinigina eslab o'tishni o'rinli deb bilamiz: hanafiylik o'z tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida musulmonlarning hamjihatligi, o'zaro inoqligi va birligini ta'minlash uchun kurashib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, musulmon jamoasi orasidagi har qanday firqachilikka, ya'ni qavmning diniy e'tiqod belgilari bo'yicha guruhlarga bo'linishiga qat'iy qarshi bo'lib kelgan.

Hanbaliylik-diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi, huquq tizimining o'ta torligi, har qanday ko'rinishdagi

«yangilik»ga qarshiligi va shariat ahkomlariga rioxha etishda qat’iy mutaassibligi bilan ajralib turadi. Bu mazhab tarafdarlari Qur’on va hadislarni erkin talqin etish yo’lidagi har qanday urinishlarni qoralaganlar va shuning uchun ham bu mazhab keng tarqalmagan. Faqat IX asrning 2-yarmida arab halifaligida mu’tazimiyarning va ilohiyot sohasidagi hurfikrlilikning ta’qib ostiga olinishi tufayli hanbaliy birmuncha kengaygan va XII asrda mustaqil mazhabga aylangan. X asrda Eronda, XI asrdan XV asrgacha Suriya va Falastinda Hanbaliy izdoshlari ko’p bo’lgan.

**6-talaba:** XIV asrga kelib Suriyada arab ulamosi, mufti Taqi ad-Din Ibn Taymiya hanbaliy mazhabini jonlantirishga urinib ko’radi. Ammo ulamolarning qattiq qarshiligiga uchraydi. O’zi quvg’in qilinib, hibsga olinadi va 1328-yilda zindonda vafot etadi.

Undan keyingi asrlarda hanbaliy tarafdarlari yana kamayib ketgan. XVIII asrda paydo bo’lgan vahhobiylar hanbaliy tarafdoi bo’lib chiqqan.

**7-talaba:** Hanbaliy mazhabiga e’tiqod qiluvchilarga kelsak, ular asosan, hozirgi Saudiya Arabistoniga hududida yashaydilar. Oxirgi yillarda ommaviy axborot vositalarida tez-tez gapirilayotgan vahhobiylar harakati ham mazkur o’lka tarixining uzviy qismidir. Vahhobiylar harakati sunniy mazhabining eng kichigi bo’lgan va radikal yo’nalish hisoblangan hanbaliylik ichidan o’sib chiqqan, dunyoviy qadriyatlarga nisbatan o’ta murosasiz diniy-mafkuraviy oqimdir. Yuqorida keltirilgan raqam va misollar mantiqan qator savollarni paydo qiladi. Jumladan, nima uchun bizning musulmonlarimiz sunniylik yo’nalishidagi eng kichik mazhab – hanbaliylik g’oyalari bilan sug’orilgan vahhobiylikká berilishlari kerak? Axir bu nafaqat ma’naviy-madaniy, balki sof diniy qadriyatlarimizdan ham chekinish emasmi?

#### **4 - guruh taqdimoti:**

**1-talaba:** Molikiy mazhabi tarafdarlari huquq masalalarda ratsionalistik metodlarga, ya’ni Qur’on va hadislarni aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. U dastlab, Hijozi va Madina, keyin boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Hozirgi davrda molikiy mazhabni Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va ayrim boshqa mamlakatlarda musulmonlar o’rtasida ta’sirga ega.

**2-talaba:** Shofe'iyya–Suriya va Misrda shakllangan bo'lib, o'rta asrlarga kelib Yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Keyinchalik bu mazhabning ta'sir doirasi torayib borgan va hozirgi vaqtida Sharqiyo Afrika mamlakatlarining ba'zilarida, qisman Suriya va Janubiy Arab Sulotonliklarida bu mazhabga amal qiluvchilar bor. Bu mazhab a'zolari islom huquqini an'anaviy normalar bilan bog'lashga, ijmo'dan, ya'ni Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan masalalarda mujtahidlarning asoslangan fatvosidan foydalanishga e'tibor berishgan.

**3-talaba:** Agar bu mazhablarning kelib chiqishini ilmiy asoslaydigan bo'lsak, o'sha davrda musulmonlar yashagan joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Chunki bosib olingen joylardagi xalqning barcha urf-odatlari, an'analarini birdaniga yo'q qilib, islomni joriy qilish va uni mahalliy xalqqa singdirish og'ir masala edi. Shu sababli musulmon hukmdorlari va ruhoniylari mahalliy xalqning an'analarini bilan hisoblashishga majbur bo'lganlar.

**4-talaba:** Fundamental islom tarkib topgan joydagি xalqlarning urf-odatlari va an'analarini islomning mag'iz-mag'iziga singib ketdi. Shu sababli hanbaliy mazhabi Arabiston yarim oroli atrofidan boshqa joylarda qo'llab-quvvatlanmadи.

Ammo mazhabni yangidan tiriltirganlar vahhobiylar edilar. Xo'sh, bu mazhablar qanday kelib chiqdi? Agar biz uning ildiziga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir oqimning boshida turgan manfaatdor shaxslar ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan, siyosatdan kelib chiqib islomga yondashganliklarini va boshqalarga ham singdirishga harakat qilganliklarini ko'ramiz.

**5-talaba:** Islom dini tarqalgan hududlarning hammasida ijtimoiy-iqtisodiy muhit bir xil emas edi. Turli-tuman an'analar, asrlar bo'yи yashab kelgan urf-odatlar mavjud ediki, ularni islom birdaniga uloqtirib tashlay olmas edi. Ba'zi bir oqimlar esa islomning fundamental asoslari yaratilgan muhitda paydo bo'ldiki, ular boshqa uzoq hududlardagi sharoitga mos kelmasligi tabiiy edi. Shu sababli hanbalizm oqimini hatto Arabiston yarim orolining qo'shnilarini ham tan olishmadи. Bu oqim tarafdorlari turli usullar bilan, hatto jangarilik yo'li bilan uni islom mamlakatlariga yoyishga harakat qilmoqdalar.

Aslini olganda, hanbalizm fundamentalizmni, aqidaparastlik vahhobiylikni, vahhobiylik esa diniy ekstremizmni vujudga keltirdi.

**6-talaba:** Eng muhim aqidaparastlikning kelib chiqishida chetdan berilayotgan turtki muhim rol o'ynayotganligini, fundamentalizm doimo biron-bir guruhning manfaatiga xizmat qilganligini bilib olishimiz lozim. Shundagina bizda mustaqil mushoha-da paydo bo'ladi va mustaqil fikrash doiramiz kengayadi.

Hozirgi kunning eng asosiy muammolaridan biri 90 foiz aholisi muslimon bo'lgan mamlakatning diniy e'tiqodiga zid bo'lgan aqidalarining mintaqaga kirib kelishining oldini olish, an'anaviy ma'rifiy mo'tadil, islomni yot g'oyalardan sof holda saqlashdir. XXI asr vabosi bo'lgan terrorizm va diniy aqidaparastlik xavfini to'la bartaraf qilish ham mazkur muammoni hal qilishga bog'liq. Chunki, har qanday mutaassib kayfiyatdagi islom nomini olgan jangari-lik, diniy aqidaparastlik, kishilarning diniy hissiyotlaridan g'arazli maqsadlarda foydalanishga intilish jamiyatdagi demokratik islohot-lar, diniy bag'rikenglik shartlarini ta'minlaga to'sqinlik qiladi.

Mazkur harakatlar qanday shiorlar ortida yashirinmasin ularning maqsadi bitta, u ham bo'lsa diniy niqob ostida siyosiy jara-yonlarga ta'sir qilish va pirovardida hokimiyatni egallashdir.

Mavjud muammolarni hal qilish jamiyatimizning barcha a'zolari oldiga qator vazifalarni qo'yadi. Jumladan, respublikamizda olib borilayotgan vijdon erkinligi sohasidagi siyosat, uning amaliy natijalari, mamlakatimizda qaror topgan bag'rikenglik muhitini omma orasida keng yoritishga qaratilgan, diniy tadbirlar-ga diniy tashkilotlar vakillari, mutaxassis olimlarni faol jalb qilish orqali ularning samaradorligini ta'minlash lozim.

Turli millat va din vakillari orasida totuvlikni mustahkamlash, millatlar va dinlararo muomala madaniyati, umuminsoniy qadri-yatlarga hurmatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarning hozir-javobligi va ta'sirchanligini oshirish ham dolzarb vazifalardandir.

O'qituvchi darsni yakunlaydi. Har bir guruh va o'quvchini baholaydi. Maslahat va uyga vazifa beradi. Buning uchun diniy ekstremizm va fundamentalizmning mamlakatimiz uchun jiddiy xavf ekanligini tushuntirib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi» Qonunning mohiyati-

ni qisqacha tushuntiradi. Buning uchun u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida Prezidentimiz I.Karimovning so'zlagan nutqida: «Tarbiyachilar, olimlar, domlalar tomoshabin bo'lib o'tirmasligi lozim. Farzandlarimizni kim to'g'ri yo'lga soladi, kim ularning ongini tozalaydi, kim ularga haq gaplarni gapi-rib, hayotda o'z e'tiqodiga suyanib yashashni o'rgatadi, tarbiyalaydi? Yoshlarning to'g'ri yo'l tanlashida kim birinchi bo'lib yordam berishi kerak, ularga kim tayanch bo'lishi lozim?» degan gaplarni keltirib, oilada va mакtabda bolalarning kimlarga quloq solishi, kimlarga ergashishi, ularning Vatan oldidagi, ota-onal oldidagi burchi qanday ekanligini tushuntiradi. So'ngra, diniy ekstremizm va fundamentalizm xavfi haqida to'xtalib, XX asr oxiridagi dunyo o'zgarishlarini tushuntiradi. Chunki XX asr oxiriga kelib dunyoda, ayniqsa, uning geografik-siyosiy haritasida katta o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, yangi-yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lib, jahon hamjamiyatiga kelib qo'shildilar.

#### **4-§. VAHHOBIYLIKNING YUZAGA KELISHI VA ASOSIY G'OYALARI**

##### **1. Vahhobiylik paydo bo'lishi arafasida Arabiston Yarim orolidagi shart-sharoit va vahhobiylikning ildizlari**

Biz bu mavzuni o'rganishdan oldin vahhobiylik tarixi haqida asosiy manba bo'lib xizmat qilayotgan A.M.Vasilyevning "Puritane Islama?" (M.Nauka, 1967), Yu.Abdullayevning "Vahhobiylik tarixi" (T.1999) kitoblari va Saudiya Arabistoni tarixi bilan yaxshi tanish bo'lishimiz lozim. Ayni paytda, sho'ro davrida nashr etilgan adabiyotlarga tanqidiy yondashishni unutmaslik maqsadga muvofiqdir.

Undan tashqari, vahhobiylikning kelib chiqishi haqida Yu.Abdullayevning "Maqsad asli nima edi?" (O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1998-yil 27 mart), G'.Hotamov. Sh.Hamroyevlarning "Ko'ngildagi buzilish" (Xalq so'zi, 1998-yil 4.5,7 mart) maqolalar turkumida qimmatli ma'lumotlar bor.

Vahhobiylik haqida yevropaliklar, shuningdek, arab, turk, rus sharqshunoslari XIX asrdayoq yirik tadqiqotlar yaratishgan bo'lsada, lekin bu haqda bizning matbuotimizda yaqin vaqtlargacha

to'la ma'lumot beruvchi asar yoki maqolalar chop etilmagan. Vahhobiylarning o'zi haqida keyingi yillarda ba'zi kishilar og'zidan yarim yorti ma'lumotlar eshitilgan yoki din vakillari Imom A'zam mazhabiga qarshi fikrlar aytilganda muxoliflarga qarshi chiqqanlarini hisobga olmaganda, ko'pchilik aholi bu harakat yoki oqim haqida yetarli ma'lumotga ega emas edi.

Shuning uchun ham vahhobiylarning ildizlariga nazar solish, uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish zarur.

Albatta, har bir hodisaning vujudga kelishiga aniq omillar sabab bo'ladi. Bu fan tilida obyektiv yoki subyektiv sabablar, yoki hodisani vujudga keltirgan vaziyat, deb yuritiladi. Vahhobiylarning paydo bo'lishida ham o'ziga xos sabablar bor edi.

Vahhobiylirk paydo bo'lishi arafasida Arabiston Yarim orolida feodal, yarim qullik munosabatlari hukm surardi. Viloyatlarda sinfiy bo'linish, karta belgilari, ko'chmanchi qabilalar o'rtasida o'zaro birodarkushlik urushlari davom etardi. Shu sababli, mam-lakatni yagona markazga birlashtirish ijtimoiy zarurat edi.

Ikkinchidan, Arabiston Yarim oroli bu davrda, garchi, ras-miy mustaqil hisoblansa-da, Usmon imperiyasi tarkibida bo'lib, bu saltanat yildan-yilga yemirilib bormoqda va uning tarkibidagi hududlar mustaqillik uchun harakat boshlagan edilar.

Uchinchidan, butun Arabiston Yarim orolida Usmonli turklar hukmronligi davrida hanbaliy mazhabiga zid o'laroq, bir qator "yan-giliklar" kirgan edi. Jumladan, muqaddas joylarga, ya'ni Islomda-gi sahabalar, yirik diniy arboblar, avliyolar, so'fiylarga sig'inish avj oldi. So'fiylar musiqani tashviqot qildilar va ularning yig'inlari mu-siqasiz o'tmas edi. Ko'p joylarda tarkidunyochilik, bangilik, folbin-lik, yulduzlarga qarab bashorat qilish, ziyyaratgoh joylardan mush-kulni oson qilishni so'rash, mozorlarga qurbanlik qilish odad tusiga kirib qoldi. Magiya, animizm va fetishizm belgilari ham mavjud edi. Mana shunday sharoitda Islomni dastlabki uch asridagi holati-ga qaytarishni tashviqot qilib vahhobiylirk paydo bo'ldi.

**Vahhobiylirk** – diniy-siyosiy oqim bo'lib, XVIII asrda Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Vahhobiylar bevosita din nomidan ish ko'rgan va uni "tozalash" go'yoki Payg'ambar davri-dagi asl holatiga qaytarish, barcha arablarni yashil bayroq ostida birlashtirish kabi g'oyalarni ilgari surgan. Ingliz mustamlakachiligi bu

vaziyatdan o‘z maqsadida foydalangan: g‘oya tarafdarlarini qurollantirib, Usmonli turklarga qarshi jangga tashlagan. Shuning uchun ham ular Usmonchilar mansub bo‘lmish xanafiy mazhabini kofir mazhab deb e‘lon qilishgan. Qandaydir doiralar manfaati yo‘lida islomdagi o‘z barodarlarini kofirga chiqarishga borib yetishgan.

Vahhobiylar dunyoviy madaniyatga qat’iy qarshi turib, mu-siqa, teatr va tasviriy san’at bilan shug‘ullanish, badiiy zavf-shavq olish kechirilmaydigan gunoh deb hisoblashadi. Ayni paytda ular hokimiyatni egallash va uning vositasida o‘z tartib taomillarini hayotga tatbiq etish uchun qat’iy kurash olib borishadi, faqat bu niyatni amalga oshirish uchun dindan vosita sifatida foydalanishadi, xolos.

## **2. Muhammad Ibn Abdul Vahhob Ibn Sulaymon – vahhobiylar asoschisi**

Muhammad ibn Abdul Vahhob ibn Sulaymon 1703-yilda Arabiston Yarim orolidagi, Najd viloyatining Ayayna shahrida tug‘ildi. Uning otasi qozi edi. Muhammad Abdul Vahhob 10 yoshida Qur’onni o‘qib chiqadi va 12 yoshida tafsirni egallaydi, jamoat ibodatida qatnashadi va uylanadi. “Qo‘shni davlatlarda”, ya’ni Hijoz, Basra, Xas, Bag‘dod, Hamadon, Xalab, Damashq, Quddus va Qohirada bo‘ladi. Makka va Madinani borib ko‘radi. Uni yoshligidan ustozи Abdullo ibn Ibrohim ibn Sayfo-hanbaliy mazhabbi bo‘yicha vahdoniyat (yakkaxudolik) aqidasi bo‘yicha tarbiyaladi va bu sohada juda ko‘p kitoblar bilan ta’mirladi. Ayniqsa, uning dunyoqarashida Ibn Taymiya asarlari katta rol o‘ynadi, chunki Ibn Taymiya hatto hanbalizmning ham ba’zi tomonlarini inkor etuvchi ashaddiy vahdoniyatchi bo‘lib, undan 500 dan ortiq kitob qoldi.

Vahhobiylar ta’limoti umumiy qilib aytganda, Islom mohiyatiga, shariatga asoslangan bo‘lib, ular Islomni Qur’on va hadislар asosida poklashga, Muhammad (s.a.v.) davridagi (ya’ni asri saodatdagи) asli holiga keltirishga, arablarni chinakam Islom bayrog‘i ostida birlashtirishga harakat qilganlar. Ular muqaddas joylarni ziyorat qilishni, avliyo va mozorlarga sig‘inishni, zohidlikni qoralaydilar. Oddiy kiyinish, kamtarona hayot kechirish, ayshu ishratga va ko‘p boylik to‘plashga berilmaslikni targ‘ib qiladilar. Shu bilan ular musiqani, qo‘sish qaytishni qoralab, ma’naviy madaniyatga qarshi chiqdilar.

### **3. Vahhobiylar yuzaga kelishida ingliz jesuslik xizmatining roli**

Yu.Abdullayevning maqolasida ta'kidlanishicha, vahhobiylar paydo bo'lishiga, hatto ingliz jesuslik xizmati ham aloqador ekan. Masalan, turk islomshunos olimi M.Siddiq Kumushning 1997-yili Istanbuldagagi "Haqiqat kitobi" nashriyotida chop etilgan "Ingliz jesusining aytganlari yoki Angliyaning Islomga qarshi dushmanlik faoliyati" kitobida yozilishicha, Muhammad Abdul Vahhab tahsil olayotgan vaqtлari ingliz jосusi Xemper bilan uchrashib, uning ta'siriga tushib qoladi. Buyuk Britaniya qirolligi Mustamlakalar vazirligi o'sha yillari musulmon Sharq mamlakatlariga – arab, fors, turk tillarini mukammal biladigan, o'zini musulmon deb yuritadigan ko'plab joslarni yuborgandi. Keyinchalik, Xemper o'z xotiralarida Muhammad Abdul Vahhabni qanday uchratganini va uni o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun qo'lga olganligini yozadi.

Muhammad Abdul Vahhab Basrada bo'lgan chog'ida dastlab "haqiqiy yakkaxudolikka" qaytishni targ'ib qila boshlaydi, lekin u yerdan quvib yuboriladi. 1726-27-yillarda Huraymilda yashab, o'z g'oyalarini targ'ib qilishga tushadi va hatto otasi bilan arazlashib qoladi. Ko'p o'tmay Bag'dodga ketadi va u yerda boyvuchcha xotingga uylanadi, lekin u xotin to'satdan vafot etib, butun boyliklar Muhammad Abdul Vahhabga qoladi. Shundan keyin u Isfaxon va Qum shaharlariga borib Islom falsafasini o'rganadi va Ibn Hanbalning g'oyalariga butunlay beriladi.

Yuqorida kitobda yozilishicha, asta-sekin Xemper yigit ongida islom aqidalari mustahkamligiga ham shubha uyg'ota boshlaydi. Masalan, ro'za tutish va besh vaqt namoz o'qishni doim ham shart emasligi kabi "fikri g'alat" larni uqtiradi.

"Namoz o'qishdan kuzatilgan maqsad Allohn yodga olishdir, - deydi u Muhammad–demak, namoz o'rнiga faqat Allohning nomini cheksiz takrorlab, salovat aytsa ham bo'laveradi".

Bir kuni Xemper Muhammad Abdul Vahhabga: "Yo Alloh! – deya hayajon bilan murojaat qiladi, – Allohning amri bilan shu kecha tushimda janobi Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo salollohu alayhi vassallamni ko'ribman. U kishi taxti muborakda o'tirganmishlar. Atroflarida chahoryorlar, sahabalar, ulamo-

lar. Shu pallada sen kirib kelding. Yuzingdan porloq nur taralardi. Payg‘ambarga yaqinlashding. Shunda ul zot o‘rinlaridan turib peshonangdan o‘pdi va:

– Ey mening adashim, birodarim, – dedilar, – Sen mening davomchim, diniy va dunyoviy ishlarda xalifam bo‘lgaysan!

– Yo Allohnning rasuli! Men ta‘limotimni odamlarga targ‘ib qilgani cho‘chiyapman! – deya javob qilding.

Payg‘ambarimiz esa:

– Sen barcha buyuklardan buyuksan! Cho‘chima! – deya lutf qildilar”.

Bu yolg‘on tushni eshitgan Muhammad Najdiy go‘yo qanot bog‘lab samoga parvoz qiladi va o‘zini mujtahid-Islomda ijtihad huquqiga ega bo‘lgan, ya‘ni mustaqil ravishda diniy-aqidaviy masalalar bo‘yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs, deya e‘lon qiladi. Bu esa islomiy masalalarda muslimlar on-gida o‘zgartirish yaratish uchun bag‘oyat qulay omil edi.

Xemper asta-sekin bu yigitning qo‘ltig‘iga kirib, ongidagi islomiy e‘tiqodni bid‘at bilan almashtirishga harakat boshlaydi. Islomni chuqur o‘rgangan jesus g‘o‘r, ammo o‘zini shariat ilmining eng buyuk bilimdonlaridan hisoblovchi mullavachchani turli yo‘llar bilan aynitishga kirishadi. Masalan, aroniylar orasida mavjud bo‘lgan siyg‘a-nikoh an‘anasini dalil qilib, yigitni biror ayol bilan vaqtincha birga yashashga undaydi.

Xemper Muhammadni yana bir ingliz josus ayoli Sofya bilan tanishtiradi. Sofya ham musulmon ayoli qiyofasida Basrada jesuslik ishlari bilan shug‘ullanadi. Muhammad Abdul Vahhob Basra va Damashq shaharlarida tahsil olib qaytgach, ona yurtida uch oy chillada o‘tiradi. Uch oy hamma tomoni o‘rab tashlangan uy ichida yakka-yolg‘iz xudoga toat-ibodat qilib vaqt o‘tkazadi. Yurtdoshlari uni katta bilim egasi – islomiy olim, ulamo, deya bilganlar. Ingliz razvedkasi topshirig‘iga muvofiq Xemper uni shu yerda ham izlab topadi. Muhammad Xemperni o‘zining quli deb aytadi va doim yonida olib yuradi. Muhammad Abdul Vahhob madrasa ko‘rgan olim, mujtahid sifatida eldoshlari orasida birmuncha obro‘ qozongach, taxminan, milodiy 1730-1740-yillar o‘z aqidalarini ommaviy tashviq qilishga kirishadi. Xemperning yozishicha, u Muhammad Abdul Vahhobni pul va boshqa narsa-

lar bilan ta'minlab turgan. Ba'zi va'zlardan keyin g'azabga kelgan musulmonlar yangi dohiyni o'ldirish maqsadida unga tashlanishgan ham. Shunda Xemper Muhammad Abdul Vahhobni muhofaza qilish uchun tanqo'riqchilar yollagan.

Vahhobiylikning kelib chiqishini tushuntirar ekanmiz, Islom olamini bo'lib tashlashda va "nifoq solu hukmronlik qil" degan aqidani doimo olg'a surib kelgan mustamlakachilarining siyosiy nayranglariga alohida e'tiborni qaratish va uni yurtimiz tarixi bilan bog'lashimiz lozim. Talabalar ongiga singdiradigan g'oyalar doimo "bu harakatlar, bu oqimlar kimga xizmat qiladi, ularning orqasida kim turibdi, xalqimizga qanchalik foydasi bor", degan oddiy haqiqatni anglab olishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

#### **4. Vahhobiylikning Islomga har qanday "yangilik" kiritilishiga qarshi faoliyatি**

Biz ushbu savolni o'rganishga kirishar ekanmiz, oldingi darslarda foydalanilgan adabiyotlardagi fikrlarni davom ettirib, Islomda "yangilik nima?" degan savolga javob topishimiz zarur. Shuning uchun "ijmo" so'zining ma'nosini talabalarga tushuntirib berishimiz va hanafiylikni qanday kelib chiqqanini izohlashimiz lozim. Bunda Qur'oni Karim va hadislar kishilik jamiyati duch keladigan ko'plab muammolarga to'la javob bera olishini va undan unumli foydalanish lozim.

Shuningdek vahhobiylikning asosiy g'oyalari A.M.Vasilyevning "Puritane islama?" kitobida ancha batatsil yoritilgan va Yu. Abdul layevning "Maqsad asli nima edi?", G'.Hotamov, S.O'nar, Sh. Hamroyevlarning turkum maqolalarida bir qator qo'shimchalar keltirilgan.

Vahhobiylar o'z davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitdan kelib chiqib g'oyalarni ilgari surdilar. Birinchi navbatda Islomga kiritilayotgan yangiliklarga (ijmoga), ya'ni Qur'on va hadisda bo'limgan masalalarni ruhoniylar fatvosi bilan hayotda qo'llashga qarshi chiqadi. "Islomga yangiliklar kiritish eng katta gunohdir", - deydi Muhammad Abdul Vahhob o'zining islam jamoalari qarshiligiga uchragan "Kitob al-Tavhid" asarida.

Muhammad Abdul Vahhab Islom uchun faqat Qur'on va sunnaga itoat etishgina farz, deb biladi, shuningdek, Abu Hanifa, Imom Ahmad ibn Hanbal, imom Molik ibn Anas, imom Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iy kabi to'rt mazhab peshvolari ta'lomitini e'tirof etsa-da, ularning ko'pini qattiq tanqid qiladi, ulardan boshqa islam nazariyachilarining, hatto payg'ambar avlodlarining aytganlari, shuningdek, hadislarda keltirilgan yo'l-yo'riqlarning ko'pi bekordir, deya ta'kidlaydi. Lekin ibn Taymiya va ibn Al-Qayyum ta'lomitini to'la quvvatlagan.

"Muhammad payg'ambar muslimlarga faqat Qur'on va sunnani qoldirdim, deganlar, biroq avlodlarim va mazhablar imomlarini ham qoldirdim demaganlar, – deya mulohaza qiladi u, – demak, musulmon odam sahobalar, ulamolar va muhaddislarning fikrlariga qanchalik qarshi chiqmasin, baribir Qur'on va sunna talablariga muvosiq komil musulmon bo'lib qolaveradi".

Xemperning aytishicha, Muhammad Abdul Vahhab muhadislar, ayniqsa Imom al-Buxoriyning "Sahih al-Buxoriy"sigi ancha qattiq hujum qilgan va unda keltirilgan hadislarning yarmi soxta va befoydadir deya isbotlashga uringan.

Ma'lumki, Islom dini hamjihatlikka, Alloh yo'lida bir bo'lishga da'vat etadi. Zamonlar o'tishi bilan bu birdamlik ayrim davlatlariga yoqmay qoldi, to'g'rirog'i, ular musulmonlar yakdilligidan haviqa boshladilar. Bir chetdi turib quroq kuchi bilan arab davlatlariga tahdid solish hech bir foyda bermagach, qanday qilib bo'lmasin, musulmonlarni ichidan buzishga, nizo chiqarib ularni bo'lib yuborishga harakat qilishdi. Bu vaziyatda mavjud mazhablar ichida nizo chiqarish imkoniyati qo'l keldi. XVII asrlarda isaviylar hozirlagan dasturlar asosida go'yo islomga e'tiqod qo'ygan bolalar Turkiya, Qohira, Misr va Suriyaga yuborib o'qitildi, ulardan esa ulamolar yetishib chiqdi, bu olimlar o'zлari olgan ta'lim-tarbiyadan kelib chiqib isaviylar mafkurasiga xizmat qildi, dinni ichidan buzishga xizmat qilishdi. Garchi islomdagagi bir kichik mazhab bo'lsada, hanbaliya mazhabidagilar dingga amal uning puritanlik, ya'ni harfxo'r islom bo'lishini talab qila boshlashdi. Vaholanki, hech kim Payg'ambar alayhissalom hadislарини о'зича талқин qilishga, ularни manfaatlariga moslashtirishga haqli emas. Islom olimlarning ta'kidlashlaricha, Rasuli akram "Har bir yangilik zalolatdir"

deganlarida u ibodatdagи yangiliklarni nazarda tutganlar. Zinhor – bazinhor dunyoviy yangilikni, taraqqiyotni emas.

## **5. Yakkaxudolikning targ‘ib qilinishi va bu sohadagi amaliy faoliyatlar**

Vahhobiylarning g‘oyasi vahdoniyat (yakkaxudolik)ni mustahkamlash edi. Ular: “Allohdan boshqa hech kim marhamat ko‘rsatmaydi, madad bermaydi, farishtalar, payg‘ambarlar (Allohning vakillari), muqaddas joylar, avliyolar musulmonlarning gunohlari uchun Alloh oldida himoyachi bo‘la olmaydilar”, – deb ta’kidlashni xush ko‘rardilar. Ularning fikricha, musulmonlar yakkaxudolikka amal qilmay qo‘ygan.

Musulmonlar muqaddas joylarga ziyoratga boradilar, u yerda sadaqa beradilar, qurbanliklar qiladilar, ulardan yordam so‘rab iltijo qiladilar, ular muqaddas joylar yaxshilik yoki yomonlik qiladilar deb ishonadilar. Hatto toshlar va o‘simliklarda Allohning quadrati bor, deb sig‘inadilar. Bu narsa yakkaxudolikka ziddir, deb ta’kidlaydilar. Payg‘ambarning sahabalari va boshqa safdoshlarini yuqori ko‘tarish shart emas, ularning qabrlari ustiga maqbaralar qurish shart emas, qabristonlarni obod qilib, ularni sanamlarga aylantirish, qabrlarga yodgorlik qo‘yish mushriklikdir, deb hisoblaydilar.

“Hamma narsaning yaratguvchisi yakkayu yagona Allohdir. Allohga berilgan 99 ism, payg‘ambar, chahoryorlar, avliyolariga sig‘inish asli bid‘atdir! Dinimizni Muhammad davridagi holiga keltirish, arablarni chinakam Islomning yashil bayrog‘i ostida bir-lashtirish lozim. Islomning asosida vahdoniyat, ya’ni yakkaxudolik yotadi. Shu bois muqaddas joylarni ziyorat qilish avliyolar va mazorlarga sig‘inish, zohidlik ayni kufrdir!” deb jar sola boshladilar.

Vahhobiylarning payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga alohida g‘arazli munosabati bor edi. Ular Muhammad Alloh payg‘ambarlik vazifasini yuklagan oddiy odam, deb hisoblardilar. Payg‘ambarni ilohiylashtirish mumkin emas, unga sig‘inish, undan narsa so‘rash, uning qabriga sig‘inish kerak emas, lekin hech narsa so‘ramay qabrni ziyorat qilish mumkin, deb hisoblashgan. Payg‘ambarni yordanga chaqirish, undan homiylik qilishni so‘rash mumkin emas. Ammo qiyomat musulmonlar uchun Alloh oldida xi-

moyachi bo'lishi mumkin. Uning nomi bilan bog'langan joylarni masjidlarga, ziyoratgohlarga aylantirish mumkin emas, kimki bunga amal qilmasa, Allohga shirk keltirgan bo'ladi, deb tashviqot qilishardi.

Najd o'lkasi masjid va madrasalar minbarlarida ovozi baland, yosh mujtahidning va'zları tez-tez yangray boshladi. Tevarak-atrofida uning izdoshlari, shogirdlari ko'paydi.

"Ey musulmonlar! Nega avliyolar maqbaralarini hojası etagini o'pgan qullarday ko'z yosh ila tavof etasiz? Axir ular ham siz va biz kabi oddiy musulmonlar-ku! Axir, payg'ambarimiz yolg'iz Allohagina najot izlab murojaat eting demaganmidilar?! Makka va Madinada serhasham ziyoratgohlar nechun? Dini Islomni o'z g'arazli manfaatlariiga moslashtirib olgan soxta avliyolar ta'siridan saqlaning! Ularning kitoblarini o'qimang va ularga ergashmang? Allohagina ibodat qiling! Islomdag'i to'rtala mazhabning hammasi bid'at! Ularga ergashganlar kofirdirlar. Payg'ambarga ibodat qilmangiz, zero u siz bilan Alloh o'rtasidagi elchi, xolos. Qiyomat kuni kimga qanday jazo berish faqat Allohnning ishi. Muhammad sizga shafoat qilishi mumkin. Allohdan o'zgaga ibodat qilganlar – mushrikdirlar!" kabi va'zlar ko'plarga ta'sir qila boshladi.

Vahhobiylarning kurash obyektlaridan yana biri sehrgarlik, afsungarlik, duixonlik, jodugarlik, avroqchilik, folbinlik va haka-zolarga qaratilgan edi. Ular turli xil ins-jinsdan, ko'zdan asrovchi tumorlarni taqib yurishga ham qarshi chiqishdi.

– Chin musulmonlar zebu ziynat taqmasliklari, oddiy kiyinshlari darkor. Zero, payg'ambarimizning o'zları sodda, xalqona kiyanganlar. Kamtar – xokisor bo'ling! Aysh-ishrat, dabdaba-ga berilish kufrligidir! Umrini xudo yo'liga emas, balki boylik to'plashga bag'ishlaganlarning joyi do'zaxdir! Yagona Allohga ibodat qiling va undan qo'rqing! Musiqa tinglash va qo'shiq aytish, rasm chizish va boshqa yengiltakliklar gunohi azimdir!

– Vahhobiylar kimlar o'zlariga qo'shilsa barcha majburiyat va qarzlaridan ozod bo'ladir, deb e'lon qildilar, natijada ularning tarafдорлари ancha ko'paydi. Vahhobiylar tamaki va nasha chekishni, musiqa chalish, qo'shiq aytishni, raqsga tushishni, rasm chizishni, ipak kiyimlar kiyishni, katta bayramlar o'tkazishni taqiqladilar.

Filologiya fanlari doktori, professor hoji Ismatulloh Abdulloh shunday yozadi: "Vahhobiylar ta'limotida hayotdagi ba'zi salbiy il-

latlarga qarshi kurashish, mol-dunyo, hirsu havodan voz kechish, Islomga zid urf-odatlardan tiyilish, halollik, poklik kabi ijobjiy g'oyalar borligini inkor etish adolatdan emas” (“O‘zbekiston ovozi”, 1998-yil 5 mart). Darhaqiqat, har qanday ta’limot xalq orasiga singishi uchun ijobjiy xislatlarga ega bo‘lishi lozim yoki o’sha muhitdagi jamiyatni boshqarib turgan qatlamning manfaatlariga mos kelishi kerak. Aks holda, bu ta’limotning beshikdaligidayoq janozasi o‘qiladi. Vahhobiylilik o‘z davrida ham ichkaridagi hukmron sinflar, ham tashqari-dagi qudratli kuchlar tomonidan qo’llab-quvvatlandi.

Lekin uning ba’zi ijobjiy tomonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni, ma’naviy yuksalishni, madaniy rivojlanishni bo‘g‘ib qo‘yadigan, eng muhimmi, uni niqob qilib, hokimiyatga intilishi keltirib chiqaradigan salbiy tomonlar soyasida qolib ketadi.

## **6. Vahhobiylilikning fanatizm va bosqinchilik urushi g‘oyasi ekanligi. Ularning bosqinchilik harakatlari**

Vahhobiylar fanatizm va “muqaddas urush” tarafдорлари bo‘lib chiqdilar. Muhammad Abdul Vahhobning akasi Sulaymon uzoq vaqt ukasining g‘oyasiga qarshi chiqadi. Xijoz tarixchisi Ibn Zayni Dahlan: “Bir kuni Sulaymon ukasi Muhammaddin Islomda nechta ustun bor deb so‘raydi. Ukasi unga beshta deb javob qaytaradi. Shunda Sulaymon “Yo‘q, sen oltinchisini yaratding, chunki kim senga ergashmasa musulmon emas, deb e’lon qilding”, deb javob qaytarganligini yozadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ular o‘z fanatizmi yo‘lida hatto qarindosh-urug‘larini, yaqinlarini ham ayamaganlar.

Shu sababli, ular hatto o‘zlariga qo‘silmagan musulmonlardan ko‘ra yahudiy va xristianlarga ham yumshoqroq muoma-la qilishgan. Ozgina soliq evaziga ularga uylarida ibodat qilishga ruxsat berishgan. Vahhobiylar qayerga hujum qilib bosib olsalar, qabristonlardagi maqbara, yodgorliklarni buzib tashlash g‘oyasini olg‘a surdilar va uni amaliyotda qo’lladilar. Bu bilan egallagan joylarida o‘z ta’limotlarini, g‘alabalarini mustahkamladilar. Natijada tarix uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab qimmatli yodgorliklar yo‘q bo‘lib ketdi. Vahhobiylar bundan tashqari, o‘zlarining g‘oyalariga to‘g‘ri kelmagan ko‘plab ilohiyotchi olimlarning kitoblarini yoqib yubordilar.

Vahhobiylilik g'oyasidagi fanatizm, ashaddiy, chidab bo'l-maydigan darajaga yetdi. Ularning dushmani bo'lgan "g'ayridinlar" va "ko'pxudolik" larga nisbatan g'azab har qanday shafqatsizlikni keltirib chiqarar edi. Ayni paytda, fanatizm vahhobiylarni jipslashtirar, tartib-intizomga tushirar va harbiy jasoratga undardi. Shunday qilib, vahhobiy bo'lмаганларга қарши мұқаддас үруш (jihod) е'lon qilish uchun g'oyaviy zamin yaratildi. Buning uchun mamlakatda siyosiy vaziyat ham yetilgan edi. XVII asrning boshlarida Najd vohasining amirligi Saud ibn Muhammad ibn Mikrin (saudiylar sulolasi asoschisi) qo'liga o'tdi. U 1725-yil vafot etdi va o'zaro urushlar natijasida o'g'li Muhammad ibn Saud amir bo'lib qoldi hamda qo'shni qabilalarga қарши talonchilik үrushlarini olib bordi. Amir Muhammad 1747-yilda vahhobiylar aqidasini tan olib Abdul Vahhobga murid bo'ldi va ko'p o'tmay oddiy bosqinchidan din sofligi uchun "kurashchi" ga aylandi. Shunday qilib, vahhobiylilik yuzaga kelganidan boshlab "g'ayriddin" larga va "ko'pxudolik" larga қарши "muqaddas үrush" g'oyasiga hamda harbiy ekspansiya va bosqinchilik үrushlari mafkurasiga aylandi. 1740-yilda ibn Saudning maslahati bilan Muhammad Abdul Vahhob haj payti Makkaga borib, butun dunyodan yig'ilgan hojilar huzurida o'zini tanitib va'z aytadi. Aqidalarini sharhlaydi. Xuddi shu yili Muhammad ibn Saud Najd o'lkasini davlat deya e'lon qiladi va bu davlatda vahhobiylilikning yetakchi diniy oqim ekanligini rasmiylashtiradi. Yangi diniy oqim badaviylar o'rtaSIDA keng tarqala boshlaydi. Zero, vahhobiylar odamlarni tenglik, birodarlikka chorlar, maishiy hayotdagI dabdabayu as'asaga chek qo'yishni talab qilar va bu g'oyalar oddiy savodsiz xalq ongiga yaxshi singirdi.

Vahhobiylilik bosqinchilik үrushlari bayrog'i bo'lsada, Arabistonni Saudiylar boshchiligidan birlashtirishga mafkuraviy asos bo'ldi. Ayniqsa, arablarni Islomning yashil bayrog'i ostida birlashtirish g'oyasi o'sha paytda arab yerlarini bosib olib hukmronlik qilayotgan Turkiyaga қарши qaratilgan edi. Albatta, bu g'oyalar arablar ongini chulg'ab olsa nima ro'y berishini Xemper va uning maslakdoshlari yaxshi tushunardi.

Vahhobiylar bayramlar va unga bog'liq marosimlarni, muqadas ziyoratgohlarni, avliyolarni inkor qildi, o'zlariga mos kelmagan mahalliy ruhoniylarni quvg'in qildi, egallagan joylaridagi

avliyolar qabrlarini buzdilar. Muqaddas hisoblangan daraxtlarni kesib tashladilar va shu bilan Arabistonda feodal tarqoqlikning g'oyaviy va ruhiy tayanchini yo'qotdilar. Chunki muqaddas joylari bo'limgan vohalar o'zlarini alohida ajralib turish bazasidan ajralar va ziyoratchilar xayru ehsanidan mahrum bo'lar edilar. Vahhobiylar dastlab Najd vohasini birlashtirishga harakat qildilar. Makka va Madinaga hatto payg'ambar qabriga ziyoratga borish taqiqlandi (faqat Ka'baga Hajdan tashqari). Abdulvahhob birinchi amalini qadamini sahoba Zayd ibn al-Xattobning Jubaylidagi sag'onasi ustiga qo'yadi va uni yer bilan yakson qiladi. Bularning hammasi hanafiy mazhabiga, turk hukmronligiga qarshi qaratilgan edi.

Natijada vahhobiylilik bayrog'i ostida Markaziy Najd birlashtirildi va 60-yillarda qo'shni viloyatlarga hujum uyushtirilib 1773-yillari Riyad shahri egallandi hamda ko'p o'tmay Markaziy Arabiston birlashdi.

1788-yilda Muhammad Abdul Vahhob Aziz ibn Saud davrida taxtni merosiy qoldirish huquqi haqida fatvo berdi. Vahhobiylarning Sharqiy Arabistonni istilo qilish chog'ida 1792-yili Muhammad ibn Abdul Vahhob vafot etdi. Undan 20 ta xotin va 18 ta farzand qoldi. 5 o'g'il va bir qancha nevaralari yirik ruhoniylar bo'lib yetishdilar.

Vahhobiylarning eng dahshatli qilmishlaridan biri 1802-yili aprelda yuz berdi. Shu kuni ular Karbaloga hujum qilib, Imam Xusayn masjidini vayron qildilar, uning oltin g'ishtlardan ishlangan gumbazini buzib, taladilar. 2 mingdan ortiq odamlarni qilichdan o'tkazdilar, hatto homilador ayollar va bolalarni ham ayamadilar. Afsonaviy boyliklarni talab, shaharni vayronaga aylantirib ketdilar. Ularning davlati hududlari tezlik bilan kengaya boradi va 1806-yili karmatlardan so'ng ikkinchi bo'lib vahhobiylar Makka shahriga bostirib kiradilar (ma'lumki, islomiyarning asosiy shaxobchalaridan hisoblangan karmatlar milodiy 930-yil haj vaqtida Makkaga hujum qilib, uni talon-taroj etganlar. Hajga borganlarni o'ldirganlar, bir qismini qul qilganlar, Ka'batullohdagi hajar al As vad, ya'ni qoratoshlarni parchalab, o'lja qilib olib ketganlar).

Fransuz islomshunos olimi A. Myusse o'zining "Islom" nomli kitobida tarixiy manbalarga asoslanib, vahhobiylarning Makkadagi vayronagarchilik ishlarini ta'riflagan. Ma'lum bo'lishicha, vah-

hobiylar ham muqaddas shaharni oyoqosti qilishda karmatlardan qolishmagan. Shahardagi o'nlab masjidlar va madrasalar buzib tashlangan va o't qo'yilgan. Ular faqat Ka'banigina buzishga jur'at etmaganlar. Minglab qop-qora, beliga faqat lungi taqib olgan juldur jangchilar Makkaning ko'cha va maydonlarida qozonlar osib, ovqat pishirar, shu yerda dam olar edilar. Makkaliklarga tamaki chekish va ipakli kiyimlar kiyish man qilindi.

Vahhobiylar ko'p o'tmay Madinani ham bosib olishdi. Bu yerda ham Makkadagi kabi xunrezliklar avj oldi. Payg'ambarimiz qabrlari ham poymol qilindi va u yerdagi xazina talandi. Vahhobiylar qabr yonida doshqozon qurib uni oshxonaga aylantirishadi. Ular shu darajaga borib yetishdiki, Makkayu-Madinadagi barcha qabr toshlarni buzib, hatto Bibi Oysha, Bibi Fotima va sahobalar sag'onasidagi qabr toshlarini sindirib tashlashdi, ular Payg'ambar maqbarasidan gumbazlarni buzishga chog'langan bir paytda kuch bilan to'xtatib qolindi. Bu – harakatning zohiriyligi ko'rinishi. Aslida esa ular dinni "asl holatiga keltirish" da'vati ostida bosqinchilik, talonchilik bilan mashg'ul bo'lishdi<sup>1</sup>.

Musulmon olamida misli ko'rilmagan besaranjomlik boshlanadi. Chunki, vahhobiylarning haj uchun soliqlarni oshirib yuborganligi va an'ana tusiga kirgan islomiy odatlarni tan olmasliklari natijasida haj yo'llari bekilib qolgan edi. Minglab musulmonlar Islomning besh asosiy ruknidan biri haj qilish imkoniyatidan mahrum bo'ldilar. Vahhobiylarning ta'sir doirasi kengayib Hijoz va Haj o'lkalardan tashqariga yoyildi.

Vahhobiylarning qurolli guruhlari hatto Suriya va Iroq hududiga ham tez-tez bosqinlar uyuştirib turardi.

Mustamlakalar vazirligi vahhobiylar hukumatini haqli ravishda qullar bilan ta'minlab turardi, - deb yozadi Xemper, – vahhobiylar hukumati yo'l niqobi ostidagi o'n nafar jangovar ingliz ofitserini xizmatga oladi. Ular arab tilini va sahroda jang qilish taktikasini yaxshi o'rganadilar.

Biz o'z rejalarimizni shu ofitserlar bilan muhokama qilardik. Har ikkala Muhammad ham bizning ko'rsatmalarimiz bo'yicha

<sup>1</sup> Husniddinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – Toshkent, 2000, 44-bet

ish yuritishardi. Mustamlakalar vazirligidan maxsus ko'rsatmalar bo'lmanan taqdirda. Siz qiladigan ishlarimizni o'zimiz rejalashtirib olaverardik. Hamma ingliz ofitserlari mahalliy ayollarga uylanishdi.

Albatta, Angliya vahhobiylarni qo'llab-quvvatlash orqali Turkiyani zaiflashtirmoqchi bo'lgan. Bu hol Turkiya hukmron doiralarini tashvishga qo'yishi tabiiy edi. Shu bois turk hukumati vahhobiylarga qarshi harbiy harakatlarni boshladи. Shu paytda Misr podshosi bo'lgan Muhammad Ali Istanbuldan vahhobiylarni tugatish, ular isyonini bostirish haqida buyruq oladi.

Milodiy 1811-yili Muhammad Alining qo'shnilarini vahhobiylar bilan jangga kirishadi. Misr qo'shnilarini asta-sekinlik bilan bo'lsada, Hijozni vahhobiylardan ozod eta boshladilar. Makka va Madina shaharlari ham ular qo'lidan tortib olindi. Haj yo'llarining xavfsizligi ta'minlandi. Musulmonlar yana Makka va Madinani tavof qilish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Oradan yetti yil o'tgach, milodiy 1818- yili Muhammad Ali vahhobiylar hukumatini tor-mor qilishga muvaffaq bo'ldi. Lekin uni butunlay tag-tugi bilan yo'qotib tashlay olmadи.

Vahhobiylik harakati Turkiya hukumironligidan qutulish harakatiga aylandi. Angliya bu harakatni qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Masalan, mashhur ingliz josusi Lourents Aravisi uzoq muddat qo'zg'alochilar orasida bo'lib, ularga yordam ber-gani ma'lum.

Vahhobiylik hozirga qadar ham Saudiya Arabistonida hukmron g'oya hisoblanadi. Bu oqimning izdoshlari Hindistonda, Janubi-sharqiyo Osiyo va Afrika mamlakatlarida ham uchraydi. Ke Yingi davrda esa unga ergashuvchilar Pokistonda, Afg'onistonda, Tojikistonda ham paydo bo'ldi. Xuddi shu davlatlar orqali vahhobiylikni O'zbekistonda tarqatuvchilar o'z faoliyatlarini boshladilar.

## TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Vahhobiylik, Arabiston yarim oroli, Imomi A'zam mazhabi, Usmon imperiyasi, sufiylar, magiya, animizm, fetishizm, Muhammad ibn Abdul Vahhab ibn Sulaymon, Najd viloyati, Ayayna, vahdoniyat, Ibn Taymiya, muqaddas joylar, M.Siddiq Kumush, Xuraymil, Xemper, Isfahon, Qum, «Sahih al-Buxoriy», fanatizm, Muqaddas urush», Madina.

## **MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:**

1. Vahhobiylarning paydo bo'lishi arafasida Arabiston yarim orolida-gi shart-sharoit.
2. Vahhobiylilik qachon va qayerda paydo bo'lgan?
3. Muhammad ibn Abdul Vahhobning dunyoqarashida kimning asarlari asosiy rol o'ynadi?
4. Vahhobiylarning yuzaga kelishida ingliz joususlik xizmatining roli?
5. XVII asrning boshlarida Najd vohasining amirligi qaysi sulola qo'lliga o'tdi?
6. Vahhobiylarning Karbaloga hujumi qachon bo'ldi?

## **5-§. DINIY EKSTREMIZMNING PAYDO BO'LISHI VA JAMIYAT UCHUN XAVFI**

### **1. Diniy ekstremizmning mazmuni va aqidaparastlik bilan qorishib ketganligi**

Biz ushbu mavzuni o'rganish vaqtida asosiy e'tiborni har qanday dinda ham ekstremistlar borligini eslab, e'tiborni o'rta asrlardagi ularning qilmishlariga qaratamiz. O'rta asrlar tarixiga oid darslar asosida dinning ilmga qanday qarshi qo'yilganligi bilan tanishligimizni esga tushiramiz. Chunki diniy ekstremistlarning maqsadi jamiyatni o'z hukmronligini qo'ldan bermaslik edi. Ayniqsa, diniy ekstremizm haqida Prezidentimiz I. A. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'saq"asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari va Oliy Majlisning XI sessiyasi materiallaridagi fikrlarini talabalar bilishlari, vahhobiylardan boshqa oqimlar ham Respublikamizga xavf solayotganligini ularga tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Aslida, diniy ekstremizm aqidaparastlik bilan bir-biriga qo'shilib ketgan tushunchadir. Ularning ikkalasi ham bir guruh g'arazli kishilar manfaatiga xizmat qiladi.

Islom diniy ekstremizmi quyidagi xususiyatlarga ega. Birinidan, islom diniy ekstremistlarning qarashlariga ko'ra, go'yo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiylarini yo'qotganlar va johiliya (islomdan avvalgi) asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga "asos" bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, islom diniy ekstremistlari o'zlarini "haqiqiy" musulmon deb hisoblaydilar. O'zlarining hokimiyatga kelishlari uchun barpo bo'lajak "islomiy tartibni" qaror toptirishning yagona yo'li keskin va agressiv harakat qilishdir, deb hisoblaydilar.

Diniy ekstremizm tushunchasi matbuotimizda tez-tez qo'llanilmogda. Diniy ekstremizmnинг asli ma'nosи nima? Ekstremizm so'zi aslida fransuzcha-lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, keskin fikrlarning bildirilishi va qattiq tadbirlarning qo'llanilishi yoki keskin fikr va choralarни yoqlovchi, keskin chorallarga tarafdarlik ma'nolarida qo'llaniladi. Bunday keskin fikrlar sog'lom yoki nosog'lom bo'lishi mumkin. Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyat mafkurasi. Ular o'z aqidasining to'g'riligiga shak-shubhasiz ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, ularga qarshi urushga chaqiradi.

Ekstremizm mazmuniga ko'ra diniy va dunyoviyya bo'linadi. Namoyon bo'lishiga ko'ra esa: hududiy, mintaqaviy, xalqaro.

Ekstremizmnинг bir qator ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular diniy ekstremizm, bolshevism, fashizm, radikalizmdir. Radikalizm – maqsad-muddaoli keskin, murosasiz amalga oshirish, u yoki bu ishdagi mavjud ahvolni tubdan o'zgartirishga intilishdir. Radikalizmnинг o'ng, so'l, mo'tadil ko'rinishlari mavjud. Shu sababli jamiyat uchun nosog'lom ma'nodagi keskin chora va fikrlarni yoqlovchilarni ekstremistlar yoki ba'zi ma'nolarda jaholatparastlar ham deb atashadi.

## **2. O'rta asrlardagi ekstremizm**

Diniy ekstremizm faqat islom olamiga tegishli bo'lib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga mansubdir. Ayniqsa, o'rta asrlarda xristian ruhoniylari "muqaddas" kitoblarda belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish Xudoning irodasini buzish demakdir", deb uqtiradilar. Har qanday norozilik "qo'rslik", "takabburlik ifodasi" deb hisoblanadi va bu eng mudhish gunohdir, deb e'lon qilingan edi. Lekin cherkov naqadar kuchli bo'lsa-da, shaharliklar va dehqonlar orasida cherkov ta'limotiga qarshi chiquvchilar ko'paya bordi.

Ekstremist ruhoniylar bunday kishilarni “dindan qaytgancha”, ya’ni “shakkok” lar deb atardilar va ularni ayovsiz jazolardilar. Chunki ilg’or fikrli kishilar barchani halol mehnat evaziga yashashga, ya’ni o’z qo’llu kuchi bilan kun ko’rishga da’vat qilardilar.

XIII asrda papa qo’shinchilari Fransiyaning janubida 20 ming kishini qirib tashladilar, ayniqsa, ilg’or fikrli ziyolilarga qarshi inkvizitsiya sudi joriy etilib, mustaqillik uchun kurashchi Yan Gus o’ldirildi, osmon ilmining yulduzlaridan biri Jordano Bruno o’tda kuydirildi, Galileo Galiley besh oy qiyonoqqa solinib, tavbasiga tayantirildi. Lekin baribir u “yer aylanadi” degan fikridan qaytmadi.

Islom dinidagi ekstremistlar garchi, musulmon mamlakatlari jamiyatni hayotida va hukumat siyosatida G’arbdagi rivojlangan kuchli davlatlar ta’siriga tushib qolmaslik hamda mustaqillikni yo’qotish havfiga qarshi kurashish uchun qadimgi islom g’oyalarni qayta tiklash niqobi ostida harakat qilayotgan bo’lsalar-da, aslida ularning diniy-siyosiy qarashlari hokimiyatga ishlatishga, mamlakat boshqaruvini egallashga qaratilgandir.

### **3. Islom ekstremistlari tashkilotining paydo bo‘lishi va qilmishlari**

Diniy ekstremizm – o’z oldiga siyosiy maqsadlarni qo’yan, jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan, ularga zid bo’lgan g’oyalarni zo’ravonlik bilan yoyishga intiluvchi noqoqnunii harakatdir.

Islom niqobi ostidagi ekstremizm o’zining ikki xususiyati bilan ajralib turadi. Uning da’vosiga ko’ra hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy shamoilini yo’qotgan va johiliya davri jamiyatiga asoslangan. Ikkinchidan, uning nazdidagi, “Haqiqiy musulmonlar” hokimiyatga kelgach, barcha bo’ladigan “Islomiy tartib”ni o’rnatish uchun qat’iy aggressiv harakat qilishlari zarur.

Taassufki, 100 yildan ortiq davom etgan mustabid tuzum davrida ma’naviy ildizlarimizdan ayrilish, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga urinishlar bo’ldi. Natijada ma’naviyat va ma’rifat o’rnini ma’lum darajada jaholat egallab yurtdoshlarimiz fiqh, tafsir, hadis, tasavvuf ilmlari haqida hatto, umumiy bilimga ega bo’lmay qoldilar.

Islom ekstremistlarining paydo bo'lishidagi asosiy sabablaridan biri, Yevropa davlatlarining Osiyo, Afrikani bosib olib talashi, bosqinchilik siyosatidir. Keyinchalik bu harakat dunyoviy davlatga qaratilganligini unutmaslik kerak.

Islom dini ekstremistlari ayniqsa o'z faoliyatini Misrda keng avj oldirdilar. Islom ekstremizmi tashkiliy jihatdan yagona parti-yaga birlashmagan, balki xalq ommasining turli tabaqalari orasida ish ko'rvuchi turli guruhlardan iborat. Eng ta'sirchan ekstremistik guruhlardan biri "Musulmon birodarlar" (Al-ihvon al-muslimin) uyushmasidir.

"Musulmon birodarlar" uyushmasi diniy-siyosiy tashkilot bo'lib, u 1928-yilda Shayx Hasan al-Banno tashabbusi bilan Misrning Ismoiliya shahrida tashkil etilgan. Bu tashkilot murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda so'fiy birodarlar tashkilotining va hozirgi zamon Yevropa partiyalarining elementlari qo'shilib ketgan. Uyushmaning asoschisi targ'ib qilgan ta'limot keyinchalik bir necha boshqa islom ideologlari Said al-Qutb, Mustafao as-Sibri va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Bu tashkilot faoliyati mafkura, qonun, axloqiy norma va boshqalarning yagona manbai sifatida islom tamoyillariga asoslangan "adolatli islomi jamiyat" ni qurishga qaratilgan. Bu maqsadga erishish uchun, tashkilot mafkurachi-lari fikricha, kapitalizmga ham, sotsializmga ham qarama-qarshi qo'yilgan "taraqqiyotning islom yo'lli" bo'yicha borish kerak. "Musulmon birodarlar" tashkiloti a'zolari "Alloh – bizning idealimiz", "Payg'ambar yo'lboschimiz", "Jihod – maqsadimizga erishish vositasi", "Alloh yo'lida shahid bo'lish – muqaddas tilagimiz" shiorlari asosida ish ko'radilar.

"Musulmon birodarlar" tashkiloti xayr-ehson va ma'rifatchilik faoliyatidan to siyosiy hayotda terror metodini keng qo'llashgacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. 1949-yilda Hasan al-Banno o'ldirilgandan keyin tashkilotda ajralish yuz berib, qator mustaqil guruhlar va tashkilotlarga, jumladan "Islom ozodlik partiysi", "Soqial islohotlar jamiyat", "Jihod", "Xizbulloh" kabilarga bo'linib ketdilar va o'z faoliyatlarini turlichay davom ettirdilar.

1954-yilda Misrda prezident J.A.Nosir (1918-1970) vaqtida bu tashkilotning respublika tartib-qoidalariga qarshi qaratilgan faoliyati g'ayriqonuni deb e'lon qilindi. Lekin ular keyingi yillarda

yashirin holatga o'tib, prezident Nosir hukumatini ag'darib tashlashga bir necha bor urindilar.

70-yillarda prezident Anvar Sadat (1918-1981) davrida "Musulmon birodarlar" tashkiloti legal holatga o'tib, yana faoliyatini aktivlashtirdi. 70-yillar va 80-yillar boshida Misrda "Musulmon birodarlar" va unga yaqin bir necha o'nlab tashkilotlar faol ish olib bordi. Anvar Sadatning bu tashkilot rahbarlari talablariga yon berishi, zarur hollarda ularni o'z tarafiga og'dirib olishga urinishlari ham zoe ketdi. Shunga qaramay, Misr hukumati o'zining ayrim maqsadlari yo'lida bu tashkilotdan foydalanishga urindilar. Iskandariya universitetining talabalar kengashlarida yosh musulmon arboblari rahbarlik mavqeini egallab, barcha ma'ruzalarni namoz, Qur'on fotihasi bilan boshlashga, Islom diniga aloqasiz xalqaro bayramlarni man etishga, ba'zi materialistik fanlarni o'quv dasturidan chiqarib tashlashga erishdilar. 80-90-yillarga kelib, 30 ga yaqin mamlakatlarda ihvonlar ish ko'ra boshladi. "Jamoat al-Muslimni" guruhidagi ekstremistlar ayniqla o'zlarining terrorchilik metodlari bilan ajralib turadi. Misr harbiy tribunalgi g'ayriqonuniy deb jazoga tortgan bu guruh tarqalib ketmay "At-taqfir val hijrat" nomi bilan ish ko'ra boshlagan. 1978-yilda bu guruhning 4000 a'zosi bo'lgan. Ular suiqasd uyuştirib 1981-yilda prezident Anvar Sadatni o'ldirgandan so'ng, Misrda "Musulmon birodarlar" tashkilotining ko'pchiligi man etildi, rahbarlari qamoqqa olindi. Islom ekstremistlarining yana bir guruhi "Al-jihad, al-Islomiy" faol terrorchilik harakatlari bilan shug'ullanmoqda.

Hozir "Musulmon birodarlar" tashkilotlari 30 ga yaqin mamlakatlarda ish ko'rmoqda. Bu tashkilotlarning faoliyati "Ihvoniylar" (birodarlar) harakati degan umumiyl nom olgan. Ihvoniylar harakati o'zining ijtimoiy – sinfiy tarkibi hamda g'oyaviy va siyosiy yo'naliishi jihatidan bir xil emas. Bu harakat ichida uch asosiy yo'naliishi mavjud. Bular: "o'rtacha" Misr ideologiyasi tarafdochlari, ya'ni "Musulmon birodarlar" nomini olganlar; turli nomdagi guruhlarni o'z ichiga olgan o'ng ekstremistlar va bir necha yirik xalqaro guruhlar, masalan, 50-yillarda Iordaniyada tashkil etilgan. Islom ozodlik partiyasi, "Islom sotsializmi" pozitsiyasida turuvchi "Islom demokratlari".

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda, xususan mamlakatimizda diniy ekstremistik oqimlardan biri bo'lgan, "Hizbut-tahrir al-isломий" (qisqacha "Hizbut-tahrir") diniy-siyosiy oqimi o'zini

namoyon etmoqda. Biz quyidagi ushbu oqimning mohiyati va mazmuni to‘g‘risida fikr yuritmoqchimiz.

“Hizbut-tahrir” – sunniylik doirasidagi diniy-siyosiy partiya 1953-yili Quddus (Ierusalim) shahrida falastinlik Taqiyiddin an Nabahoniy (1909 – 1979) tomonidan asos solingan. U Xayfada tug‘ilib o‘sgan. Qohiradagi “Al-Azhar” universitetida ta‘lim olgan. Quddus shahrida sha’riy shikoyat sudining a’zosi sifatida faoliyat yuritgan. Iordaniyadagi “Musulmon birodarlar” diniy ekstremistik tashkilot rahbarlaridan biri bo‘lgan.

Tashkilotning asosiy maqsadi – jahon miqyosida islom davlatini xalifalik shaklida qayta tiklash “Hizbut-tahrir” diniy-siyosiy partiya dasturi 187 banddan iborat bo‘lib, uning asosiy maqsadi hokimiyatga erishish. Turkiyaning “Interpol” milliy markazi ma’lumotlariga ko‘ra, bu tashkilot taxminan Buyuk Britaniya maxfiy xizmatining bevosita yordami asosida tashkil topgan va AQSH kommunistik partiyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Bundagi asosiy yo‘l – islomiy fikrlovchi, yuksak madaniyatli shaxslarni shakllantirish. Uniga islomiy ta‘lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat:

1) islom ta‘limoti bilan tanishtirish yo‘lida madaniy-ma’rifiy ishlar olib borish;

2) siyosiy faoliyatga tortish.

“Hizbut-tahrir” partiyasi piramida shaklida tarkibiy tulzilma ko‘rinishida tashkil topgan. “Doris”lardan tarkib topgan “halqa”dagi 4-5 kishi guruh rahbari “mushrif”dan saboq oлади. Ta‘lim haftadi kamida ikki marta o‘tkazilishi shart. Bunday kichik “halqa”larga bo‘linish, tashkilot asoschilarining fikricha, fosh bo‘lish imkoniyatini mumkin qadar kamaytiradi. Bunday “dars”larda nomigagina diniy ta‘lim berilib, asosiy e’tibor yoshlar tarbiyasidagi ma’naviy bo‘shliqdan foydalaniib, ularning ongiga g‘arazli siyosiy fikrlarning joylashga qaratiladi<sup>1</sup>. “Halqa” a’zolari bir-birini faqat ismi yoki taxallusi orqali biladilar. Tashkilotga a’zo bo‘lgan nomzod har qanday sharoitda ham, xizb faoliyati haqidagi sir saqlashni qasam ichadi. Mintaqaviy rahbar “mu’tamad” butun dunyo bo‘yicha “Hizbut-tahrir” harakati rahbari, ya’ni

<sup>1</sup> Islom Ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2004, 312-bet.

“Amir ul-a’zam” tomonidan belgilanadi va viloyat darajasida ishlaydigan “mas’ul” hamda tuman miqyosida faoliyat ko’rsatuvchi “musoid”ga rahbarlik qiladi. Tumanlar ham alohida hududlarga bo’linadi va 4 mushrifdan iborat “naqib” rahbarlik qiluvchi “Mahalliy jihoz”ni tashkil etadi. “Naqib” o’ziga yordamchi “noib” va pul to’lovchi “tabarru”ni tayinlaydi. Mahalliy jihz kamida bir oyda bir marotaba to’lanadi. Partiyaning har bir a’zosi o’z imkoniyatlari va asosiy mehnat faoliylari daromadi hisobidan 5-20 foiz miqdorida soliq to’lashi majburiyidir.

To’plangan pul mablag’i turli texnika jihozlari, aloqa vositalari harid qilish hamda boshqa xizmat haqlarini qoplash xorijdan keltirayotgan adapiyot, audio-videokassetalar va ularning tarjimasi uchun haq to’lashga sarflanadi.

Bugungi kunda partiyyaga Falastinning Xalil shahrida tug’ilgan Abdulqadim Zallum rahbarlik qilmoqda. Mazkur diniy tashkilot faoliyati 1982-yilda sezilarli darajada jonlandi. Tashkilot rahbarlarining asosiy qismi G’arbiy Yevropa davlatlarida faoliyat olib boradi-yu partiya filiallari Misr, Iordaniya, Tunis, Quvayt bosib olingan Arab yerlari hamda Turkiyada tarqalgan.

“Hizbut-tahrir” diniy tashkiloti ham vahhobiylar kabi davlat siyosiy boshqaruviga aralashishga hukumatni to’ntarish yo’li bilan qo’lga kiritib, islam davlati o’rnatishga intiladi. Halifalikning tiklashga da’vat etadi: “Musulmonlar uchun bitta xalifa saylashga harakat qilmaslik – gunohi kabiralardandir. Chunki bu narsa islomning eng muhim farzlaridan birini bajarishdan tiyilishdir. (“Izzat va sharaf sari, 40-bet).

Vahhobiylar hukumatni qo’lga olish uchun ochiq kurash eks-tremizm, terror yo’lini tutsalar, “hizbutchilar” g’oyaviy-mafkuraviy kurash uslubini qo’llaydilar, ular 5 kishidan iborat bo’lgan halqaga bo’linib, mafkuraviy targ’ibot ishlarini olib boradilar, bunday darslarda diniy ma’lumotlar yuzaki beriladi. Fiqhiy masalalarga hatto e’tibor qaratilmaydi, yoshlar tarbiyasidagi ma’naviy bo’shliqdan foydalananib, ularning ongiga kerakli siyosiy fikrlarni joylashga urinadilar.

“Hizbut-tahrir”ning boshqa norasmiy diniy tashkilotlardan farqi hujumni asosan fikrga qratadilar, ya’ni fikriy kurash olib borib, fikriy inqilobga erishish, islam davlati nizomini targ’ib etishdir.

“Hizbut-tahrir” tashkiloti o‘z oldiga quyidagi larni maqsad qilib qo‘yadi:

- 1) tinch, osoyishta davlatda fuqarolar urushini boshlash;
- 2) mamlakat iqtisodiy faoliyatini izdan chiqarish;
- 3) millatlar va dinlararo nizolarni keltirib chiqarish;
- 4) mamlakatga qurol-aslaha va narkotik moddalarni olib kirib, fuqarolarning tinch hayotiga rahna solish;
- 5) mustaqil davlatni qurol-aslaha chiqaruvchi xorijiy mamlakatlarga qaram qilish.

**1. Sakofiy.** Partiya a’zolari islom niqobi ostida ekstremistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan, g‘arazli tushuntirish ishlarini olib boradilar va o‘z g‘oyalariga yetish uchun kishilarning ongiga o‘z partiyalari haqida tushuncha uyg‘otishga harakat qiladilar. Bunda ular har bir shaxsning fikrlar doirasiga qarab o‘z ta’limotlariga da’vat etadilar.

**2. Siyosiy.** Jamiyatda bo‘layotgan vaqtinchalik qiyinchiliklar, tabiiy ofatlarni ko‘rsatib, agar islomning sahih hukmlari bo‘lganida edi, bunday hodisalar ro‘y bermas edi, kabi fikrlar bilan g‘araz niyatlarini amalga oshirish, ya’ni, hujumlar fikrlarga qaratilmog‘i lozim, natija bu hujum fikriy kurashga, fikriy kurash o‘z navbatida, fikriy inqilobga olib boradi. Fikriy inqilobning orqasidan esa hukm, nizom va boshqa aloqalarni o‘zgartirib yuboradigan siyosiy inqilob keldi. Mana shu vazifani ado etgan avlodning o‘zi hokimiyatga keladi.

Bu maqsadlarni amalga oshirish hamda olamda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga hizbning munosabatini bildirish uchun partiya 1989-yildan boshlab “al-qa’y” (Ong) nomli oylik jurnalni turli tillarda tarjimasi bilan chiqarib kelmoqda. Xususan, jurnalning o‘zbek tilidagi **140dan** ortiq soni mamlakatimizda maxfiy ravishda tarqatilganligi ma’lum.

“Hizbut-tahrir” diniy tashkilotining kurash bosqichlari:

**1. Taskif** – tushuntirish ishlari. Ongi to‘liq shakllanmagan yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirish. Fikri zaif, ta’sirga beriluvchan huquq-targ‘ibot organlari, hokimiyatlardagi mas’ul shaxslarni o‘z tarafiga og‘dirish.

**2. Tafoul** – birgalikda harakat qilish, “Ummatni oyoqqa turishi, fikriy ongligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishishi” yo‘lida fikriy inqilobga yetishish.

**3. Inqilob** – to'ntarish, hukumatni yaratilgan ummat orqali qo'rga kiritish.

“Hizbut-tahrir al-islomiy” a'zolari ham boshqa diniy ekstremitistik tashkilotlar kabi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, hokimiyatga kelishga intiladilar. Yagona siyosiy, iqtisodiy va hududiy kenglik – xalifalik davlatini ko'rish ularning asosiy va so'nggi maqsadlari bo'lib hisoblanadi.

“Hizbut-tahrir”ning rasmiy faoliyat ko'rsatishi arab davlatlarda taqiqlangan. Ushbu partiyaning Iordaniyadagi mas'uli Shayx Ahmad ad-Daur 1969-yili hukumatni egallashda ayblanib, qatl etilgan. Shuningdek, partiyaning 32 a'zosi Misrda sudlanganligi ma'lum.

Nabahoniy Taqiyiddin keyingi davrlardagi musulmon o'lkalari hukumdorlarini ham xalifa va ular boshqargan davlatni xalifalik davlati deb atadi va barcha musulmonlar yaxlit bir davlatdagi yagona bir hukmdor – xalifaga bo'ysunishlari vojib deb ta'kidlaydi. Shuningdek, Usmonli Turk imperiyasining so'nggi sultonni Abdulhamid II ni oxirgi xalifa va uning saltanati tugagan 1924-yildan buyon yer yuzidagi musulmonlar uchun xalifa saylashlik vojib degan g'oyani ilgari suradi<sup>1</sup>.

Qadimgi halifalik shunday vujudga kelgan. Halifalik 4 yo'l bilan sobit bo'ladi: 1-Musulmonlarga fikri va nasihatni o'tadigan, ahli hill va aqd (halol va ish – so'zi bir) bo'lgan ulamolar, boshliqlar va askarboshilarning va hay'ati bilan sobit bo'ladi. Abu Bakr (ra)ning xalifaliklari shu yo'l bilan sobit bo'lgan. 2 - Xalifa odamlarga vaziyat qilib o'z o'rniga bo'ladigan odamni tavsiya qilishi. 3 – Xalifa saylash uchun Sho'ro majlisi tuzish. 4 – Xalifalik shartlariga ega odamning odamlarga bosqliq bo'lib olishi bilan Payg'ambar (s.a.v) xalifalaridan keyingi xalifalar shu yo'l bilan bo'lgan.

**“Nur”chilar jamoasi** – asoschisi turkiyalik Said Nursiy bo'lib, asl maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o'ta diniy – mutaassib kishilarni tarbiyalash. Badiuzzamon Said Nasriyning shogirdlariga bergen mashhur darslari risolalar tarzida chop etilib, ba'zilari to'g'ridan to'g'ri darsning raqami – masalan, “Yigirma

<sup>1</sup> Husniddinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – Toshkent, 2000, 49-50-bet

beshinchı dars” deb ataladi. Oqim adabiyotlarning mazmuni o’ta falsafiy mushohada va timsollardan iborat bo’lib, ba’zi jihatlar da chalkashlik mavjud. Xuddi shu jihat bilan oqim rahbarlari o’z a’zolarining ushbu falsafiy fikrlarni yecha bilish uchun hayot tajribasiga ega bo’lishi kerak degan da’vo bilan, islomiy qonun-qoidalarni hayotga tatbiq etish zarurati g’oyasini singdiradilar. Bu o’tinda yana bir narsaga e’tibor qaratish lozimki, oqim vakillari o’zlariga yangi a’zoni jalb qilishda birinchi navbatda “Nur”chilar jamoasi faoliyat siyosatdan uzoq degan fikrni beradilar. Aslida bu bir niqob bo’lib, ularning faoliyati negizida siyosatga aralashuv yotadi. Ushbu oqim g’oyalarining yurtimizga kirib kelishi 1992-yildan boshlab kuzatilgan. Dastlab oqim g’oyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma’naviy ko’magida yetkazilgan. Oqim, ayniqsa, Termiz va Denov shaharlarida kengroq tarqalgan. Jumladan, Termizda “Nur”chilar yig’iladigan manzil aniqlanib, lozim bo’lgan choralar ko’rilgan. Ayni damda ular maxfiy tarzda harakat olib borganlar.

**“Nur” harakatining maqsad va yo‘nalishi.** Hozirgi kunda “Nur” harakati Turkiyadagi eng nufuzli diniy oqimlardan biri bo’lib, Turkiya qurolli kuchlar Bosh qo‘mondonligining ma’lumotiga ko’ra, uning atrofiga 4 millionga yaqin a’zosi jipslashgan.

“Nur” jamoasi Allohning kitobi va Rasulullohning (s.a.v) sunnatlarini hidoyatga boshlovchi dasturulamal qilib olgan. Bu harakat o’ziga ergashgan kishilar qalbida islomiy aqidani uyg’otib, bu bilan islomga e’tiqod qilish tarafidan jazolanadigan tartibga qarshi kurashishni da’vat etadi. Harakatning asoschisi Badiuzzamon taqvodor, shubhali narsalardan saqlanuvchi shaxs bo’lib, “Seni shubhalantiruvchi narsalarni tark et, shubhasiz narsaga qo’l ur!” degan aqidaga amal qilgan.

Badiuzzamon doimo siyosat va shayton vasvasasidan qochishni targ’ib etganligi sababli Mustafo Komil Otaturk bilan uning o’rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan.

“Nur” harakati dasturlarida ma’rifatchilik, insonlarni Qur’on asosida, mo’tadil islom ruhida tarbiyalashni o’zining asosiy maqsadi qilib olgan. Oqimning rahbarlari islom fundamentalizmi ta’limotlarini rad etib, o’z faoliyatida islomning umuminsoniy harakteriga murojaat etadilar. “Nur” harakati g’oyalarini targ’ib etishda S.Nursiy tomonidan yozilgan “Risolai nur” ki-

toblar to'plami muhim o'rinni tutadi. Unda Qur'onning insoniyatga, jamiyatga va tabiatga nisbatan bo'lgan mavqeい hamda munosabati zamonaviy fikrlar asosida talqin etilgan.

Mazkur harakat faoliyatining asosiy yo'naliishlaridan yana biri ma'rifat tarqatuvchi – maktab, litsey va kollejlardan tizimini faqat Turkiyada emas, xorijiy davlatlarda ham rivojlantirishdir. Hozirgi kunda Turkiyaning o'zida "Nur" harakatiga qarashli 103 ta maktab, 90 ta turli jamg'armalar, 460 ta ma'rifiy kurslar hamda 500 ga yaqin yotoqxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, "Nur" harakati yordamida Germaniya, Shvetsariya, Niderlandiya, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlarida ko'pgina maktab, litsey, shifoxona, radiostansiya va jamg'armalar tashkil qilingan. Markaziy Osiyo davlatlarining o'zida ham "Nur" harakatiga qarashli 128 ta xususiy litseylar faoliyat ko'rsatgan edi.

O'zbekiston hududida "Nur" harakati ishtirokida 16 ta o'zbek-turk litseylar: 5 tasi Toshkentda, 2 tasi Farg'onada. Nukus, Andijon va boshqa viloyatlarda tashkil etilgan edi.

Ta'lim sohasida "Nur" harakati Turkiyada Milliy ta'lim Vazirligidan keyingi mavqeini egallaydi. "Nur" harakatiga qarashli maktablar boy moddiy asosga ega bo'lib, bugungi kundagi uning mulki 1,5 mlrd. AQSH dollariga teng, deb baholangan.

"Nur" harakatini va unga tegishli maktablarning asosiy moliyaviy manbai harakat tomonidan nazorat qilinuvchi ko'p sonli tijorat shirkatlari mavjud. Ulardan eng yiriklari "Ishik" va "Osiyo fayans" hisoblanadi. "Nur" harakati tizimidagi maktablarda 7 mingdan ziyod o'qituvchi xizmat qiladi. Ularning asosiy qismini erkaklar tashkil qiladi.

Mazkur o'qituvchilar odatda Turkiyaning nufuzli universitetlarini bitirgan bo'lib, ular faoliyat ko'rsatayotgan maktablardagi ko'pgina zamonaviy o'qitish uslubidan foydalanilgan holda ingliz tilida olib boriladi. Bu uslub Turkiya jamiyatining turli qatlamlari orasida "Nur" harakati obro'sini yanada oshiradi.

"Nur" harakati ta'lrim sohasi bilan birga mamlakatdagi omma-viy axborot vositalari hayotida ham kuchli mavqeiga ega. Harakat turk va ingliz tilida chiquvchi 14 ta jurnal, "Zamon" kundalik ro'znomasi, "Somon yo'li" televizion kanali va 2 ta radiostansiya faoliyatini nazorat qilib boradi.

“Nur” harakati a’zolari o‘zaro yordam va hamkorlik prinsiplariga qat’iy rioya qilib, rasmiy hokimiyatga yon bosmaslik siyosatini tutadi. 1999-yilning aprel oyidagi saylovlarda harakat a’zolari tomonidan hech bir partiya a’zolari qo’llab-quvvatlanmadi.

“Nur” harakati va uning hozirgi rahbari Fathulla Gyulen haqida Turkiya va xorijiy davlatlarda turli bir-biriga qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ba’zilar bu harakatni dunyoviy davlat tuzumining dushmani, o‘z maktablarida diniy targ‘ibot ishlarni olib boradi, deb ayblasalar, ba’zilar esa mazkur harakatni zamonaviy maktablar tashkil etib, ulkan ma’rifiy ishlarni amalga oshirayotganligini e’tirof etadilar.

Harakatning Gretsya patriarxati va ravvinati hamda Suriya patriarxati bilan o’rnatgan hamkorlik aloqalari uning mo’tadil islam doirasida ish yuritayotagandek ko’rsatadi..

“Nur” harakati saflarining asosini yoshlar tashkil etib, harakat tomonidan chop etilgan da’vat varaqalarini tarqatish yo‘li bilan ularning saflari kengaymoqda. Mazkur oqim a’zolari. Hindiston, Pokiston va Malayziya mamlakatlarida ham paydo bo’lgan. Shuningdek, Amerikada tahsil oluvchi turk talabalari orasida “Nur”chilar da’vatiga ergashuvchilar borligi sababli bu harakat AQSH hududida tarqalmoqda.

Nurchilarning oddiy, tushunarli o‘gitlari, islam dini ta’limotiga zamonaviy yondashuvi ularning islam modernistlaridan tortib, to islam fundamentalistlarigacha bo’lgan turli yo‘nalishlar tomonidan tan olinishiga sabab bo’lgan.

Nurchilik va nurchilarga baho berilar ekan, ularni islam modernizmi bilan bog‘lab qo‘yish va xotirjam bo‘lish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Nurchilar qishloqlarda va shaharlardagi qashshoq tabaqalar orasida o‘z ta’sirlarini kuchaytirar ekanlar, e’tiqod masalasiga zo‘r berib zamonaviy qarashlarni unutib qo‘yishlari hech gap emas, natijada islam ekstremistik aqidaparastligining avj olib ketishiga qo‘srimcha imkoniyat yaratilgan bo‘ladi!

**“AKROMIYLAR”** diniy-ekstremistik tashkiloti – 1996-yilda Andijon shahrida tashkil topgan. Ushbu diniy-siyosiy harakat vakillari Allohgagina e’tiqod qiladilar va Payg‘ambarga iymon

---

<sup>1</sup> Husniddinov Z. Islom: yo‘nalishlar, mazhablar, oqimlar. – Toshkent, 2000, 44-bet

keltirmaydilar. “Akromiylar” bugungi mavjud barcha tuzumlari ni tan olmaydi, davlatga, qonun-qoidalariga ham, ota-onaga ham emas, faqat oqim sardoriga bo‘ysunish lozim deb hisoblaydilar.

Uning asoschisi 1960-yilda Andijon shahrida tug‘ilgan Yo‘ldoshev Akram Sotvoldiyevich “Hizbut-tahrir” g‘oyalarining ixlosmandi bo‘lib, Toqiyiddin Nabahoni ta’limoti asosida 12 darsdan iborat “Iymonga yo‘l” deb nomlangan dasturni ishlab chiqqan. Ushbu dasturda oqimning pirovard maqsadi islom davlatini barpo etishdan iborat ekani ta’kidlangan.

“Akromiylar” ning vazifasi shundaki, boshlang‘ich bosqichda bir viloyat sharoitida mahalliy hokimiyat faoliyati ustidan nazoratni o‘rnatish yo‘li bilan o‘z maqsadiga erishishdir. Ularning takkasi o‘z g‘oyasini tashviqot qilish bilan va an‘anaviy islom pozitsiyalaridan imkoniyat darajasida ko‘proq musulmonlarni ajratib olish va ularni o‘z tarafiga og‘dirishdan iboratdir.

“Akromiylar” tomonidan qanday yo‘l bilan bo‘lmasisin, pul topish imkoniyatlari va bu borada islom qonunlaridan muayyan darajada chetga chiqish mumkinligi haqida ham fikrlar bo‘ladi. Jumladan, kundalik besh vaqt namozni o‘qish majburiy emasligi, faqatgina islom xalifaligi o‘rnatilgandan keyingina barcha diniy marosimlar o‘tkazilishi mumkin ekan. Shunday ta’limotga muvofiq konspiratsiya (asl niyatlarini yashirish) maqadlarida “birodarlar” spirtli ichimliklar ichish, sigaretalar chekish, vaqtinchalik nikohda va h.k. bo‘lishlari mumkin emish.

“Akromiylar” o‘z faoliyatlarini bir necha bosqichda amalga oshirishni rejalashtirganlar:

- birinchi bosqich – “sirli”, ya’ni maxfiy. Bu bosqichda “yacheyka” a’zolari tanlanadi, o‘rganiladi va diniy mutaassiblik hamda ekstremizm ruhida tarbiyalanadilar;

- ikkinchi bosqich – “moddiy”. Bu bosqichda tashkilotning saflari kengaytirilishi, uning a’zolari ish bilan ta’minlanishi lozim. Keyinchalik shu yo‘lni har bir shaxs o‘z daromadining beshdan birini “baytul mol”, ya’ni umumiyl g‘aznaga o‘tkazishi lozim bo‘ladi;

- uchinchi bosqich – “ma‘naviy”. Bu bosqichda o‘z a’zolarini jipslashtirishga, ularni ruhiy jihatdan birlashtirishga va keyinchalik tashkilot tuzilmasini yanada mustahkamlashga qaratilgan tad-birlar o‘tkaziladi;

– to‘rtinchi bosqich – “uzviy maydon” deb ataladi, ya’ni qonuniylashish va keyinchalik ijtimoiy-siyosiy maydonga chiqishni nazarda tutadi. Bu bosqichda o‘z tarafdarlarini davlat va ijtimoiy tuzilmalarga kirdizish, ularni hukumatdagi mas’ul lavozimlarga ko‘tarish rejalashtiriladi;

– beshinchi bosqich – “oxirat” bo‘lib, unda jamiyatni to‘lato‘kis islomlashtirishga erishish va Farg‘ona vodiysi hududlarida hokimiyatni egallash hamda mahalliy demokratik davlatni barpo qilishdek pirovard maqsadni ta’minalash ko‘zda tutiladi.

Akrom Yo‘ldoshev 1997-yildan boshlab esa bu oqim a’zolaridan ruhiy va moddiy mas’ul shaxslarni tayinlagan. U o‘zi 1998-yilgacha “Akromiylar” ekstremistik harakatining umummahsulli sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 1998-yilda u jinoyat kodeksining 276-moddasi, ya’ni giyohvandlik vositalarini saqlash va iste’mol qilishda ayblanib, sud tomonidan 2,5 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. 1999-yilda esa Akrom Yo‘ldoshev Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi sodir etgan jinoyati va boshqa jinoiy qilmishlari uchun sudlanib, 17 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. Akrom Yo‘ldoshev o‘z ko‘rsatmasida, 2001-yilning oktabr oyidan beri jazoni ijro etish boshqarmasiga qarashli tibbiy muassasada saqlanayotgani, maslakdoshlari unga uyali telefon kiritib berishganidan so‘ng, ular bilan muntazam aloqada bo‘lib, birodarlar ahvoldan, Andijondagi vaziyatdan xabardor bo‘lib turganini qayt etgan. U «Akromiylar»ning o‘zidan keyingi umummahsullari va jinoiy guruhning ko‘zga ko‘ringan faol a’zolariga telefon orqali yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatgan. Turli topshiriqlar berib turgan. Jumladan, 20 kishidan iborat qurolli tizimlar tuzish, ularni qurollantirish, sudlanayotgan 23 nafar akromiy birodarlarini ozod qilish, hokimiyatni qo‘lga kiritish haqida ham aynan Akrom Yo‘ldoshev fatvo bergen.

Andijon voqealari bir qancha yurtdoshlarimizning nohaq qoni to‘kilishiga, o‘ndan ziyod odamlarning esa bevaqt umriga zomin bo‘lishida va bir qator inshootlarning vayron bo‘lishiga olib keldi. Bu yovuz kishilarning g‘arazli maqsadlari 2004-yilning bahor va yoz oylarida hamda 2005-yilning 13 may kuni Andijonda ham yana bir bor namoyon bo‘ldi. Yurtimizda sodir etilgan xatti-harakatlar ortida turgan yovuz kuchlar muqaddas islom dini niqobi ostida hokimiyatni egallahsga intilayotganligi hammaga ma’lum bo‘ldi.

Bugungi kunlarda turli g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab, muqaddas dinimizga yot bo‘lgan yangi tushunchalarni kiritish orqali odamlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirishga urinayotgan jamoalar faoliyati kuzatilayotganligi achinarli holdir.

“**BAXSHILLOCHILAR**” norasmiy diniy jamoasi ana shunday aqidadan adashgan guruhlardan biri hisoblanadi. G‘ayriislomiy mohiyatga ko‘ra “Baxshillochilar” jamoasiga Buxoro viloyatida tug‘ilgan Baxshillo Aliyev tomonidan 1997-yilda asos solingan. Jamoa a‘zolarining aksariyati Buxoro shahri va Kogon tumanida istiqomat qiladi.

“Baxshillochilar” o‘zlarining musulmon ekanliklarini da‘vo qilsalar-da, aslida ularning diniy-aqidaviy qarashlari islomning asl ta’limotiga ziddir. Bunga Baxshilloning Mahdiy kelishi, payg‘ambarlik, haj, namoz kabi aqidaviy masalalarga munosabati dalil bo‘la oladi.

Jumladan, islam ta’limotida Qiyomatga yaqin insonlarni yaxshilikka chorlovchi “Mahdiy” (arabcha – to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi) ning kelishi haqidagi qarashlar mavjud. Sunniylik aqidasiga ko‘ra, Mahdiyning qachon va qayerda paydo bo‘lishini faqat Alloh taolo biladi. Hadislarda Mahdiyning imom Hasan avlodidan bo‘lishi va u Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatiga amal qilishi qayd etilgan. Biror Baxshillo aqida va hadislarni nazar-pisand qilmay, asossiz ravishda o‘zini musulmonlar tomonidan oxir zamon arafasida paydo bo‘lishiga ishoniladigan **Mahdiy deb e’lon qilgan**<sup>1</sup>.

Buning ustiga, Baxshillo payg‘ambarlik ham da‘vo qilib, islomning bu boradagi aqidasiga zid g‘oyani ilgari surdi. U **o‘zini payg‘ambr, turmush o‘rtog‘i Mohira Aliyevani “musulmonlar onasi”**, farzandlari Olim va Faxriddinni “musulmonlar amiri”, yaqin izdoshlarini “sahobalar” deb e’lon qilgan.

Islam ulamolari payg‘ambarlik tugaganiga ijmo qilgan. Ummaman, islam ta’limotiga ko‘ra, Muhammad (s.a.v)dan so‘ng o‘zini payg‘ambar deb e’lon qilgan kishi kazzob, dajjal yoki majnun hisoblanadi.

Baxshillo 1990-yillarning oxirida aholi ichida diniy va milliy asosda nizo keltirib chiqarishga qaratilgan jinoiy xatti-harakatlar

<sup>1</sup> Hasanboy U. Aqidada adashgan jamoa. “Darakchi”, 27 oktabr, 2011-yil, 43-son.

sodir etgani uchun qamoq jazosiga tortilgan. U 2006-yili ozodlikka chiqqach, Rossiya Federatsiyasiga doimiy yashash uchun ko'chib ketgan. Lekin o'zga yurtda ham firibgar o'zining soxta id-daolardan voz kechmay, Buxoro viloyatidagi maslakdoshlari orqali "Baxshillochilar" jamoasi g'oyalarini fuqarolarimiz ichida tarqatishga urinib kelmoqda. Buning ustiga Baxshillo yana bir soxta da'vo bilan chiqmoqda. Go'yoki uni ziyorat etgan shaxs haj amalini bajargan odamning savobini olar emish.

Ta'kidlash joizki, haj islomning beshta arkonlaridan biri bo'lib, Qur'oni Karimning "Oli Imron" surasining 97-oyatida shunday deyilgan: "Maqomi Ibrohim bordir. Unga (Ka'baga) kirgan kishi omonda bo'lur. Yo'lga qodir bo'lgan odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish (farzi) bordir. Kimda-kim (buni) inkor qilsa, bas, albatta Alloh odamlardan behojatdir". Hadisda: "Haj Arofatdadir", deb, hajning asosiy ruknlaridan biri arafa kuni Arofatda turish ekanı ta'kidlangan (Imom Buxoriy rivoyati). Qayd etilganlar dinimizning haj borasidagi ko'rsatmalarini o'zining tuturiqsizda'volari bilan rad etayotgan Baxshillo islom ta'limotidan yiroq kimsa ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Ayni chog'da Baxshilloning o'ziga ergashganlarga, namoz go'yoki bir kecha-kunduzga uch mahal farz qilingan, degan yolg'on da'vosi muqaddas dinimizga butkul zid. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)dan keltirilgan hadislarda farz namoz bir kecha-kunduzda beshta ekanı ochiq aytildi.

Anas (r.a.)dan rivoyat qilinadi: "Nabiy (s.a.v)ga Isro kechasida ellik vaqt namoz farz qilindi. So'ngra qisqartirilib, besh vaqtga keltirildi. Keyin esa: "Ey, Muhammad, albatta, Mening huzurimda gap o'zgartirilmaydi. Albatta senga ushbu beshtada elliktaning (ajri) bor, deb nido qilindi" (Imom Buxoriy rivoyati).

Bundan tashqari, Baxshillo o'zining izdoshlari orasida o'ziga ergashganlarga qiyomatda savol-javob yo'qligi, qanday holatda vaftot etishidan qat'i nazar, ularga shahidlik maqomi berilishi, hatto, barcha erkak maslakdoshlari payg'ambarlik darajasini olishi haqidagi safsata sotmoqda.

Shu o'rinda Baxshilloning bunday noto'g'ri g'oyalarni tarqatishiga sabab nima, degan savol tug'ilishi tabiiy. Asosiy sabablaridan biri **imoni sust insonlar hisobidan boylik orttirishdir**.

Jumladan, Baxshillo uni ziyorat qilish uchun Rossiyaga borgan muxlislarini qurilish va boshqa firmalarda ishlatib; topgan daromadlarining asosiy qismini o'zlashtirib olmoqda.

Boz ustiga, Baxshillo o'zining peshobini **barcha kasalliklar-dan forig' qiluvchi dori sifatida pul evaziga** O'zbekistonda qol-gan "muridlari"ga yuborayotgani, yetakchilariga ko'r-ko'rona ishonuvchi muxlislari esa uni shifo deb iste'mol qilayotgani sira aqlga sig'maydigan darajadagi firibgarlik va imonsizlikdan boshqa narsa emas.

Uning maqsadlaridan yana biri – muqaddas islom dinimizni qurt kabi yemirish orqali shuhrat toptirish. Ta'kidlash joizki, Baxshilloning payg'ambarlik, Maxdiylik, haj masalasidagi iddaolari, turmush o'rtog'ini "musulmonlar onasi" deb e'lon qilishdek soxta da'volari Hindistonning Panjob viloyatida tug'ilgan Mirzo G'ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan asos solingan "Ahmadiylik" diniy jamoasingning g'oyalariga hamohangdir. G'ayriislomiy mafkurani targ'ib qiluvchi "Ahmadiylik" jamoasi Islom olami ligasi, Islom konferensiysi kabi xalqaro musulmon tashkilotlari, Misr Arab Respublikasi "al-Azhar" universitetining "Islomshunoslik akademiyasi" tomonidan **islomdan tashqari oqim** deb e'lon qilingan. Bu barchamizni isloma ga yot jamoalarning zararli g'oyalaridan ehtiyoj bo'lishga chaqiradi.

Shuningdek, Baxshillo tomonidan unga ergashmagan musulmonlarni, xususan, Islom dini ta'limotlarini botil iddaolardan himoya etayotgan ulamolarni "fosih" deb e'lon qilgani hamda mazkur nayrangboz firibgarning yashirin maqsadlaridan yana biri jamiyatimizdagi barqarorlikka rahna solish ekanidan dalolat bera-di. Ushbu jamoaga a'zo bo'lgan ba'zi shaxslarning keyingi hayoti **sekte shaklidagi jamoaning** ta'siri oqibatida izdan chiqib, oilalari barbod bo'layotgani "Baxshillochilar" jamiyat tinchligi va osoyishtaligiga putur yetkazuvchi ijtimoiy illat ekanini ko'rsatmoqda.

Qayd etilganlarga asoslanib, "Baxshillochilar" jamoasingning botil g'oyalari dinimiz asoslariga butunlay zid ekani va musulmonlar orasida ixtilof keltirib chiqarishga sabab bo'lishi, shuningdek. **kimki Baxshilloning soxta g'oyalariga ergashsa, islom dinidan chiqishi** haqida qat'iy xulosa qilish mumkin. Adashib, mazkur ja-moaga kirib qolganlar esa o'z vaqtida to'g'ri yo'lga, oilasi va jamiyati bag'riga qaytishlari lozim.

Barchamiz mas’uliyatni chuqur his etgan holda muqaddas Is-lom dinimizni pok saqlash, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni Bax-shilloning g’arazli xuruj va bo’htonlaridan himoya qilishga jid-diy yondashuvimiz zarur. Zero, xalqimizning tinch-totuv hayotini, mustaqilligimizning ma’naviy va ma’rifiy poydevori mustahkam-ligini ta’minalash, farzandlarimizga ozod va obod yurt qoldirish ka-bi ezgu maqsadlarimiz yo’llida to‘g’anoq bo’lib, fuqarolarimizning e’tiqodini buzishga harakat qilayotgan har qanday zararli firqa va jamoalarga qarshi dadil kurash olib borish, befarq va loqayd bo’lmaslik barchamizning burchimizdir.

**“Al-Qoida” (“Asos”).** Radikal islam g’oyalariga asoslangan ushbu transmilliy diniy-siyosiy guruhning paydo bo’lishiga Uso-ma bin Lodin rahbarligida Afg’onistonda Sovet armiyasiga qarshi urushda ishtirok etish uchun ko’ngillilarni yollash va ularni quro-slaba bilan ta’minalash maqsadida Pokiston hududida tuzilgan “Maktab al-xidmat” byurosi asos bo’lib xizmat qilgan.

Tashkilotning dastlabki tuzilmalari G’arb va AQSHning glo-bal yetakchiligiga qarshi kurash, islomning fundamental asoslariga qaytish va yagona islomiy xalifat qurishdek maqsadlar dasturiga mo-nand ravishda 1992-yilda Xartum (Sudan)da qayta shakllantirilgan.

“Al-Qoida” rahbariyati g’oyaviy jihatdan Muhammad ibn Abdul-Vahhab va ayid Qutblarning asarlarida bayon qilingan tamoyillarga asoslanishini e’tirof qilgan holda, amalda musulmon davlatlaridagi dunyoviy hukumatlarni ag’darib tashlash va shariat-ga asoslangan islomiy davlat qurishdek asosiy maqsadni ko’zlaydi.

“Al-Qoida” rahbariyatining Yaqin Sharqdagi Arab – Isroil muammosini musulmon va kofirlar orasidagi dinlar aro kurash si-fatida ta’riflashi, 1991-yil Amerika Qo’shinlarining Iroqda Harbiy harakat olib borish uchun Saudiya Arabistoniga hududiga joylashuvi-ni musulmon dunyosiga nisbatan salb yurishi deb baholashi ham, AQSHni musulmonlarning asosiy dushmani, Isroilni esa uning yaqin yordamchisi, deb hisoblashi ham tashkilotning g’oyaviy qarashlarini aniq ifodalaydi, deyish mumkin.

Diniy-ekstremistik tashkilotlarning reaksiyon g’oyalari va qo-poruvchilik faoliyatini barcha mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishiga o’zining salbiy ta’sirini o’tkaz-moqda.

Bundan tashqari, mamlakatlar iqtisodiyoti, o'zaro investisi muhitiga jiddiy ziyon etkazilmoqda. Xususan, AQSH kongressi tomonidan tuzilgan Milliy komissiyaning hisobotiga ko'ra, 2001-yil 11 sentabrda amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari AQSH va jahon iqtisodiyotiga bevosita 135 mlrd., bivosita 2 trln. dollar zarar yetkazgan.

Lekin ularning umumiy g'oyasi bitta, ya'ni din niqobida hokimiyatga intilish. Bunday harakatlar turli mamlakatlarda sodir bo'ldi.

1994-yili Qandahor hududida yuzaga kelgan yangi siyosiy harakat – “**TOLIBON**” nomini olgan diniy-siyosiy kuch ham Afg'onistonda hokimiyat sari intildi. Inqirozga yuz tutgan, qariyb 20 yil uzlusiz davom etgan shafqatsiz urush hammayoqni vayron qilib tashladi, odamlar tinchini yo'qotgan Afg'onistonga tolillar nima “in'om” etdilar? “Tolibon” o'ziga xos g'oya va aqidalarini ilgari surgan yangi siyosiy-diniy kuch emas, aksincha, vahhobiylarning XX asrdagi bir ko'rinishi, xolos. Vahhobiylar singari ular ham Afg'oniston hayotiga o'rta asr diniy tartib-qoidalarini tatbiq etish, xalqni dunyo madaniyatidan uzib qo'yish yo'lidan bordi.

Ular Afg'onistonda joriy etgan qat'iy choralar nafaqat afg'on xalqining, balki dunyo ahlining keskin noroziligiga sabab bo'ldi va buning jiddiy asoslari bor. Toliblar hokimiyat uchun kurashgach, barcha xalqlar tan olgan va rioya qiladigan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” va undagi mezonlar bepisandlik bilan oyoqosti qilina boshladi. Bugun ularning qadami yetgan joyda oddiy insoniy haq-huquq toptaldi. Hatto chor-nochor kun kechirayotgan qashshoqlar ham talandi, qolgan-qutgan qishloqlar vayron qilindi va jabrdiyda xalq boshiga kulfat-musibat keltirildi. XXI asr bo'sag'asida xotin-qizlarni erkin bilim olish va mehnat qilish huquqidan mahrum etish, ularni yana paranji ichiga tiqish, yigitlarning soqol o'stirishi majburiy joriy qilish xalqqa nima berdi o'zi? Oddiygina varrak uchirish yoki shohmot o'ynashning qanday xosiyatsiz tomoni bor? Ular shuni ham ta'qilab qo'yishdi. Navro'z bayramini ham Islomga zid deb topishdi. Vaholanki, Nizomiddin unvonining sohibi Hazrat Navoiy “Har tuning qadr o'libon, har kuning o'lsin Navro'z”, deb yozgan edilar. Hazrat Navoiyning komil musulmon, shariatning yetuk allomasi ekanligiga hech kim shubha qilmasa

kerak. Shunday ulug‘ mutafakkir mazkur so‘zlarni bitgan bo‘lsa-yu, bir hovuch jangarilarning bunga e’tiroz bildirishga qanday haqqi bor? Ishlab chiqarish ishdan chiqqan, dehqonchilik qilishga imkon yo‘q afg‘on xalqi shu paytga qadar xalqaro insonparvarlik yordami hisobiga tirikchilik qilib kelmoqda. Tezda insonparvarlik yordami ko‘rsatib kelayotgan xalqaro tashkilotlar: “Tolibon” guruhi tomonidan inson haq-huquqlari paymol etilsa, xotin-qizlar tazyiq ostiga olinsa, biz o‘zimizning shior va g‘oyalarimizga xilof ravishda qanday qilib yordam qo‘lini cho‘zamiz, degan masalani ko‘ndalang qo‘yishdi. Endi o‘zingiz tasavvur qiling: doimiy daromad manbai-ga ega bo‘lmagan to‘qson besh foiz xalq nimaning hisobiga ro‘zg‘or tebratdi, bola-chaqa boqdi?! O‘ shuncha ko‘rgulikdan keyin toliblar qavmiga xayrixohlik nazari bilan qarashi mumkinmi sira? Urush va ixtiloflar necha yuz minglab afg‘onlarni juvonmarg qildi, hayotini butkul izdan chiqardi. Shahar va qishloqlar kultepaga aylandi. Endi osoyish topgan taqdirda ham o‘z qaddini rostlab olish uchun ozmuncha kuch, vaqt ketmasa kerak?! Tojikistonda ekstremizm nimaga olib keldi? Qayd etilishicha, 90-yillar mamlakat ikkinchi jahon urushidagiga nisbatan ko‘proq qurban berdi. Ularning orasida millatning gullari, hali o’n gulidan bir guli ochilmagan yosh-yalanglar, hatto nima bo‘layotganini anglab yetmagan mo‘min-muslonmlar bor edi.

Xo‘sh, bu qurbanlar kim uchun, nima uchun edi? Xo‘jalik tizimi tamom izdan chiqqan. Odamlar amal-taql qilib kun kechirish uchun o‘zlarini o‘tga-suvga urdilar, urush insoniyatga hech qachon yaxshilik olib kelmagan. Asrimizning buyuk yozuvchisi, “Alvido qurol” asarining muallifi Ernest Xeminguey urush haqida shunday deydi: “Men ko‘p urushda qatnashdim, shuning uchun bu masalada g‘arazim qattiq, hatto juda ham qattiq. Men ongli suratda shu fikrga keldimki, urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir. Frontning olovli qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib odamlarga ko‘proq duch kela boshlaysan, lekin urush boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan boshqa narsani o‘ylamaydigan to‘ng‘izlardir. Men urushda boylik orttirganlar, urush olovini yoqqanlar, urushning birinchi kuni dayoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog‘i kerak, deb hisoblayman”.

Tunis fundamentalistlari Zaytuna universiteti negizida tuzgan “Qur’onni himoya qilish uyushmasi” ham Islom ekstremizmiaga kiradi. Bu tashkilotning bir necha shaharlarida bo‘limlari bor. Tunis islam ekstremistlarining bir qismi Erondagi diniy inqilobni qo‘llab-quvvatladi. Pokiston va Eron hududida turib Afg‘oniston va Tojikistondagi dunyoviy hukumat va tuzumga qarshi kurash olib borgan va mamlakatda qirg‘inbarot urushni olib borgan guruhlar ham diniy ekstremizmning ashaddiy ko‘rinishlaridan birlidir. Dog‘iston Respublikasidagi vahhobiylar o‘ldirish, terror, bos-qinchilik, portlatish, diversiya bilan shug‘ullanganliklari uchun ularning faoliyati qonun bilan taqiqlandi.

#### **4. Ekstremistiarning Markaziy Osiyoga suqilib kirishlari**

Markaziy Osiyo Respublikalarida fuqarolarni o‘z ta’siriga olishga harakat qilayotgan toifalar haqida taniqli olim Abduqayum Azimov shunday yozadi: “Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyo Respublikalarida shunday toifalardan ba’zilari faoliyat ko‘rsatishga urinishgan. Ulardan biri “Axbosh” deb nomlanadi. Bu yangi chiqqan toifaning markazi Livanda joylashgan. Ularning rahbarlaridan biri Ahmad Tamim nomli shaxs Ukrainada Islom markazi ochgan. Toifa ichida ixtilof chiqqandan so‘ng, hozir “Axbosh” ga Abdulloh Xoboxiy boshchilik qiladi. Bu shaxs mazkur toifaning ham mafkurachisi, ham ish yurituvchisidir. Mazkur toifa haqida turli noroziliklar bo‘lishiga qaramasdan, hozircha unga qarshi biror rasmiy hujjat qabul qilingan emas”.

1996-yil haj mavsumida “Robita al-a’lam-alislamiy” tashkiloti (shtab kvartirasi Makka shahrida joylashgan) tomonidan turli mamlakatlardan tashrif buyurgan atoqli ulamolar yig‘ilishi o‘tkazildi. Bu yig‘ilishi turli toifalar masalasi ham ko‘rildi. Ulamolar yig‘ilishi “Robita al-a’lam-alislamiy” tashkiloti rahbariyatiiga maktub yo‘lladi va “Islom fikhi akademiyasi” ning navbatdagi majlisidan birida bu masalani atroflicha ko‘rib chiqib, fatvo chiqarish zarurligi ta’kidlandi.

Yana shunday toifalardan biri “Doril Arqam” dir. Uning markazi Malayziyada. Toifa a’zolaridan erkaklari to‘pig‘idan sal

yuqori turadigan uzun ko'ylik va kichik salla bilan, ayollari esa qora libos, yuzlariga faqat ko'zi ochilib turadigan niqob kiyishlari bilan ajralib turadilar. Oxirgi yillarda "Doril Arqam" toifasi a'zolari O'zbekistonga ham suqulib kirishga urindilar. Aksariyati sarmayadorlar va tijoratchilardir. Ular mamlakatimizdagi talaygina shaxslar bilan aloqa o'rnatdilar. Mazkur toifa Singapur, Indoneziya, Tailand, Pokiston va boshqa mamlakatlarda ham o'ziga tarafdarlar topdi.

"Doril Arqam" g'oyalari asta-sekin kuchayib borib Malayziya uchun katta muammoga aylandi. Malayziya hukumati bu toifaga nisbatan rasmiy choralar ko'rishga majbur bo'ldi. Ularni Islomdan chiqqan, kofir toifa, deb e'lon qildi. Malayziyaning o'sha davrda gi bosh vaziri Mahathur Muhammad "Doril Arqam" guruhining rahbari payg'ambarlik da'vosini qilayotganini ta'kidlab, bu chidab bo'lmas hol, ularga bizning yurtimizda joy yo'q, dedi. Bu guruh rahbari Tailandan chiqib ketdi. Indoneziya hukumati ham "Doril Arqam" ga qarshi chora ko'rdilar.

Yuqorida zikr qilinganlardan ko'rinib turibdiki, e'tiqod masalasida juda ham ehtiyyot bo'lish maqsadga muvofiqliр. Chaqirganga, da'vat etganga ergashib ketaverish sira to'g'ri kelmaydigan ish. To'g'ri, yetmish yil davomida kommunistik aqida oqibatida mafkuraviy bo'shliq paydo bo'ldi. Lekin bu turli toifalar ortidan ergashib ketaverishga sabab bo'la olmaydi.

**"Islom milliy an'analarining, islam madaniyatining tiklanish jarayoni islomni tashqaridan har qanday "import" qilishdan voz kechish, islamga siyosiy tus berish va siyosatga islam ruhini haxsh etishdan voz kechish to'g'ri ekanligini ko'rsatdi"**, deya ta'kidladi Yurtboshimiz Islom Karimov. Shu "import"ga bandi bo'lib qolgan aqidaparastlarning o'z xalqi boshiga keltirgan kulfatlari bu fikrning naqadar asosli ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

XX asrga kelib ko'rmay-netmay islam ta'limoti nomidan ish ko'rish, e'z davlati siyosatini Islom vositasida "eksport" qilishga urinish, shu yo'lda turli xil fitnalar uyushtirish, buzg'unchilik harakatlari keskin kuchaydi. Bunga sabab, yer yuzida musulmonlar yashaydigan qator mamlakatlar bu davrga kelib istibdoddan xalos bo'ldi va o'zining kelajak yo'lini belgilay boshladи.

Shunday vaziyatda tetapoya davlat ichki siyosatiga, hokimiya-tiga tajovuz qilish zamiridan ko'ngildagi buzilish – xudbinlik va xurofot, mustabidlik, ya'nii ko'pchilik ustidan hukmronlik qilish maylidan bo'lak biror-bir maqsadni topib bo'lmaydi.

### **TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:**

Diniy ekstremizm, aqidaparastlik, «Takabburlik ifodasi» «shakkoklar», Yan Gus, Jordano Bruno, Galileo Galilei, «Yer aylanadi», «Al-ihvan al-musallimin», Anvar Sadat, «Tolibon», «Doril Arqam», xudbinlik va xurofot.

### **MAVZUGA DOIR MASALALAR:**

1. Diniy ekstrimizm mohiyati nima?
2. O'rta asrlarda xristian inkvizitsiyasining qilmishlari.
3. Islom ekstremistlari tashkilotlarining paydo bo'lishi.
4. «Musulmon birodarlar» diniy-siyosiy tashkiloti qachon va qayerda tashkil topgan?
5. Anvar Sadat davrida «Musulmon birodarlar» tashkiloti qanday faoliyat ko'rsatdi?
6. «Axbosh» tashkiloti markazi qayerda joylashgan?

---

## **II BOB. EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING O'ZBEKISTON VA BOSHQA DAVLATLARDAGI FAOLIYATI**

### **6-§. VAHHOBIYLIKNING O'ZBEKISTONGA YOYILISHI**

#### **1. Vahhobiylikning O'zbekistonda tarqatilishida ichki va tashqi omillar**

Prezidentimiz I.A.Karimovning “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari hamda Oliy Majlisning XI sessiyasida so'zlagan nutqi va boshqa asarlarida vahhobiylikning O'zbekistonda tarqalishining ichki va tashqi omillari aniq ravshan ifoda qilingan. Ayni paytda, dasturda keltirilgan boshqa maqolalarda ham bu masala atroflicha yoritilgan. Biz “Vahhobiylik O'zbekistonda nima uchun tarqaldi?” degan savolga javob izlab uni talabalarga tushuntirib berishimiz lozim. Yuqorida ko'rsatilgan manbalarning guvohlik berishicha, 80-yillar oxiriga kelib sotsializm qo'rg'onining buzilishi, sobiq Sho'rolar saltanatining inqirozga yuz tutib borishi munosabati bilan boshqa harakatlar kabi diniy harakatlar ham kuchaydi. Chunki, markscha-leninchcha mafkura 70 yil davomida dinga dushmanlik munosabatida bo'lib keldi va ko'plab diniy arboblar yo'q qilib yuborildi. Dinga juda katta zarba berildi. Ko'p odamlar dinga e'tiqod qilmay qo'ydilar. Chunki diniy e'tiqod jamiyatdagi hukmron kuchlar tomonidan qoralanib, unga qarshi ommaviy targ'ibot ishlari kuchaytirildi va fuqarolar yangi ruhda – Sho'rolar ruhida, to'g'rirog'i, markscha-leninchcha g'oyalar ruhida tarbiyalana boshladilar.

Odamlarning dindan tobora uzoqlashishi ma'naviy qashshoqliki keltirib chiqaradi, bu narsa oxir-oqibatda saltanatning qulashiga olib keladi. Ma'naviy qashshoqlik har qanday g'ayriqonuniy

harakatlarning kuchayishidagi bosh mezon hisoblanadi. Nati-jada, butun dunyoda diniy omilning faollashuvni sobiq sho'rolardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi.

Rossiya, Yevropaning sobiq sotsialistik mamlakatlari va sho'rolar tarkibidan ajralib chiqqan yangi mustaqil davlatlarda dinning uyg'onishi ayniqsa kuchaydi. Bu davrda, ya'ni bir tu-zumdan ikkinchi tuzumga o'tish vaqtida jamiyat taraqqiyotida, bir jihatdan, diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy hayotdagagi ta-biiy mafkuraviy ziddiyatlar tug'ilishiga imkon yaratish xususiyatlari ko'rindi. Ayniqsa, sobiq sho'rolar saltanatining tarqalishidagi siyosiy vaziyat turli mintaqalardagi qon to'kilishining ta'siri nati-jasida, O'zbekistonda ham ayrim notinchliklar bo'lib o'tdi. Andi-jon, Namangan, Qo'qon, Farg'ona, qo'shni O'sh viloyatidagi o'z davrida bo'lib o'tgan voqealar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning qaror topishi va mustahkamlanishi davrida "Islom omili", "Islom uyg'onishi", "Qayta islomlashish", "Islom fenomeni" kabi iboralar tobora ko'proq ishlatilib, bu hollarning beqiyos faollashuvini o'zida aks ettirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "**Musulmon dunyosida va hatto undan tashqarida ham so'nggi o'n yilliklar mobaynida ro'y bergan voqealar jahon hamjamiyatida "Islom ovozasi" deb atalgan hodisa haqida gapirish imkonini berdi. Ko'plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida ro'y bergan, "Islom uyg'onishi", "Qayta islomlashish", "Islom fenomeni" va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisalarning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar**".

Ularning fikriga qaraganda, birinchidan, Sho'ro davrida hukmron bo'lgan sobiq mafkuraviy tasavvurlar va qadriyatlar tizimining yemirilishi va bu yemirilish yoki halokat davrida ho-sil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish zaruratidan kelib chiqdi.

Ikkinchidan, 70 yil davomida hukmronlik qilib kelgan kommu-nistik mafkuraning ma'naviy qashshoqligi, o'ziga xos mutaassibligi yoki real turmushdan ajralib qolganligi, hukmron millat manfaati-ga moslashib qolganligi, shu sababli, boshqa millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi, natijada, odamlarning tili boshqa, dili boshqa shaxslarga aylanganligi sho'ro saltanatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm va traditsionalizm uchun qulay sharoit yaratdi.

Uchinchidan, sobiq sotsialistik mamlakatlar, jumladan, sobiq ittifoqdagi hukmron partiyalarning jilovbardorlari diniy tashkilotlarni, jamoalarni xalqlarning aql-idroklarini egallash uchun kurashda o'zlarining asosiy raqiblari hisoblab kelganligi, dinning pinhoniyatga chekinishga va hatto ularning muayyan ma'nodagi muxolif kuchga aylanib qolishiga olib keldi.

To'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi etnik jihatidan nasl-nasabini izlashga intilishning beqiyos kuchayishi, yo'qotilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni tiklashga harakat va bu sohada dindan foydalanishga intilish kuchaydi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillarda hali hokimiyatning to'la qudratga ega emasligi, iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, demokratiyani ko'p kishilarning to'la anglab yetmaganligi, turli xil firqalarning va guruhlarning, jumladan, diniy ekstremistik guruhlarning ham paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Buning ustiga sho'ro hokimiyati yillarda Islom dinini chuqur bilgan, islom falsafasini, sunniylikni asosiy nazariy va amaliy bilmlarning to'la o'zlashtirgan olim va ruhoniylarni yo'qotib yuborish natijasida mamlakatdagi diniy ishlar bir guruh "chalamullalar" qo'liga tushib qoldi. Ular diniy fundamentalizm bilan nazariy va amaliy kurash olib borishga, sunniylikni yetarli himoya qilishga ojiz edilar. Ba'zi bir buni yaxshi biladiganlar ham horijiy diniy tashkilotlar bilan til biriktirib ularga sotildi yoki hokimiyatni egalashni ko'zlab, ataylab, diniy fundamentalizm va ekstremizmning rivojlanishiga sharoit yaratib berdilar.

Yosh mamlakatlarning huquqini muhofaza qilish organlari va killari diniy jihatdan y yetarli savodi bo'lмагanlari uchun dingga bog'liq bo'lgan har qanday ko'rinishlarni diniy qadriyatlar si fatida qabul qildilar. Ular diniy ekstremistlar tartibsizlik keltirib chiqarmagunlaricha, voqealarning oldini olishda sust faoliyat ko'rsatdilar.

Buning ustiga, bizga chegaradosh bo'lgan mamlakatlarda islom fundamentalizmi va ekstremizmning kuchayishi, turli kadrlarni tayyorlab Respublikamizga o'tkazish, Markaziy Osiyoda islom davlatini tuzish vasvasasi ham vahhobiylikning Respublikamizga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

## **2. 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlarida O'zbekistonda tashkil etilgan vahhobiylit tashkilotlari va ularning qilmishlari**

O'zbekistonda demokratiya jarayonida o'z maqsadlarida foy-dalanib qolishga harakat qilib, ba'zi bir niyati buzuq kishilar o'zlarining haqiqiy basharasini yashirib, turli diniy tashkilotlar tuzib, ularni hatto qonuniy ro'yxatdan o'tkazishga harakat qilib ko'rdilar.

Lekin ularning haqiqiy intilishlarini oldindan payqagan, ayniqsa, Tojikistondagi voqealarning rivoji mamlakat fuqarolari tinchligiga qanday ta'sir qilishini oldindan ko'ra bilgan Prezidentimiz islam Karimov Namanganda bo'lib, ularni insofga kelishga undadi. Ammo siyosiy tanglikning ta'siri natijasida bosar-tusarini bilmay qolgan ekstremistlar ashaddiyashib, Namangan viloyatida faoliyatini aktivlashtirdi. Natijada, muayyan tartibsizlik, beqarorlik yuzaga kelib, "Adolat", "Islam lashkarları" nomlaridagi guruhlar faoliyat ko'rsata boshladilar.

"Islam lashkarları", "Adolat" uyushmasi va boshqa guruhlar qonunsiz faoliyat ko'rsatib, ijtimoiy tuzumni zo'rlik ishlatish yo'li bilan o'zgartirishni maqsad qildilar. Xalqning xavfsizligiga raxna solmoqchi bo'ldilar. Ma'naviyatimizga tajovuz qiluvchi harakatlar bilan milliy va diniy ruhdagi chiqishlari, namoyishlari hamda shahar ko'chalaridagi yurishlari bilan jihodni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qildilar. Oqibatda, uyushma sifatida harakat, partiya yoki jamiyat sifatida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan "Adolat" va "Islam lashkarları" guruhi fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini poymol etdi. Farg'ona vodiysida, ayniqsa, Namangan viloyatida Islam dinining qonunsiz rivojlanishi, hatto maktab o'quvchilarining dunyoviy bilimdan ko'ra diniy bilimlarga berilib ketishi, maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalarning qonun talablariga zid holda hujralarda o'qitilib, diniy bilimlarning ijobiy emas, salbiy tomonlari uqtirilishi holatlari aniqlandi. Natijada, ko'plab yoshlar dunyoviy bilim olishda o'z tengdoshlaridan sezilarli darajada ortda qoldilar.

1989-1992-yillarda Namangan viloyatida turli siyosiy chiqishlar avj oldi. Bunga Konstitutsiyamiz talablariga zid hol-

da tuzilgan, diniy oqimlarning g'araz niyatlariga xizmat qilgan "Adolat", "Islom lashkarlari", "Tavba" harakati va boshqalar sabab bo'ldi. Ushbu oqimlarga a'zo bo'lган fuqarolar O'zbekistonda Islom davlati tuzishga chaqiriplari, hokimiyatni qo'lga olishga intilib qilgan harakatlari bilan oddiy xalqning tinchini buzdilar. Qonunga hilof ravishda tashkil topgan diniy yo'naliшhlardagi oqimlar toat-ibodat bilan shug'ullanish o'rниga, o'zlarining moddiy ta'minotlarini yaxshilash maqsadida, fuqarolardan, tashkilotlardan ochiqdan-ochiq mablag' talab qilib olib, ulardan o'z saflarini kengaytirish va quroл-yarog' bilan ta'minlash uchun foydalanganlar. Ular talab qilgan mablag'ni berishdan bosh tortganlarni azoblab, urib, qiy nab, turli darajadagi tan jarohati yetkazganlar. Ayrimlarini esa qiy nab o'ldirish darajasiga yetganlar. Bu haqda professor Hoji Ismatulloh Abdullohning mulohazalarini befarq va hayajonsiz o'qib bo'lmaydi. "Namangandagi voqealar hamma qatori meni ham qattiq iztirobga soldi, vahshiyarcha qatl etilganlarning ayrimlarini bilardim. 1990-1992-yillari O'zbekiston va Tojikistonda, shu jumladan, Namanganda vahhobiylar paydo bo'ldi. Men u vaqtida Toshkentda yashardim. Ta'til payti dam olish uchun Namanganga keldim. Vahhobiylar avjiga chiqqan. Ularga na o'sha davrdagi rahbarlar va na davlat idoralari boshliqlari, hatto huquqni himoya qilish mahkamalari rahbar va xodimlari, ziyorolar ham hech narsa deyisholmasdi. Vahhobiylar qarorgohi Ota Valixon to'ra masjidi jomesi ekan. Shahar dindorlari ikki qismga bo'linib ketishgan. Qonli to'qnashuv chiqish xavfi tug'ilgan. Rahbarlarning birini "kofir" deb, birini "murtad" deb haqorat qilishiadi. Faol ziyorolar tashabbusi bilan qancha mablag' sarflanib Mullo Qирг'из madrasasi o'rnida adabiyot muzeyi tashkil etilib, qimmatbaho noyob eksponatlar bilan jihozlangandi. Johil vahhobiylarning ko'r-ko'rona harakati bilan eksponatlar chiqarib tashlanib, u yer madrasaga aylantirildi. Men Namanganda madrasa bo'lishiga qarshi emasman, lekin shuni shoshilmay avval muzeyga joy topib yoki madrasaga boshqa yerdan joy topib qilinsa bo'lardiku! Qimmatbaho muzey jihoz va eksponatlari qayerdadir qoplarda yotibdi, ko'plari yo'qolib ketgan".

Olim o'z hayotini qattiq xavf ostida qoldirib, Ota Valixon to'ra masjidi haqida maqolasini "Namangan haqiqati" gazetasi va Na-

mangan radiosiga beradi. O'rtoqlari "Vahhobiylar sizni o'ldirib yuboradi", deyishadi. Maqola 1990-yil 8 sentabrda bosilib chiqadi, uni hamma tuman gazetalari ko'chirib bosadi. Radioda qayta-qayta eshittiriladi. O'sha maqolada olim vahhobiylar harakati, uning mamlakatimiz hayoti, davlatimiz siyosati va islomga tamoman zid ekanligini dalillar bilan isbotlab bergen edi. Olim uchun bu yengil ko'chmadi. Uning Namangandagi uyiga kechki payt ikkita mashinada o'n kishi kirib keladi. Hammasi soqolli, badbasha-rra, diniy ilmdan tamom savodsiz shaxslar. Olim diniy ilmni yaxshi bilgani uchun ularga tegishli javobni qiladi va men bilan imomingiz kelib gaplashsin, deydi. Ikkinci kun yana beshtasi keladi, bular ham nuql savodsiz, dindan behabar kishilar ekan. Oxirgi uchrashuv "Namangan haqiqati" bosh muharriri marhum T.Nazirov xonasida bo'ladi. Bu safar olim vahhobiylarning to'rtta jangarisi bilan bahsashadi. Ular olimni maqolaga radiya yozishga undashadi, bittasi hatto "Men besh marta qamalib chiqqanman", deyishdan ham toymaydi. Olim "Kerak bo'lsa meni sudga beringlar, radiya yozmayman", deb ularni jo'natadi. "Vahpobiyalar bilan qilgan suhbatlarim shuni ko'rsatdiki, - deb yozadi muallif, - ular soqol qo'ygan, na dunyoviy, na diniy ilmdan xabarsiz yoshlar va nafaqaxo'r turli toifadagi kishilar edi. Hatto ular vahhobiylar nimaligini bilmasdi. Imam Abdulahadning uyiga borib "Gazetani o'qidingizmi?" desam. "Yo'q vaqtim bo'lmasdi" dedi. Iya, ukam sizning masjidining haqida maqola yoziladiyu o'qimaysiz, masjidga bir guruh savodsiz, islomdan be-xabar kishilarni to'plab olibsiz, ular davlatimiz siyosatiga zid ishlar qilyapti, dinga ham katta zarar yetkazayapti".

Olimning maqsadi Ota Valixon to'ra masjidini tinchitish, keyingi ro'y berishi mumkin bo'lgan fojialarning oldini olish edi. Toshkentga kelgandan keyin Imam Abdulahad nomiga diniy qonun-qoidalar va davlat qonunlari asosida xat yozib, masjidni savodsiz, johil mutavvallilardan tozalashni bo'lmasa boshqa masjidga o'tib imomlik qilishni aytadi. "Imomga mening pand-nasihatlarim ta'sir qilmadi. Oqibatda, savodsiz, dinsiz bir guruh olomon tonidan turli jinoyatlar sodir etildi. Bir qancha sofdil kishilar qoni to'kilib, mol-mulki talon-taroj qilindi, oilalar boshiga og'ir kulfat-musibatlar tushdi", deb so'zini yakunlaydi olim. Hurmatli olimimizning bu fikrlariga izohning hojati bo'lmasa kerak.

### **3. Vahhobiylar Respublikamizdag faoliyatining asl mazmuni va vazifalari**

1991-yil Respublikamiz Prezidenti Namangan viloyatiga tashrif buyurdi. O'zlarining noqonuniy harakatlarini avj oldirgan "Islom lashkarları" va "Adolat" uyushmasi qanday yo'l bilan bo'lsa-da, davlat ro'yxatidan o'tib olishni o'ylardi. Bu yo'lda hech narsadan toymasdilar, baqirib-chaqirib, ayyuhannos solardilar. O'zining hurmatini bilmagan Tohir Yo'ldoshev, Hakimjon Satimov, Alisher Nishonov va boshqalar jamoat tartibini qo'pol ravishda buzib, ongsizlarcha ish tutdilar. O'sha yillari viloyat Adliya boshqarmasining boshlig'i bo'lgan Nuriddinjon Ismoilovga ham oson bo'lmadi. U qat'iyat bilan ish tutib, "Adolat" va "Islom markazi" ni davlat ro'yhatidan o'tkazmadidi. Biroq 1992-yil 15 fevralda sobiq Adliya vaziri B.Malikov esa "Islom markazi" ning Namanganda ochilishiga ruxsat berdi. O'zbekiston Respublikasining o'sha vaqtida Jinoyat Kodeksining 54, 60, 62, 63, 64-modalaridagi davlatga qarshi jinoyatlarni sodir etgan T. Yo'ldoshevning "Islom markazi" ga rahbar bo'lishi davlatimizga juda qimmatga tuishini nahotki sezmagani bo'lsa?!

Eng ajablanarlisi, bunday harakatlarni yo'q qilishi shart bo'lgan sobiq viloyat prokurori Ch.Jo'rayev "Men sizlarni qo'llab-quvvatlayman, harakatlariringizni ma'qullayman" deb aytgach, baqiriq-chaqiriqlar, taqbir aytib ko'cha va maydonlarni to'ldirib yurishlar kuchaydi. Bu yurishlar adolatni tiklashga emas, balki oxir-oqibat insonni xo'rslash, iymonsizlarni ko'paytirish, dinimizga humatsizlik, uni obro'sizlantirish, poraxo'rlik va boshqa xildagi jinoyatlarning, ko'zbo'yamachiliklarning urchishiga sabab bo'ldi.

Nihoyat, 1992-yil bahor oylarida mansab, hokimiyat uchun 1990-yillardan boshlab faoliyat olib borgan "Amirlar" - vahhobiylar harakatlariga nuqta qo'yildi. "Adolat" uyushmasining rahbari X.Satimov qamoqqa olindi. Din va millatni, ota-onani tan olmaydigan shaxsiyatparastlarga zarba berildi.

"Islom lashkarları", "Adolat" 1990-1992-yillarda Namangan viloyatida "Otalixon" jome masjidida Abdulla O'tayev, Tohir Yo'ldoshev boshchiligidagi 100-200 kishidan iborat 60 dan ziyod guruuhlar tashkil etilgan edi. O'sha payt "Adolat" harakati faolari drujinalar tuzib, kechki payt o'z mahallasidan tashqarida

yurgan erkak-ayollarni to'xtatdi. Ichkilikka qarshi kurash uchun aybdorlarni masjid oldida ustunlarga bog'lab qo'yishdi. 1992-yil 17 martdan boshlab, aprel oyi oxirlarida ularning faoliyati tuga-tildi. Qochib ketgan "Adolat"ning ba'zi faollari tojik muxolifati-ga qo'shilgan.

Demak, vahhobiylarning Respublikamizdagi asl maqsadi, mavjud demokratik davlatni, dunyoviy fuqarolik jamiyatini o'zgartirishdan iborat bo'lgan ekan.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, aslida arablarning turk istilosiga qarshi kurashi ifodasi sifatida yuzaga kelgan bu oqim taraf-dorlari dunyoviy ilm-fandan yuz o'girib, umuminsoniy ma'naviy-madaniy taraqqiyotga qarshi chiqadilar. Masalan, vahhobiylar, musiqa, qo'shiq, teatr, kino, tasviriy san'at va madaniyatning boshqa muhim sohalarini butunlay rad etadilar.

Hozirgi paytda Saudiya Arabistonida ham vahhobiylarning ta'llimoti sekin-sekin modernizatsiya qilinmoqda. Mamlakatda texnika fan yutuqlaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Fuqarolar mafkurasida ham o'zgarish bo'lmoqda. Hozirgi davrda ilm-fan, texnika, madaniyat, davlatchilik va turli xalqlar orasidagi o'zaro siyosiy va ma'naviy munosabatlar yuqori darajaga ko'tarilgan bir paytda Islomni payg'ambar davrlaridagi holatga qaytarish aslo mumkin emas. Agar shunday qilinadigan bo'lsa, ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan buyuk yangiliklar (elektr, mashina, samolyot, telefon kabilar) dan voz kechish kerak bo'ladi. Vahhobiylilik Islom mamlakatlarda ayollarni foydalni mehnatdan, mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotida ishtirok etishdan mahrum qiladi.

Shunisi ham borki, vahhobiylar baribir Saudiya Arabistonida islomni aks holiga qaytara olmadilar. Mamlakat ilg'or zamon-naviy texnika va ilm-fan taraqqiy etgan davlat sifatida rivojlanib bormoqda, uyida ko'plab xizmatkor saqlaydigan milliarder boylar, mulkdor, bank egalari yashamoqda. Hozirgi zamon texnikasining so'nggi yutuqlaridan foydalanmoqda.

Bir tasavvur qiling, agar hozir bizda xalqimizning asl o'g'il-qizlari yaratgan musiqa, kino, teatr, tasviriy san'at man etilsa, bu kelajak avlodni ma'naviy tushkunlik va o'rta asr holatiga yetaklash bo'lmaydimi?

Mana shunday sharoitda xalqimiz tabiat, urf-odatlari, an'analariiga zid ta'lilot, vahhobiylirkni O'zbekistonda tarqatishga urinish o'ta zararli va kelajagi yo'q ishdir.

### **TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:**

Ichki va tashqi omillar, xavfsizlikka tahdid, sho'rolar sultanati, markscha-leninchha mafkura, «Islom omili», «Islom fenomeni», «Islom ovozasi», sobiq sotsiolistik mamlakatlar, milliy o'zlikni anglash, fundamentalizm, «Islom lashkarlari», «Adolat», «Tavba», Ota Valixon to'ra masjidi, «Islom markazi», ma'nnaviy tushkunlik, o'rta asr holatiga yetaklash.

### **MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:**

1. 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlarida O'zbekistonda tashkil etilgan vahhobiylilik tashkilotlari.
2. Professor hoji Ismatulloh Abdullohning 1989-1992-yillarda Namangan viloyatidagi voqealarga munosabati.
3. Vahhobiylilikning respublikamizdagi faoliyatining asl mazmuni.
4. Namangandagi qaysi masjid vahhobiylar qarorgohi bo'lgan?
5. «Islom markazi» faoliyati?
6. Vahobiylarning xalqqa ko'rsatgan jabr-sitamlari.

## **7-§. EKSTREMIST VA TERRORISTLARNING O'ZBEKİSTONDAKİ QILMİSHLARI**

### **1. Diniy ekstremizm va fundamentalizm xavfi haqida oldindan ogohlantirish va uning tasdiqlanishi**

Talabalar ushbu mavzuni to'la tushunishlari uchun birinchi navbatda Prezidentimiz I.A.Karimovning diniy ekstremizm va fundamentalizm xavfining kuchayganligi haqida ogohlantirgani va voqealarning olti oydan so'ng tasdiqlanganligiga e'tiborni qaratishi lozim. Ayni paytda Sh.Xudoyberdiyevaning "Oydagи dog'lar" ("Adolat" 1998-yil 6 fevral) va X.Xalilovning "Loqaydlik girdobi" ("Adolat" 1998-yil 27 mart) maqolalarini o'qish maqsadga muvoifiqdir. Shuningdek, G.Hotamov, Sh.Hamroyevlarning "Bir bolaga yetti mahalla ota-onas" ("Xalq so'zi" 1998-yil 15, 17 aprel) maqolasida muhim faktlar umumlashgan bo'lib, voqealarning aniq sa-

bablarini uni tayyorlashdagi ichki va tashqi omillarni tushunib yetishga yordam beradi.

Prezidentimizning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asaridagi: “**E’tiborni jahon hamjamiyati hayotida Islom qadriyatlarini tiklash bayrog‘i ostida ro‘y berayotgan hodisalar g‘oyat xilma-xil, ko‘p qirrali, ba’zan ziddiyatli va hatto qarama-qarshi qutbli ekanligiga qaratmoqchiman.** Shu bilan birga, aniq ravshanki, jahon jamoatchiligi, bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilangina qarab qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotgani, ba’zan esa hatto xavfsirayotgani ham ko‘zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamontarixida ana shu o‘ta keskin ko‘rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho‘chityapti. Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha to‘planib qolgan. O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta’minalash zarurligi nuqtai nazaridan qaraganda, bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug‘dirmoqda” (34-bet), degan jumlalar beixtiyor diqqatni o‘ziga tortadi.

Darhaqiqat, bu asar bosilib chiqqandan olti oy o‘tgach, asarda yozilgan gaplar o‘zining to‘la tasdig‘ini topdi.

Dinni himoya qilishni o‘zlariga niqob qilib olgan ashaddiy jinoyatchilar odamlarning tinchligini buzib, o‘ta xavfli jinoyatlar Respublikamizning turli joylarida turlicha mish-mishlarning, bir-biridan sovuq vahimali gaplarning tarqalishiga olib keldi. Hatto: “Namanganda har xil diniy oqimlar paydo bo‘lib, Islom davlati qurishga urinishlar bo‘layotgan emish”, degan gaplar ham tarqaldi.

Mamlakatimiz huquqni himoya qilish organlari masalaning aniq sabablarini va mohiyatini aniqlab, xalqimizni bu voqealardan xabardor qildilar. Xalqimiz bu jinoyatchilarning asl basharalarini, kim ekanliklarini, ularga kimlar xayrixoh bo‘lib, madad qo‘lini cho‘zganliklarini, to‘g‘risi, ularni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazib, o‘zlarining yovuz niyatlarini amalga oshirish uchun ishga solganliklarini bilib oldi.

## **2. Ekstremistlar bilan kurashda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati**

Mamlakatimiz huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o‘z ko‘kraklarini qalqon qilib bu yovuz kuchlar bilan kurashda qahramonlik namunalarini ko‘rsatdilar.

Bu sohada O‘zbekiston televideniyasida Respublikamiz Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari, miliitsiya general-mayori Qutbiddin Burxonov rahbarligidagi “Oydagi dog‘lar” ko‘rsatuving tashkil etilishi xalqimizni to‘g‘ri axborot bilan ta‘minlashda katta rol o‘ynadi. Bu masala bo‘yicha respublikamiz matbuotida ham qator maqolalar e’lon qilindi.

Respublikamizda Namangan gullar shahri, mehnatkash, halol-pok, samimi insonlar shahri va viloyati sifatida nom qozongan. O‘zbek xalqiga xos mehnatkashlik, tinchliksevarlik, oljanoblik va halollik xususiyatlari Namangan viloyati xalqida ham mayjud. Bu yerda yashovchilar azaldan tinchlikparvarligi va xushmuomalaligi bilan dong taratgan. Shunday ajoyib yurtda ba’zi bir hunuk voqealarning bo‘lib o‘tgani rost. Lekin it ichgani bilan daryoning suvi harom bo‘lmaganidek, bir guruuh nobakrlarning jirkanch qilmishi bilan butun bir viloyat xalqining sha’niga qora chaplash yaramaydi.

Keyingi voqealar vahhobiylar oqimga mansub kishilar tomonidan sodir etildi. Chunki o‘z kelajagini, yo‘nalishini belgilab olib, mustaqillik quyoshi bilan kundan-kunga chiroy ochib borayotgan yurtimizning, xalqimizning farovonligini, tinchligini ko‘ra olmaydigan, buzg‘unchilikni kasb qilib olgan qora niyatli shaxslar ham, afsuski, jamiyatimizda hamon uchrab turibdi. Ularning asosiy qismi 1991-1993-yillarda hukumatni qo‘lga olishga intilganlar. Ular shu maqsadda yashirin faoliyat ko‘rsatib, o‘zlarining qora niyatlarini xalqning osoyishtaligini buzish, mansabdor shaxslarga, oddiy fuqarolarga bosqinchilik, talonchilik va qotillik qilish bilan amalga oshirishga uringanlar. Ular davlat boshqaruv apparatini qo‘lga olishni va O‘zbekistonda Islom davlati qurishni maqsad qilganlar.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirilar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”, deyilgan. Yuqorida zikr etilgan barcha “oqimlar” ning faoliyati qonunsiz

bo'lib halqimizning tinchligini, osoyishtaligini buzishga qaratilgandir. Chunonchi, 1997-yil mobaynida Namangan shahrida yuzlarida niqob bilan qurollangan shaxslar viloyat hokimining muovini Erkin Mamatqulov, DAN xodimi Boqijon Ubaydullayev, sobiq jamaoa xo'jaligi raisi Nabijon Abdullayevlarning uylariga bostirib kirib, ularni o'ldirganlar. (N.Abdullayevning rafiqasi O'midaxon Abdullayeva ham o'ldirilgan). So'ngra ularning uylaridagi qimmatbaho buyumlarni, avtomashinalarini o'g'irlab olib ketganlar. Ayniqsa, Boqijon Ubaydullayevni vahshiylarcha o'ldirishgan va boshini tanasidan qirqib olib, uni viloyat IIB boshlig'inining birinchi o'rinososari hovlisining darvozasiga ilib qo'yishgan, ya'ni "endi sen ga navbat", degan ma'noni bildirishmoqchi bo'lishgan. Ha, darvoqe, odam o'ldirish Islomda eng og'ir jinoyatlardan biridir.

Bu yerda "Mulkdor" gazetasi xodimi A.Rahimqulovning tanqli olimi Abduqayum Azimov bilan suhbatini keltirishi maqsadga muvofiqdir. "Odam o'ldirish jinoyatiga Islom qanday munosabatda bo'ladi?" degan savolga javob quyidagichadir:

"Qur'on va hadislarda belgilangan ulkan gunohlarning ikkinchi si nohaq odam o'ldirishdir. Alloh taolo begunoh odamni qatl qilgan kishining gunohini janob Payg'amarimizga Qur'oni Karimning "Niso" surasidagi 93-oyatda shunday bayon qilgan: "Kimki qasddan bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannam bo'lib, o'sha joyda abadiy qolajak. Va u Allohning g'azabi va la'natiga duchor bo'lg'ay, Olloh uning uchun azobini tayyorlab qo'ygandir". Islom shartida bir kishi ikkinchi kishini qasos olish niyatida qasddan o'ldirsa, sha'riy yo'l bilan jazoga tortilgan. Qasos olish niyati bo'lmasdan, qasddan nohaq qatl etsa yoki biror buzg'unchilagini yashirish niyatida o'ldirsa, buning gunohi go'yo yer yuzidagi barcha odamlarni o'ldirib yuborganchalik katta bo'ladi, chunki yer yuzida barcha kishilarga odamlarni nohaq qatl etishni shu kishi o'rgatgan hisoblanadi.

Umuman, inson ahli qaysi din, mazhab yoki toifaga e'tiqod qilsa, albatta, o'z e'tiqodida mustahkam turadi. Lekin ekstremist jinoyatchilarning qilmishlari umuman islom talablariga ham, oddiy insongarchilikka ham mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ularni aqlidrokini yo'qotgan ashaddiy jinoyatchilar deb baholash mumkin.

Olib borilgan qidiruv va tergov ishlari natijasida ushbu jinoyatchilarni vahhobiy oqimga mansub bo'lgan O.Yuldashev, T.Mamajonov,

S.Xolmatov, A.Yuldashev, M.Nuritdinov, M.A.Abdurahmonov, R.Oxunov va boshqalar sodir etganliklari aniqlandi. Ushbu uyushgan jinoiy guruhning asosiy ishtirokchisi bo'lgan Sohib Xolmatov Afg'onistonda maxsus tayyorgarlik ko'rgan qo'poruvchi bo'lib, uni ushslash vaqtida qurolli qarshilik ko'rsatgani uchun otib o'ldirildi. Asosiy tashkilotchilardan biri bo'lgan Tolib Mama-jonov ushslash vaqtida qurolli qarshilik ko'rsatib, miliitsiya xodimlariga qarata o'q ota boshlaganida, yarador qilinib, qo'lga olindi. Jinoyatchilardan 8 nafari zararsizlantirildi.

Tergov davrida ularning asosiy maqsadi – xalqning tinchligini buzib, terror yo'li bilan islom fundamentalizmi asosidagi vahhobiy oqimiga xos davlat tuzish, barcha jinoyatchilarni xalqni qo'rquv ichida saqlash, noroziliklarni keltirib chiqarish uchun qilganliklari aniqlandi.

### **3. Ekstremistlarni tayyorlashda xorijiy mamlakatlarning roli**

Vatan xoinlari bo'lgan bu terroristlarga O'zbekistonning o'zida va chet davlatlarda turib homiylik qilgan rahnamolari aniqlandi. Ular vahhobiy oqimi targ'ibotchilari bo'lib, O'zbekistondan yoshlarni chaqirib, vahhobiylar oqimiga tashviqotchilarni, ya'ni da'vatchilarni tayyorlashgan.

Namangandagi vahhobiylar oqimidagi masjidning sobiq imomlari Husan Mirkomilov ushlanib, qamoqqa olindi, Abdulhay Barnoyev esa o'z yurtida yuzi shuvut bo'lganligi uchun qochib, vatangado bo'ldi. Ularning shogirdlari bo'lgan vahhobiylar o'zi tug'ilib-o'sgan tuproqdagagi begunoh odamlarning qoniga zomin bo'lishdi.

Vahhobiylardan Tohir Yo'ldoshev, Juma Xaliyev va yana boshqalar arab mamlakatlaridan birida ba'zi xunrezliklarda ishtirok etganlar. Ular adashib, o'z ta'sirlariga tushib qolgan ayrim yoshlarni ham Afg'oniston kabi chet ellarga borishga da'vat etib, ulardan jangarilar tayyorlashni maqsad qilishgan. Vahhobiylardan ba'zilari chet eldan qaytib kelgach, Qirg'izistonda sohta hujjatlar asosida pasport olib, u yerda vaqtincha yashab, O'zbekistonga kelib, jinoyat sodir qilish bilan shug'ullangan.

1997- yilning dekabrida Afg'onistonga qonunsiz borib, u yerda qo'poruvchilikdan maxsus dastur bo'yicha bilim olib, Badaxshon – Xorog-O'sh orqali O'zbekistonga qaytib kelayotgan vahhobiy oqimidagi Respublikamiz fuqarolaridan besh nafari Qirg'iziston hududida ushlanib, ulardan avtomat, juda ko'p miqdorda o'q-dori va buyumlar olindi. Jinoyatchilardan tintuv vaqtida AKM avtomatlari, ko'plab granatalar, o'q-dorilar, ularning qo'lida qurban bo'lganlarning qoni qotib qolgan pichoqlar, kechasi ko'rvuchi asboblar, qo'lda tayyorlangan pistoletlar, maxsus tikilgan niqoblar, militsiya xodimining forma kiyimlari, o'ldirilgan Boqijon Ubaydullayevning guvohnomasi, forma kiyimi, jezslasi, "DAN" ko'krak nishoni, qon izlari bo'lgan qo'lqoplar, o'g'irlangan zargarlik buyumlari, turli qimmatbaho matolar, kiyimlar, jabrlanganlar yashagan uylarning sxemalari topib olindi.

Jinoyatchilar har bir jinoyatni sodir qilishga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rganlar. Kechalari ko'z ostiga olgan qurbanlari yashagan uylarni qorong'ida ham ko'rsatuvchi asboblar bilan o'rganganlar, uylarning sxemalarini chizganlar. Jinoyat qilishda foydalilanilgan maxsus niqoblarni vahhobiy oqimining a'zosi, tikuvchi "birodarları" tikib bergen. U niqoblar nima uchun kerakligini yaxshi bilgan. Shuning uchun ham qo'lga olish paytida o'zini to'rtinchi qavatdan tashladi va oyog'i sindi. U ham qonuniy jazo-sini oldi. Uyushgan guruhning asosiy ishtirokchilaridan bo'lgan Rustam Husanov jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mol-mulk va pullarni imtazam "Islom lashkarları", "Adolat", "Amirlar" va "Tavba"chilarning oila a'zolariga tarqatib kelgan. Ularning oila a'zolari ham birovlarning hayoti evaziga, qoni evaziga kelgan mol-dunyonи birovning uvolidan, gunohidan qo'rqlmay olaverishgan.

Bu uyushgan jinoiy guruhning asosiy ishtirokchilaridan bo'lgan, vahhobiy oqimining a'zosi Nosir Yusupov jinoyat qurollari, o'qotar qurollar va o'g'irlangan daliliy ashyolarni o'z uyida saqlab turgan. U jinoyatchilarning barcha qilmishlaridan yaxshi xabardor bo'lgani holda, ularni o'z uyiga yashirgan va 16 yoshli o'g'li Jamol Yusupovni vahhobiy oqimning asosiy talabi – jangarilik ruhida tarbiyalagan. Jinoyatchilarni ushslash vaqtida ularni himoya qilish uchun o'n olti yoshli o'spirin J.Nosirov militsiya xodimlariga qarata o'zining yonidagi PM pistoletidan o't ochgan.

Jinoyatchilar iz qoldirmaslik maqsadida hamma jinoyatni qo'lqop kiyib amalga oshirganlar, hatto ahvol shu darajaga borib etdiki, ular Namangan viloyatida amir bo'lishni ham istab qoldilar. Namangan viloyatidagi "Adolat" harakatining asoschilaridan biri Odilbek Eshonboyev o'zini viloyatning "amiri" deb e'lon qilgan. U bir qancha "Adolatchi" lar bilan O'zbekistonda Islom davlati qurishni, hokimiyatni tarqatib yuborishni maqsad qilib, "Tavba" harakatini tuzib, yoshlarga qo'poruvchilik ishlarini o'rgatishga harakat qilgan.

Namanganda siyosiy vaziyatning yomonlashuviga qo'shni mamlakatlardagi siyosiy beqarorlik, u yerda o'rashib olgan ba'zi to'dalar katta ta'sir ko'rsatganlar. Masalan, 1991 – 1993 yillardagi Tojikistondagi birodarkushliklar, qonli voqealar bizdagi vaziyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Yuqorida aytilgan "Islom lashkarlari", "Adolat", "Amirlar" tashkilotlari Tojikiston bilan yaqin aloqa o'rnatib, qonli voqealarni qo'llab-quvvatlab turganlar.

1992–1993-yillarda "Vahhobiylar" deb atalmish oqimning ba'zi a'zolari jinoi javobgarlikdan qochib, birodarkushlik urushi bo'layotgan Tojikiston hududiga borib, u yerdagi jangarilarga qo'shilib, urushda ishtirok etib, tinch aholini talash va o'ldirish bilan shug'ullanGANLAR.

Namangan voqealarida tashqi ta'sirning qanday rol o'ynaganligini turli xil faktlar to'la tasdiqladi. Bu masalaga Oliy Majlisning XI sessiyasida keskin baho berildi. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "**Namanganda chetdan ta'sir bo'lmasa, o'z-o'zidan tajovuzlar yuz berarmidi? Bu qonxo'rlar kimning maktabida o'qigan, kimdan mablag' olgan, kim ularni qurol bilan ta'milagan, ota-onalarning beparvoligidan foydalaniб yigitlarni kim Tojikistonga yoki Afg'onistonga va Pokistonga olib borgan. Ular ni muxolif kuchlarning o'zaro xunrezlik girdobiga uloqtirgan kim? Tavildara degan joyda odamlarga qurol o'qtalib, o'zbeklar nomini sotib yurgan Juma Namangoni, o'zini amirlar qatoriga qo'shgan Tohir Yo'ldoshev o'zi kim? Bu muttahamlar qayerdan paydo bo'ldi?..** Lekin yana takrorlayman: chetdan ta'sir bo'lmasa, bolalarimiz aldanib Pokistonga bormasdi, muqaddas dinimizga yet bo'lgan oqimlarga ruju qo'yib, qo'llariga qurol olishmasdi. Jangarilarga aylanib Vatanga, vatandoshiga qo'il ko'tarmas, qo'poruvchilik bilan shug'ullanmas edi".

#### **4. Vahhobiy ekstremistlarning noqonuniy xatti-harakatlari**

Vahhobiy ekstremistlar davlat qonunlarini nazar-pisand qilmay noqonuniy harakatlarni barcha sohalarda amalga oshirdilar.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi Namangan viloyat Kengashiga 1997–1998-yillarda tushgan ariza va shikoyatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, vahhobiychilik mahalliy boshqaruvga, o'zini-o'zi boshqarish organlarining rahbarlari bo'lmish fuqarolar yig'ini raislari va kotiblariga ham anchagini ta'sirini o'tkazgan. Misol uchun, Namangan shahrining "Yangi yo'l" mahallasidagi 1-Yangiariq ko'chasi, 63- "A" uyda yashovchi Tohirjon G'ofurov tomonidan berilgan arizani keltirish mumkin. Fuqaro T.G'ofurov bir yildan beri sarson bo'lib, bormagan joyi qolmagan. Militsiya va sudga yuguraverib tinkasi qurigan. Vahhobiylar A'zamxon, Jo'raxon hoji, G'aybulloxon, Komiljon hoji, Saliboylar davlatni, qonunni, oddiy odamlarni tan olmay qo'yganliklari uchun chora ko'rlishini istaydi. Arizaning mazmuni va unga ilova qilingan hujjatlardan ma'lumki, Namangan shahar "O'uncha" mahallasidagi qabriston hududida joylashgan. "Xasti Mavlono" gumbazi Naman-gan shahar mahalliy kommunal – xo'jalik korxonasi tomonidan 1997-yil 9 iyunda chiqarilgan 11-D sonli buyruqqa asosan bir yil olti oy muddatga fuqarolar ota-bola G'ofurovlar tasarrufiga berilgan. Aholiga fuqarolik xizmati ko'rsatish korxonasi bilan fuqarolar T.G'ofurov va K.G'ofurovlar o'rtasida shartnomaga tuzil-gan. Shartnomaga asosan ota-bola qabristonda "Xasti Mavlono" gumbazi va u yerdag'i xonalar, ayvon va shiyponlarga qarashni o'z zimmalariga oladilar hamda texnika xavfsizligi, yong'inning oldini olish, ziyyoratgoh atrofining sanitariya holatini yaxshilash, gul-xona, mevazorlarni obodonlashtirib, shu yerdan olingan bir yil-lik daromaddan "Mahalla" hayriya jamg'armasiga pul topshirish majburiyatlarini bajarishga mas'ul bo'ladilar. Ammo G'ofurovlar bu yerdan haydalgan A'zamjon Nu'monov tomonidan kaltaklangan va ancha jabrlanganlar.

Bu yerda G'ofurovning gazetaga yozgan arizasidan parcha keltirsak voqeа yanada ishonarli chiqadi. T.G'ofurov arizasida yo-zadi: "Men shartnomani olib mahalla raisi Jo'raxonning oldiga

bordim. Jo'raxon shartnomani o'qib, hech qanday kolxoz xo'jayin emas. Men xo'jayinman, men hal qilaman, bu qog'ozing menga bir pul.. Men kimni xohlasam, o'shani qo'yaman.. Bu erda soqolli kishi turishi kerak deb dag'dag'a qildi". Shu joyda Namangan shahar "O'uncha" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Jo'raxon Abdurahmonovning T. G'ofurovga aytgan gaplarini aynan keltirildi. Agar o'zini-o'zi boshqarish organining raisi shu gaplarni aysa, boshqa oddiy fuqarodan nimani kutish mumkin? Hokimiyatga, fuqaroga, qonunga bo'lган hurmat shumi?

1997-yil 9 aprelda Qorapolvon qishlog'ida yashovchi 7-o'rta maktab o'qituvchisi "Adolat" XDP a'zosi Ilhomjon Ahmadalaliyev keltirgan ma'lumotnomadan bilinadiki, qishloqda diniy ruhdagi guruhlar tuzilgan.

"Adolat" uyushmasi tomonidan sodir etilgan mudhish jinoyatlar, o'zboshimchaliklar hali xalqning esidan chiqqani yo'q. Qattiq kaltaklanishi oqibatida kasalmand bo'lib, hayotdan ko'z yumganlar qancha. Sovuq dekabr oyi bo'lishiga qaramay, ushlab keltirilgan odamlar ustidan 90-100 paqirlab sovuq suv quyildi. Yangiqo'rg'on tuman qishlog'ining mahallalarida "diniy" ruhdagi guruhlar paydo bo'lib – "yangi adolatchilar" faoliyati boshlangan.

Ular o'zlaricha qishloq fuqarolari yig'ini oqsoqoli, mahalla masjidi imomlari ishtirokida diniy ruhdagi guruh tuzib olgan. Bu guruhning asosiy faoliyati o'g'rirlarga qarshi kurash va jamoat tartibini saqlashga yo'naltirilgan. Agar o'g'rilik yoki tartibsizlik sodir bo'lsa, xonadonlarga to'g'ridan-to'g'ri kirib, holatni o'rganib, o'g'rilik yoki tartibbuzarlik sodir etgan shaxsni to'g'ridan to'g'ri mahalla masjidiga olib borib, jazolashga harakat qilishgan.

O'zini-o'zi boshqarish organi bo'lган fuqarolar yig'iniga masjid imomlari bilan til biriktirib, guruh tuzib jinoyatchilarga qarshi kurashish vakolati hech bir qonunda berilmagan. Bunday qonunsiz guruhlarning faoliyat ko'rsatishlari, tartibbuzar yoki o'g'rini masjidga olib borib jazolashlari konstitutsion tuzumga ziddir.

Qolaversa, bunday guruhlar tuzish va unda ishtirok etish jinoyatdir. To'g'rirog'i, buni jinoiy uyushma tashkil etildi deb bahlash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining "Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar" uchun javobgarlikni ko'zda tutgan oltinchi bo'lim 242-moddasida bun-

day jinoyatlar uchun ma'lum javobgarlik belgilangan. Bu modda sanksiyasida 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi belgilash ko'zda tutilgan..

"Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarish" ning oqibati qanday ekanligini, din peshvolari va imomlarining o'ylamay aytgan gaplari, noto'g'ri xatti-harakatlari natijasida viloyatda ayanchli holat yuzaga keldiki, oqibatda esa, odamlar va xalq norizo bo'ldi. Bu kamchiliklar quyi bo'g'indiradagi boshqaruvning sustligi va loqaydliligi oqibati edi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosarlaridan biri Namangan viloyatida bo'lib, 1998 yil 20 yanvar kuni faollar yig'ilishida so'zlagan nutqida "Namangan shahrida 1015 masjid bor, ulardan 842 tasi mahalla masjidlaridir. Bu masjidlarda faqat 8 ta o'rta diniy ma'lumotga ega bo'lgan imomlar ishlashyapti. Qolganlari "ma'lumotsizlar", deya ta'kidladi. "Ular odamlarga nimani o'rgatadi? O'zimizning loqaydligimiz bilan vahhobiylarga imkoniyat yaratib bermayapmizmi?" degan savolni ko'ndalang qo'ydi. Haqiqatdan ham yuqoridagi voqealar loqaydlik oqibati emasmi?

Namanganda bo'lib o'tgan 1997-yil dekabr voqealarini 1990–1992-yillarni esga soladi. Bu vaziyatga jiddiy baho berish lozimligini taqozo etadi.

1990–1992-yillarni eslasak, davlat rahbarining sa'y-harakatlari naqadar qadrlanishi kerakligini yanada chuqurroq anglaymiz. Ozgina ko'ngilchanlikka yo'l qo'yganda yurtimizdagи bugungi farovonlikni orzu qilib yurgan bo'lardik.

O'sha yillarda katta fojianing, qonli urushning oldi olindi. Namangan shahrini "Musulmonobod" shahriga aylantirmoqchi bo'lganlarning, aqidaparast va nihoyat xayolparastlarning niyatları amalga oshmadi, keyin kuchga chiqdi. Tojikistondagi dahshatli voqealari va hodisalar Namanganda yuz berishiga yo'l qo'yilmadi. Farovon hayot, osoyishtalik, tinchlikni saqlash yo'lidagi ziddiyatlarni, hokimiyat uchun bo'lgan kurashlarni bartaraf etishga, vahhobiy guruahlarning shiori bo'lgan "Adolat" pardasiga o'ralgan jinoyatchilarini bartaraf etishga to'g'ri keldi.

1997-yil dekabr voqealarining "qahramon" lari ham qo'lga olinib, jinoyatlar fosh etildi. Ular ustidan ochiq sud o'tkazilib, qilmishlariga yarasha jazo oldilar. Zero, xalqimizning "birovga

chuqur qazisang, o‘zing yiqilasan”, “jinoyat jazosiz qolmaydi” de gan gaplari bekorga aytilmagan.

**1999-yil 16 fevral** kuni soat o‘n birga yaqin mamlakatimiz poytaxti Toshkentda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi yonida kuchli portlash sodir bo‘ldi.

Shuningdek, bunday portlash shahardagi “Nodirabegim” kinoteatri, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Ichki ishlar Vazirlik binolari yonida ham yuz berdi.

Bu yovuzlik mamlakatimiz mustaqilligini, erishayotgan yutuqlarimizni ko‘ra olmayotgan qabix niyatli kuchlarning ishi ekanligi ayon. Zero, bu xunrezlik ortidagi eng asosiy maqsadlar dan biri – mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning hayotiga tajovuz qilishdan iborat bo‘lgan.

Chunki shu kuni soat o‘n birda Vazirlar mahkamasida mamlakatimiz hukumatining 1998-yil yakunlari va joriy yildagi ish rejalari ga bag‘ishlangan majlis boshlanishi, unda Prezident I. Karimov ishtirot etishi ko‘zda tutilgan edi.

Prezidentimiz I. Karimov voqeа sodir bo‘lgan joyda jurnalist larga bergen intervusida shunday deydi:

“Bizni hech kim tanlagan yo‘limizdan qaytara olmaydi. Qo‘poruvchilik qilganlarning maqsadi – xalqimizni tinchligini buzish, qo‘rqitish, yuragiga vahiha solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchini so‘ndirish, amalga oshirayotgan ulkan ishlarimizga zarba berishdan iborat bo‘lgan. So‘nggi vaqtida yurtimizga horijiy sarmoya oqimi ko‘paymoqda. Xorijlik hamkorlar bilan ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu esa ayrimlar ga yoqmayapti. Kimlardir ana shu sarmoyadorlarni cho‘chitishni, ularni O‘zbekistonga sarmoya yetkazishdan qaytarishni istaydi”.

Ushbu lavhalarni ko‘rar ekanmiz, bu yorug‘ jahonda qanday yaramas, razil kimsalar bor-a – deya o‘ylaymiz. Bu lavhalarni ko‘rib qalbimiz larzaga keladi. Shu asnoda savol tug‘iladi. Bu kimni ishi? Javob shu. Bu – terrorning qonli izi.

Terrorizm bugunning gapi emas. Bu inson yaratilibdiki bor. Yaxshilik va yomonlik bormi, demak u ham mavjud. Uning ibtidoiy ko‘rinishlari haqida tarix sahifalarida o‘qiganmiz. Qaroqchilik, talon-taroj, begunoh odamlarning o‘limi hammasi – TERROR.

Biz sport – tinchlik elchisi deymiz. Xo'sh, terror nimani elchisi va terrorizm nimaga xizmat qiladi. Uning rahnamolari kimlar.

Nazarimda “TERROR” o'zbekchadagi “TOR-MOR” degan so'zga, “TERRORCHI” esa “TOR-MORCHI” ga mohiyatan o'xshash. Terror nima qiladi. Terror tor-mor qiladi. Terror bugun ayro-ayro davlatlar emas, yer yuzini tor-mor qilish uchun, bu qonli qirg'inbarot tiriklikui o'z komiga tortishi uchun o'rinnamoqda.

Terror har qanday joyda, har qanday holatda sodir bo'lishi muqarrar.

- **1999-yil 16 fevral voqealar;**
- **2000-yil avgust** Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi voqealar;
- **2001-yil 11 sentabr AQSH** dagi voqealar buning dalil va isbotidir.

Xo'sh, uning rahnomalari kimlar.

**Shayx Usama Bin Muhammad Bin Avad Bin Laden**, 1957-yilda Jidda shahrida tug'ilgan. Saudiya Arabiston va Yamanda qarindoshlari bor. Saudiya Arabiston Qirolligi sobiq tabaasi (fuqarosi), davlatga qarshi faoliyat yuritganligi uchun 1994-yil fevralida fuqarolikdan mahrum qilingan. Yirik biznes egasi, arab mamlakatlari da, shuningdek Angliya va Germaniyada o'zining savdo firmalari bor. Boyligi AQSH dollori bilan baholanganda 100 – 150 milliardga boradi, shundan 35 milliard dollarini Sudan iqtisodiyotiga kiritgan.

Bin Laden afg'on urushida qatnashgan. O'sha vaqtida u Pokistonning Afg'oniston bilan chegaradosh Islomobod shahrida turib, o'sha yerdan mujohidlarga qurol-yarog' va boshqa vositalarni yetkazib bergen, arab jangarilarini tayyorlash va yollash ishiga rahnamolik qilgan.

Asli Irlandiyalik QORA arab yoki AHMAD bir qul laqablari bilan mashhur bo'lgan terrorchi **AMIR ibn al-xattobdir**.

Xattob g'oyat boy oilada tug'ilgan. 15 yilcha burun birinchi bor u goh Afg'onistonda, goh Yaqin Sharqda, goh Chechenistonda paydo bo'lib, maxsus xizmatlarning nahorati ostiga olingan. Yashil islom bayrog'i ostida jang qilib, Chechinistonda o'rashib olib, xattob bo'lg'usi qotillar ta'lim oladigan lagerlar barpo etgan.

Xattobning Chechenistondagi tayyorgarlik bazalarida Tojikiston, O'zbekiston Qirg'iziston, Qozog'iston, Shimoliy Kavkaz Respublikalaridan kelgan “KURSANTLAR” jangovor ta'lim olganlar.

Xattob o‘z hayotining asosiy maqsadi QORA dengizdan KASPIY dengizgacha bo‘lgan hududda yagona Islom vujudga keltirishdan iborat ekanligini aytgan.

16-fevral voqealari hech kimni loqayd qoldirmadi. Yurtdoshlarimiz tilida bitta so‘z “YOVUZLARGA LA’NATLAR BO’LSIN!”.

Haddan oshgan, insonlik qiyofasini yo‘qotgan bunday telbalar vatanni sotgan, vatanfurushlardir.

VATAN SOTILMAYDI. Xoinlar sotiladi. Bu lavhalarga bir nazar tashlang. Bular o‘z xalqini azob-uqubatlarga qo‘yib, o‘z Vataniiga xiyonat qilgan Vatan xoinlaridir.

O‘z insoniylik qiyofasini yo‘qotib shavqatsizlik, manfurlik ko‘chasiga kirib yashayotganlarni Vatanni sotgan, vatanfurushlar deymiz.

**YO‘LDOSHEV Toxir Abdulkalilovich**, 1967-yilda Namangan viloyatida tug‘ilgan, o‘zbek O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi. Diniy ekstremistlar orasida Boy va Direktor laqablari bilan mashhur.

1991–1992-yillarda O‘zbekistonda islom davlati o‘rnatish maqsadida vahhobiylarning ashaddiy tarafdori sifatida chiqqa boshlagan. Shu munosabat bilan u Juma Jadjiyev (laqabi Juma Namongoni) bilan birgalikda “TAVBA” ekstremistik tashkilotining asoschilaridan biri, keyinchalik rahbari bo‘lib maydonga chiqdi, bu tashkilot a‘zolari jangovor qurolli guruuhlar tuzushda qatnashdilar. U o‘zini “O‘zbekiston islom uyg‘onish partiyasi” deb atalgan partiyaning rahbari va “Amir” deb e‘lon qildi. Jinoiy jazodan qo‘chish maqsadida 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududidan chetga chiqib ketdi.

Toxir Yo‘ldoshev Avg‘oniston hududida doimiy yashar ekan, O‘zbekistondagi yoshlarni Afg‘oniston, Tojikiston, Chechenistondagi jangarilar lagerlarida o‘qitish uchun yonlash, ularni qo‘poruvchilik-terrorchilik faoliyatiga tayyorlash ishlarini muttasil olib bordi.

O‘zbekistondagi hokimiyatni bosib olish yo‘llarini 1997-yil may, iyul, noyabrda va 1998-yil dekabrida Turkiya, Ozarbayjon va Afg‘onistonda muhokama etishda qatnashgan.

**Tojiyev Jumaboy Axmedovich**, 1969-yilda Namangan viloyatida tug‘ilgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, o‘zbek, ma’lumoti

o'rta, oilali, bitta farzandi bor. Diniy ekstremistlar orasida "Juma Namongoniy", "Tojiboy" laqablari bilan mashhur.

1989-yildan islam qoidalarini o'rganishga kirishgan, diniy ma'lumotni mashhur diniy aqidaparast – reaksiyoner Mirzayev Abdusvali – Abduvali qoridan olgan. 1991-yildan e'tiboran O'zbekistonda islam davlatini o'rnatish maqsadida Tojiyev vahhobiylikning faol taraf-dori sifatida maydonga chiqdi va Toxir Yo'ldoshev bilan birgalikda Namangan shahrida vahhobiylarning "TAVBA" degan tashkilotini tuzuvchilardan biri bo'ldi. Bu tashkilotni maqsadi O'zbekistonda islam g'oyalarini targ'ib etish orqali islam davlatini tuzish, konstitutsiyaviy hokimiyat organlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish, ular o'rnini Konstitutsiyada nazarda tutilmagan muqobil tuzilmalar bilan almashtirib, milliy va diniy adovat qo'zg'atish, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni terror yo'li bilan beqarorlashtirish hisoblanadi.

Biroq, aziz yurtdoshlarim, aziz xalqimning davomchilari shuni aytmoxchimanki, Vatanni sotib bo'lmaydi. Vatan qimmat, jahoning oltinu javohirlarini to'plab sarflansa ham unga yetmaydi.

Aziz vatandoshlarim manfurlik, shafqatsizlik, yovuzliklar dan ogoh bo'ling.

Yurtimizda yoshlarga alohida e'tibor bilan qaralmoqda.

Hozir hur fikrli, bilimli yoshlarning islohotlarni amalga oshirishdagi sa'y-harakatlari butun mamlakatni qamragan. Ular zamonaviy usulda o'qimoqda, kasb-hunar o'rganmoqda, xorijda tahsil olmoqda. Muhim vazifalarimizdan biri – yoshlarimizning qabih niyatli yovuz kuchlar qo'liga tushib qolmasligini ta'minlashdir.

«Biz yoshlarimizni hech kimga berib qo'yamaymiz, – deydi Prezident Islom Karimov, – ularni o'zimiz tarbiya qilamiz, voyaga yetkazamiz. Chunki ular mustaqil Vatanimizning, erksevar xalqimizning porloq kelajagi uchun mehnat qiladi».

## **5. Andijon voqealari maqsadi**

2005-yilning 12 maydan 13 mayga o'tar kechasi soat 00.30da bir guruh qurollangan jinoyatchilar shaharda jamoat tartibini saqlaydigan militsiya bataloni-soqchi-patrol xizmati hududiga hujm qilgan va navbatchilik qilayotgan to'rtta militsiya xodi-

mini otib tashlab qurol-yarog‘ omborini buzib, o‘nlab avtomatlar, to‘pponchalar, granata va boshqa qurollarni egallab olgan.

Shundan keyin ular bu yerni tark etib, yo‘l-yo‘lakay o‘zlariga o‘xshagan ba’zi odamlarni saflariga qo‘sib, Mudofaa vazirligiga qarashli 34-harbiy qism joylashgan hududni qo‘lga olgan. Jangarilar bu yerda ham navbatchilik qilayotgan to‘rt-besh kishini otib tashlab, juda ko‘p avtomat va boshqa qurol-yarog‘larni egallab olgan.

Keyin ular harbiy qismdan olib chiqilgan “ZIL-130” og‘ir yuk mashinasida tergov izolyatori hududi tomoniga yo‘l olishgan. Ana shu mashina bilan qamoqxona darvozasini urib yiqitib, ichkariga kirishgan va deyarli barcha mahbuslarni – chamasi 600 kishini u yerdan bo‘shatishgan. Qamoqda o‘tirganlar orasida bosqinchilarga qo‘shilishdan qaytmaydigan odamlar ham bo‘lgan.

So‘ngra jangarilar mashinalarga o‘tirib ko‘chada uchragan kishini garovga ushlab, xohlagan odamning mashinasini tortib ola boshlagan.

Ular odamlardan tortib olingan mashinalarda baqir-chaqir bilan, osmonga o‘q otib, shahar ko‘chalari bo‘ylab shovqin-suron ko‘tarib, uchta obyektga – viloyat ichki ishlar, milliy xavfsizlik boshqarmalari va viloyat hokimiyati binosiga hujum qildilar. Jangarilar faqat qurolsiz kishilar navbatchilik qilgan viloyat hokimligini bosib oldilar.

13 may kuni ertalab Prezident Islom Karimov Andijonga yetib keldi va behuda qon to‘kilmasligi uchun kechgacha jangarilar bilan muzokaralar olib bordi. Jangarilarning talablari soatma-soat o‘sib siyosiyashib bordi. Jangarilarga binoni tashlab istagan tomoningizga keting, sizlarga hech kim tegmaydi, deb va’da qilindi. Ular bunda ham rozi bo‘lmay tinch aholidan o‘zlariga jonli devor yasadilar.

13 may kuni kech soat 18<sup>00</sup> gacha hech qanday qo‘sishin holimiyat binosiga yaqin bormadi. Ular qo‘yilgan shartlarga rozi bo‘limgach, harbiylar hokimiyat binosini o‘rab olaboshladilar. Lekin jangarilar asosiy eshiklardan uch guruhga bo‘linib chiqib, o‘q uzishib turli tomonga, asosan Qirg‘iziston tomonga qarab qocha boshladi. Harbiylar ularni ta‘qib qildilar. Ikki tomonda qurbanlar bo‘ldi. Jangarilarning bir qismi qo‘lga olindi.

2005-yilning 5–6 sentabr kunlari bosh prokuraturaning tezkor – tergov guruhi Andijon shahrida ro‘y bergen voqealarni tek-

shirish bo'yicha Oliy Majlisning mustaqil komissiyasiga tergov harakatlari natijalari to'g'risida axborot taqdim etdi.

Ma'lumki, 2005-yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida odamlarning qurbon bo'lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan qator terrorchilik harakatlari sodir etildi.

Bu fojiali voqealar bo'yicha tergov ishlari birinchi bosqichda 15 nafar o'ta faol ishtirokchiga nisbatan yakunlandi va jinoiy ish materiallar Oliy sudga ko'rib chiqish uchun topshirildi.

Dastlabki tergov davomida isbotlanishi zarur bo'lgan sharoitlar, shu jumladan, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergen sabab va sharoitlarga batafsил, har tomonlama, to'liq va xolis baho berildi. 2100 dan ortiq ekspertiza tayinlandi va o'tkazildi.

Tergov davomida Andijondagi terrorchilik harakatlari buzg'unchi kuchlar tomonidan O'zbekistonning mustaqil siyosatiga, uning milliy manfaatlariga qarshi puxta rejalashtirilgan va tashkil etilgan xuruj bo'lib, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni o'zgartirish va bu kuchlarning geosiyosiy manfaatlariga to'liq javob beradigan islom davlatini tuzishga qaratilgani aniqlandi.

Mazkur jinoiy ish yuzasidan olib borilgan tergov buni to'la tasdiqladi.

2004-yil avgust oyidan boshlab bu buzg'unchi kuchlar "Turkiston islomiy harakati", "Hizbut - tahrir" va uning oqimlaridan biri bo'lgan – "Akromiyalar" xalqaro terrorchilik va diniy-ekstremistik tashkilotlarini jalb qilgan holda, 2005-yil may oyida hokimiyatni egallash va konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish maqsadida O'zbekistonda terrorchilik harakatlari sodir etishni rejalashtirgan.

Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish bo'yicha senariy va batafsil reja puxta ishlab chiqilgan. Jumladan, qurolli guruuhlarni tuzish, ularni jangovor tayyorgarlikdan o'tkazish, qurol yaroq va o'q-dori bilan ta'minlash, hujum uyuştiriladigan obyektlarni, xususan harbiy qismlar hamda harbiylashgan tuzilmalar bo'linmalari, ularning qurol-aslaha omborlarini aniqlash va razvetka qilish oldindan rejalashtirilgan.

Tergovda isbotlandiki, "senariychilar" terrorchilik harakatlariiga tayyorgarlik joyi sifatida Qirg'izistonning janubiy viloyatlari ni tanlagan, u yerda joriy yilning yanvaridan aprelijacha xorijiy

instruktorlar 70 nafarga yaqin diniy ekstremistik qo'poruvchilik – terrorchilik usullarini o'rgatgan.

Andijonda hokimiyatni zudlik bilan egallash maqsadida har birida 9 kishidan 22 kishigacha bo'lган 20 ta hujum guruhi tuzilgan.

Bu guruhning boshliqlari hujum uyushtiriladigan obyektlarning sxemalarini bat afsil o'rgangan, zarur qurol-aslahha, portlovchi modda va o'q-dorilarni oldindan tayyorlab qo'ygan.

12 maydan 13 mayga o'tar kechasi Qirg'iziston fuqarolaridan tayyorlangan va qurollangan 60 nafr jangari O'zbekiston hududiga bostirib kirgan va terrorchilik harakatlarida faol ishtirot etgan.

Terrorchilik huruji bilan bir vaqtning o'zida O'zbekistonga qarshi axborot urushi ham tayyorlangan. Terrorchilik harakatlari bilan bir qatorda aholining go'yoki "tinch namoyishi"ni uyushtirish ham rejalashtirilgan. Buning uchun terrorchilik harakatlarining tashkilotchilari iloji boricha ko'proq odamlarni ko'chaga chiqarishga, bezori jinoiy unsurlarga, avvalo, o'zлari qamoqdan chiqarib yuborgan o'ta xavfli jinoyatchilarga Andijon shahri ko'chalarida xunrezlik, qirg'in, talon-taroj qilish, o't qo'yish uchun sharoit va imkon yaratish, bir so'z bilan aytganda, "olov va tutun qancha ko'p chiqsa, ommaviy g'alayon, qo'zg'alon ko'targan xalq namoyishi shuncha yaqqolroq ko'zga tashlanadi" qabilida ayovsiz to's-to' polon uyushtirishni mo'ljallagan.

Mazkur harakatlar "senariylari" go'yoki "norozi aholi" tomonidan egallagan va ularga qarshi hukumat qo'shinlari jangovor harakatlar olib borayotgan shahar qiyofasini yaratishni ko'zlagan.

Ularning rejasiga ko'ra, hamma joyda hoziru nozir bo'ladigan "gumanitar", "xayriya" deb atalmish xalqaro tashkilotlar paydo bo'lib, ularning tili bilan aytganda, "tinch aholi qirg'ini"ni to'xtatishni talab qilish kerak edi.

Voqealarni aynan shu tarzda yoritish ularning nazorati ostida bo'lган ommaviy axborot vositalari zimmasida bo'lган. Shu maqsadda inson huquqlarini himoya qiluvchi qator xorijiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va chet el xayriya jamiyatlarining oldindan xabardor qilingan vakillari hali voqealar boshlanmasidan avval 9, 10 may kunlari, ko'pchiligi esa may oyining birinchi kunlaridayoq Andijonga chegaradosh hududlar – O'sh, Aravon, Qorasuv, Jalolobodda tc'plana boshlagan.

Ular bu mintaqaga kelib, Andijonda rejalashtirilgan portlashni qayd etish va hukumat hamda huquq-tartibot idoralari faoliyatini to'g'risidagi tuhmat – bo'htonlarni tarqatish uchun voqelar boshlanishini kutgan.

Xizmat sohalari ustav talablarini buzgan ba'zi militsiya xodimlari va harbiy xizmatchilarning zaifligi va mas'uliyatsizligi terrorchilarga ma'lum darajada qo'l kelgan. Oqibatda terrorchilar katta miqdorda o'qotar quroq-aslahalarni qo'lgan kiritgan.

O'zlariga ishonib topshirilgan ob'yektlarni qo'riqlash borasida xizmat vazifalarini bajarishga jinoyatkorona mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lgan hamda bosqinchilarning hujumiga yetarlicha qarshilik ko'rsatmagan 25 nafar ichki ishlar organlari mansabdor shaxslari va harbiy xizmatchiga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atib, tergov qilindi.

Terrorchilik harakatlari oqibatida jami 187 kishi halok bo'lgan, ulardan 60 nafari tinch aholi bo'lib, ularning ikkitasi voyaga yetmagan bola va bittasi ayoldir. Terrorchilar tomonidan 31 nafar huquqni muhofaza qilish organlari xodimi va harbiy xizmatchi o'ldirilgan. 287 kishi turli darajadagi tan jarohati olgan, ularning 91 nafari tinch fuqaro, 49 nafari huquqni muhofaza qilish organi xodimi va 59 nafari harbiy xizmatchi. Terrorchilarga qarshi ko'rilgan chora-tadbirlar davomida 94 ta terrorchi yo'q qilingan, 76 nafari yaralangan<sup>1</sup>.

Terrorchilik harakatlari davomida jinoyatchilar 70 kishini garovga olib, ulardan 15 nafarini vaxshiyona o'ldirgan. Terrorchilar tomonidan egallangan 344 dona o'qotar quroldan 255 tasi, shu jumladan 180 ta avtomat, 59 ta pistolet, 11 ta miltiq, 4 ta pulemyot, 1 ta granatamyot qaytarildi.

Bundan tashqari, terrorchilardan Qирғизистондан olib o'tilgan 16 dona o'qotar quroq ham olingan. Ularning orasida raqamlari o'chirilgan 7 ta Kalashnikov avtomati va 2 ta snayper miltig'i, AQSHda ishlab chiqarilgan AR – 15 yarim avtomatik miltiq bor.

Qamoqdan noqonuniy chiqarib yuborilgan 527 shaxsning 496 nafari qaytarildi, qolgan 25 kishiga nisbatan tezkor-qidiruv tadbirlari olib borilgan.

<sup>1</sup> "Xalq so'zi", 2005-yil 7 sentabr.

Oliy Majlis komissiyasi a'zolari hisobot yakuni bo'yicha bosh prokuratura tezkor-tergov guruhiga ko'plab savollar berdi.

Chunonchi sodir etilgan jinoyatlarda buzg'unchi kuchlarning ishtiroti Andijon shahrida teatr va kinoteatrga o't qo'yilishini uyushtirgan, boshqa jinoiy harakatlarni sodir etgan shaxslar hamda terrorchilik harakatlari tashqi kuchlar tomonidan moliyalashtirilganini isbotlovchi dalillar va bu mablag'larning sarflanishi, o'z xizmat vazifalariga nisbatan ko'rilgan choralar haqidagi va boshqa savollarga batafsil javob qaytarilgan.

### **TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:**

Islom qadriyatları, xavfsizlikni ta'minlash, dinni himoya qilish, huquqni muhofaza qilish organları, "Oydagi dog'lar", Islom davlati mohiyati, diniy tashkilotlar, qo'poruvchilar, xorijiy mamlakatlar, da'vatchilar, qurolyarog'lar, uyushgan jinoiy guruh, jangarilar, xunrezlik girdobi, noqonuniy xatti-harakat, "Xasti Mavlono" gumbazi, Qorapolvon qishlog'i, "Musulmonobod", terrorizm, terrorchilar.

### **MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasi mazmu ni nimadan iborat?
2. Ekstremistlarni tayyorlashda xorijiy mamlakatlarning roli.
3. Oliy Majlisning IX sessiyasida Namangan voqealariga berilgan baho?
4. Shayx Ibn Xattob kim edi?
5. Terrorchi Ibn Xattob kim edi?
6. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish qanday jazolanadi?
7. Andijon voqealarini kimlar uyushtirdi?

## **8-§. AMALIY MASHG'ULOT «DA'VAT» VA «JIHOD» NIMA?**

Reja:

1. Xalqimiz orasida da'vatchilarning ko'payishi. Aslida da'vatning nima maqsadda paydo bo'lganligi?
2. Islomda da'vat nimani anglatadi?
3. Jihod qachon paydo bo'ldi va uning mohiyati, hozirgi davrda nima maqsadda qo'llanilmoqda?

**Darsning turi:** Davra suhbat.

**Darsning maqsadi.** Talabalarga «da’vat» va «jihad»ning asosiy mazmunini, mohiyatini tushuntirish, aslida «da’vat» va «jihad»ning nima maqsadda paydo bo’lganligini ochib berish, voqealarni tushuntirish orqali talabalarning erkin va mustaqil fikrlashlariga erishish, shuningdek, noqonuniy xatti- harakatlarga qarshi ularda nafrat hissini tarbiyalash, ilmiy mushohada qilishni o’rgatish.

**Darsni jihozlash:** Kitoblar, kadoskop va multimediyadan foydalanish uchun yozma materiallar, bo’r, flamaster, marker va boshqalar. Sinf taxtasiga quyidagi so’zlar yozilgan plakat osib qo’yiladi: «..nafaqat jinoiy yo’lga adashib kirib qolganlarga, balki ularning qilmishidan xabardor bo’lgan odamlarga ham shuni aytmoqchimanki, hali ham kech emas, bunday odamlarni biz yomon yo’ldan qaytarishimiz kerak. Nega deganda, ular ham kimningdir bolasi, jigarbandi, ular ham o’zbek oilasidan chiqqan yigitlar. Biz buni hech qachon unutmasligimiz va xalqimizni jipslashtirish, farzandlarimizni asrash yo’lidagi bir da’vat, deb bilishimiz kerak».

Islom Karimov

O’qituvchi darsni boshqarib boradi, talabalarga oldindan tarqatma materiallar berib yuboriladi. Dars savol-javob tariqasida o’tadi. Darsda interfaol metodlar keng qo’llaniladi.

O’qituvchi bu darsni o’tish davomida turli xil yig’inlarda, «amri ma’ruf»larda din peshvolarining imonu e’tiqodga chorlovchi va’zları, shuningdek, masjidlarda Juma namozidan oldingi va’zları qanday ma’noda bo’lishligini tushuntiradi. Lekin bu va’zonlikning ba’zan g’alamislik niyatida vahhobiy oqimidagilar qo’liga tushib qolgani (ayniqsa, ko’p joylarda ular o’z aqidalarini tushuntirishga harakat qilgani) haqida so’z yuritiladi. Shu sababli talabalar «da’vat» va «jihad» aslida nima ekanligini tushunishlari zarur. Bu o’rinda o’qituvchi din tarixidan xabardor bo’lishi va «Adolat» gazetasining 1998-yil 6 fevralda bosilib chiqqan «Islomda da’vat» maqolasidan va boshqa diniy bilimlardan xabardor bo’lishi zarur.

**Savol:** «Da’vat» va «jihad»chilar qayerdan kirib kelmoqda? Uning mohiyati nima?

**Javob:** To’qsoninchi yillarda mustaqilligimizni, demokratiyani «har kim xohlagan ishini qiladi» tarzida tushungan ayrim kimsa-

lar kimlarningdir qutqusiga uchib, turli chet mamlakatlarga borib, jamiyatimiz uchun yot bo‘lgan g‘oyalar ta’siriga tushganlar.

Ularning maqsadi–tinch turmushimizga rahna solish, odamlar orasida qo‘rquv va norozilik tuyg‘ularini paydo qilish, «jihad» nomi bilan ko‘pchilikning halovatini buzib, insonlarning umriga zomin bo‘lish, qonini to‘kib, mol-mulkiga egalik qilishdir.

«Vahhobiylar» deb atalmish to‘daga mansub guruh tomonidan Namangan viloyatida qilingan vahshiyliklarni O‘zbekiston xalqi «zangori ekran» orqali ko‘rib, ma‘tbuat sahifalarida o‘qidi. «Vahhobiylar»ning kim ekanligi va maqsadi ayon bo‘ldi. Ularning nimaga intilayotgani, bu yo‘lda kimlarni, qay tarzda qurban qilayotganliklarini, ularning «daho-da’vatchi»lari bo‘lmish Akmal Haydarov, Hakimjon Solixonov, Qosimjon Hojiyev, Qodir Abdurahmonovlar ekran orqali xalqqa qarab o‘z tillari bilan aytdilar.

**Savol:** «Da’vat»chilar kimlar?

**Javob:** O‘scha davrda, «ayol da’vatchi», «o‘rus da’vatchi» atalmish qandaydir ayolning paranji yopinib, soatlab qiladigan da’vatlari ayrim sodda ayollarning boshini aylantirib, ularni uy-ro‘zg‘or yumushlari, bolalar va oila tashvishini yig‘ishtirib, ertadan-kechgacha biror joyda yig‘ilib «da’vat» etish, o‘tgan-ketgan mish-mishlarni tahlil qiluvchilarga aylantirib qo‘ydi.

**Savol:** Aslida o‘zi islomda da’vat nima? U respublikamizga qayerdan va qay tarzda kirib keldi? Endigina ozodlikka erishgan, erkini qo‘lga olgan xalqimiz uchun «da’vat» va «da’vat»chilar zarurmi?

**Javob:** «Adolat» gazetasi muxbiri Shahnozaxon Xudoyberdiyevaning savollariga O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasining rahbari, muftiy hazratlari Abdurashid qori Bahromov quyidagicha javob bergenlar: «Qur’oni Karim oyatlarida Alloh taolo da’vat o‘zi nima, mo‘min-musulmonlar da’vat ishlarini qanday holatda olib bormoqliklari kerakligini belgilab qo‘ygan. Tarixdan xabareringiz borkim, muqaddas islom dinimizdan ilgari johiliyat zamonida, elatlar, millatlar, qabilalar o‘rtasida nohaq qon to‘kish, zulm ishlari sodir bo‘lib turardi. Alloh subhona taolo Qur’oni Karim oyatlarida odamlarni ana shunday ishlarga barham bermoqligini bayon qilib, marhamat qiladiki. Allohning dinini, Allohning shariatini, Allohning kalomi – Qur’onni, Allohning ar-

konini mahkam ushlanglar, ya’ni turli qabilalarga, guruhlarga bo‘linib ketmanglar. Sizlar Allohning da’vatini, ya’ni imon, ixlos da’vatini yodlaringizga olinglar. Bu ulug’ da’vat sizlarga berilmasidan avval siz bir-biringiz bilan dushmanlikda, adovatda edingiz. Bu ulug’ imon da’vati tufayli bir-birovlaringizga qalblaringiz ulfat bo‘ldi, aka-uka, birodar bo‘ldilaringiz. Vaholanki, sizlar ana shunday nohaq qon to‘kish, zulm ishlari bilan bo‘lib, do‘zax otashida yonmog‘ingiz mumkin. Alloh sizga imon ne’matini, islam ne’matini marhamat qilib, ana shunday qattiq bir azobdan sizlarni qutqardi. Xuddi shuningdek, Alloh o‘z oyatlarida sizlarga bayon qiladiki, shoyadkim siz hidoyat yo‘lida bo‘lsalaringiz...»

Ushbu oyati Karimaning davomida da’vat qanday ekanligini Olloh taboraka bayon qilib qo‘ygan: «Sizlarning oralaringizda shunday bir ahli salohlar bo‘lsinlarkim, ular insoniyatni yaxshilikka chaqiradigan, ularga to‘g’ri yo‘l ko‘rsatadigan va man qilingan munkar, noplak yo‘llardan qaytaradigan xizmatkor da’vat qiladiganlar bo‘lsin. Ana shunday zotlar najot soluvchilardan bo‘ladilar», –deb Olloh taolo marhamat qiladi. Ya’ni da’vatda biron insoniyatni yaxshilikka chaqiradigan, xayrli ishlarga buyuradigan, noplak yo‘llardan qaytaradigan kishini da’vat ishlarini bajaruvchi, da’vatchi deyiladi. Ammo Pokistondan kelgan da’vatni, ya’ni islam dinini niqob qilib, da’vatni o‘zlariga vasiqa qilib olib, da’vat deb, insoniyatni noobod yo‘llarga chaqirib, insoniyatni terrorchilikka, qo‘poruvchilikka boshlovchilarni biz hech qachon da’vatchi, deb tan olmaymiz. Shu bilan birga bizlarning idoralarimizning ulamoi ikromlari, imom-xatiblari juma kunlari, mo‘min-musulmonlar yig‘inlarida va ularning xonadonlarida bo‘ladigan shaxsiy marosimlarda, alhamdulillo, sharyi da’vat ishlarini juda ham chiroqli holatda, Qur’oni Karimga va hadislarga muvofiq holda olib bormoqdalar. Biz chaqirilmagan «da’vatchi»larni masjidlarda da’vat ishlarini olib borishlariga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Bunga O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasi ulamolari tomonidan maxsus qarorlar ham chiqarilgan. Bu qarorlar jumhuriyatimizdagi barcha Jome masjidlariga tarqatilgan, ularning ulamoi ikromlariga ana shunday chaqirilmagan, chet mamlakatlardan, xorijdan kelgan yoki o‘zimizning oramizdan chiqib, jamoat yig‘ilgan joylarda da’vat ishlarini olib boruvchilarga yo‘l bermas-

ligi tushuntirilgan. Ayrim «da'vatchi» erkaklar ta'siriga ularning ayollari, yaqinlari ham kirib, go'yo ayollar orasida da'vat ishlarni olib bormoqlikni ixtiyor etganlar. Endilikda bilib-bilmay da'vat qilishlarga chek qo'yilganini barcha tushunishi zarur.

O'qituvchi bu so'zlarning to'la ma'nosini talabalarga tushuntirishi lozim.

**Savol:** Namoyish etilgan ko'rsatuvlarning birida aybdorlaridan biri «jihad» e'lon qilganliklari, «jihad paytida erkak--ayol farqlanmay qatl qilinishi» haqida gapirdi. Tinch aholiga nisbatan, hech qanday sababsiz jihad e'lon qilish mumkinmi? Bu haqda Qur'oni Karimda nimalar deyilgan?

**Javob:** «Qur'oni Karim oyatlarida-deydi muftiy hazratlari: «musulmonlar, mo'minlar toifalari, guruhlari o'tasida Biron-bir kelishmovchilik chiqsa, bir-biroviga nisbatan urush e'lon qiladigan bo'lsalar, ularni tezlik bilan ittifoqchilikka, murosaga keltirmoq lozim. Agar ikki toifadagi mo'min-musulmonlar bir-birlari bilan urushsalar, tezlik bilan ularning o'ttalarini isloh qilinglar» degan Alloh taolonining amri bor. Hozir tinchlik davrida, alhamdulilloh, endigina qizil imperianing beedad asoratlaridan qutulgan bu mustaqil jumhuriyatimizda hamda o'z yo'llini topib olib, tinch hayot kechirayotgan musulmonlarning ongini zaharlab, ularni jihoddek noto'g'ri yo'llarga boshlashlik-juda katta gunoh. Tinch aholiga nisbatan mana shunday ishlarni qo'llashlikni shariatimiz mutlaqo quvvatlamaydi, tan olmaydi. Sizni ishontirib aytamanki, bu man qilingan ishlardan. Alloh taolo Qur'ondagi oyatlarida siz bilan biz, ya'ni mo'min-musulmonlarga: «Ey, imon keltirgan ahli mo'minlar! Sizlarning barchalaringiz yoppasiga tinchlik harakatiga kirishinglar. Shaytonning yo'lliga ergash-manglar»,—deb amr qilgan va shu bilan birga ikkinchi oyati Karimada ham «Yaxshilik yo'llarida, taqvo yo'llarida bir-biringizga yordamshinglar, ko'maklashinglar. Ammo gunoh bo'ladijan, o'ttalariningizda bir adovat paydo qiladigan ishlarda aslo bir-birovingizga yordam ber manglar. Allohdan qo'rqinglar», deb da'vat qilingan.

Bir guruh vahhobiylikka mansub bo'lgan insonlar o'zlarini avval shariat ahkomlaridan yetarli xabardor bo'lmaganligi, shu bilan birga noplak yo'lga qadam qo'yganligi uchun o'zining atrofdagi mo'min-musulmonlarga nisbatan zarar yetkazib, ularni ham o'zlarini yurgan yo'lga boshlashga intilishlarini, albatta barcha

mo'min-musulmonlar qoralaydi. Hatto Qur'oni Karimda: «Dingga birovni zo'ravonlik bilan majburiy holatda kiritishga huquq yo'q» degan oyati Karima bor. Vahhobiy oqimiga mansub bo'lgan insonlarning mo'min-musulmonlar orasiga nifoq solib, tinchini buzayotganligini eshitib, biz, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi ulamolari va shu bilan birga O'zbekistondagi barcha mo'min-musulmonlar bundan nihoyatda afsuslandik. Ana shu razil holatda ish olib borayotganlarning jazosini Allohning o'zi bersin».

**Savol:** Jihodning asl mohiyati nima?

**Javob:** Aslida jihod, g'azavot (arab.—g'ayrat qilish, din uchun kurash) islomda g'ayridinlarga qarshi olib borilgan «muqaddas urush». Bir vaqtlar islomni yoyuvchilar tomonidan jangga qobiliyatli har bir musulmon «muqaddas urush»da ishtirok etishi shart, deb ko'rsatilar edi. Jihod harakatlaridan oldin «g'ayridinlar»ga islom diniga kirish taklif etdilar, agar g'ayridinlar bunga rozi bo'lsalar, ular ummat qatori sanalar va musulmonlarning barcha huquqlaridan foydalanan edilar, mabodo, bosh tortsalar, ular zimmiy hisoblanib, juzya to'lashga majbur etilardilar. O'z vaqtida, ya'ni islomni yoyishning oldingi davrlarida hukmron doiralar har bir musulmonga g'ayridinlar dunyosini kuch bilan istilo etishni buyuradi, bunday musulmonlar o'z hukmdorlari e'lon qilgan urushda, albatta, ishtirok etishlari kerak, degan diniy majburiyat kelib chiqadi. Jihoda o'lgan odam shahid hisoblanib, to'g'ridan to'g'ri jannatga tushar emish, o'ldirgan kishi g'oziy hisoblanib, har qanday gunohlardan xalos bo'lar, oxiratda rohat-farog'atda yashar emish. Jihod ilk islom davridan buyon reaksiyon rol o'ynab, talonchilik va bosqinchilikni diniy oqlash niqobi bo'lib kelgan. Islomning hozirgi zamon nazariyotchilari «jihod bosqinchilik urushi emas, balki mudofaa urushidir. Dinni tinch yo'l bilan targ'ib qilish usulidir», deb uni oqlashga urinmoqdalar, ba'zi musulmon mamlakatlarda xalq ommasining mustamlakachilarga qarshi kurashlari ham ayni hollarda jihod nomi bilan atalmoqda (masalan, XIX asr oxiridagi Sudan, XX asrning 1910–20-yillardagi Liviya, 1920-yildagi Iroq qo'zg'alonlari). Xorijiy Sharq mamlakatlarda hozirgi ijtimoiy-siyosiy va mustaqillik jarayonlari ham jihod ishlaridan ikki xil mazmunda: ba'zan rivojlangan G'arbga qaratilgan harakatlarda, ba'zan demokratik tuzumlarga qarshi reaksiyon qo'zg'alonlarda foydalaniilmoqda.

Vahhobiylar esa «jihod» shioridan mavjud demokratik tuzumga qarshi Islom davlatini tuzish uchun foydalanmoqdalar. Voqeanning bunday tus olishi nihoyatda xavfli bo'lib, vahhobiy liderlar takrorlaganidek, hatto ota-onasini ayamaslikka qaratilgandir.

“Azaldan turli terrorchi va radikal ekstremistik guruuhlar o'z qabih niyatlarini amalga oshirish uchun insonlarning diniy tuyg'ularidan foydalanib kelishgan. Bunda ko'plab odamlar ularning soxta shiorlari va aldonlari domiga tushib, qanday jinoyat ko'chasiga kirib qolgani va o'z imon-e'tiqodini qo'yayotganini, afsuski, juda kech anglaydilar. Lekin g'alamis kuchlarning tuban maqsadlarini anglaganlardan so'ng bunday holatlar asta-sekinlik bilan yo'qola boradi. Bu kabi holat Misrda ham kuzatilgan. O'z vaqtida balandparvoz “jihod” shiorlari ostida jamiyatga zulm va katta talafot yetkazib, begunoh kishilarning qonini to'kkalar endilikda achchiq pushaymon chekib, Alloh va o'z xalqi oldida tavbatazarru qilmoqda. Shu o'rinda bizning asosiy vazifamiz ana shu qora niyatli to'dalarning kirdikorlarini fosh etish va g'oyalaring soxta ekanini ochib berish bo'lib qolmoqda”<sup>1</sup> – deb yozadi misrlik siyosatshunos jurnalist Muhammad Saloma.

Hozirgi paytda xalq orasida turli diniy ekstremistik guruuhlar tomonidan targ'ib etilayotgan islom g'oyalari va fatvolarning sof va mo'tadil muslimonchilik ahkomlariga qarama-qarshi ekanini to'g'ri tushuntirish asosiy vazifalardan biridir. Birinchi navbatda turli radikal diniy guruuhlar xudbinlik bilan o'zlarining yovuz siyosiy niyatlarini amalga oshirish yo'lida “jihod” tushunchasi bilan o'yin qilayotganlariga alohida e'tibor berish lozim.

Bu kurashga nisbatan Qur'onda Muhammad (s.a.v)ning Makka va Madinada kechgan hayot faoliyatlarining muayyan shart-sharoitlardan kechib chiqqan holda turlicha ko'rsatmalar bor: 1) ko'p xudoliklar bilan mojaroga bormaslik va ularni oqillik va odob bilan haqiqiy dinga og'dirish; 2) islom dushmanlariga qarshi mудо-фаа urushi olib borish; 3) g'ayridinlarga hujum qilish, lekin muqaddas oylarda harbiy harakatlar olib bormaslik; 4) ular bilan har vaqt va hamma joyda kurash olib borish. Jihod so'zi lug'atda urush ma'nosini anglatmaydi, buning uchun arab tilida “qitol” so'zi ish-

<sup>1</sup>Toshkent oqshomi, 20 aprel 2004-yil.

latiladi. Jihod so‘zining lug‘atdagi xususiyatidan kelib chiqib jihodning turlari ham ko‘paygan. Islomda jihodning ma’nosida avvalo urush ma’nosida emas, Allohning diniga so‘z bilan da‘vat qilish ma’nosida yuzaga kelgan. Insonning havoyi nafsining ko‘yiga kirmaslik, uni yengib shariatga muvofiq yashash uchun jon-jahdi ila qilgan harakati, haq so‘zni joyini topib aytmoqligi jihodga kiradi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, “jihod” tushunchasi islom dinini kuch ishlatalish va qon to‘kish orqali targ‘ib etish emas, balki Vatanni dushmanidan ozod etish yoki ilm istagida talabalik qiyinchiliklarni bo‘yniga olish kabilarni o‘z ichiga oladi. Biroq ekstremistlar bu haqda imkon qadar sukut saqlashni afzal biladi. Mana shunga ko‘ra, sog‘lom fikrlovchi insonlarda “O‘zbekistonda yuqorida zikr etilgan “jihod” turining qaysi biri dolzarb?”, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Biron-bir davlatning mustamlakasi bo‘lmagan, diniy va dunyoviy ilm olish uchun barcha shart-sharoitlar to‘liq ta‘minlab qo‘yilgan bu ozod yurtga qarshi jihod qilish o‘zini 90 foizdan oshiq aholisi musulmonlardan iborat, yo‘lboshchisi hanif dinimiz ismini olgan, Makkai mukarramadagi Baytullohni ziyorat qilib, har kimga ham nasib qilmaydigan muqaddas Ka‘baning ichiga kirish sharafiga tuyassar bo‘lgan O‘zbekistonning mo‘min xalqiga qarshi qo‘yish demakdir.

### **“Shahidlik” tushunchasi**

Ayni paytda O‘zbekiston xalqi soxta “jihod” shiorlariga er-gashib, o‘zini o‘zi portlatish orqali yoki har qanday boshqa yo‘llar bilan musulmonlar va umuman begunoh kishilarning qonini to‘kish orqali “shahidlik” yoki “g‘oziylik”ni da‘vo qilayotganlarga bir ovozdan ular aslida vahshiy qotil ekanlarini ochiq aytmoqda.

Islom dinini o‘ziga niqob qilib olgan guruhlarning O‘zbekistonda amalga oshirayotgan qo‘poruvchilik faoliyatini musulmonchilikni targ‘ib etish yoki mustahkamlash yo‘lidagi kurash deb aytib bo‘lmaydi. Zero, bunday faoliyat Qur‘oni Karimdag‘i “Dinda majburlash yo‘q” oyatiga zid keladi. Shu o‘rinda bir begunoh musulmonni o‘ldirgan “shahid” yoki “g‘oziy” emas, balki jinoyatchi qotil, deb hisoblanib, oyati Karimada zikr etilganidek, barcha odamlarni o‘ldirganning gunohini olishini eslatish joiz.

G'alamis da'vatchilarning "biron bir kishi namoz o'qimagani yoki ro'za tutmagani sababli haqiqiy musulmon emas va shuning uchun jihod qurboni bo'lishi mumkin", degan safsatalariga qarshi shuni aytish kerakki, inson Allohning yagonaligiga shahodat keltirishi bilanoq musulmon hisoblanadi. Uning mo'minligini esa Yaratganning o'zi belgilaydi. Odamlarni kofirlikda ayblash yoki boshqalarining imon-e'tiqodini baholashga harakat qilishning o'zi Allohga shak keltirishga teng. Buning dalili sifatida "Alloh qalblardagini bilguvchidir" oyatini keltirishning o'zi kifoya.

"Shahidlar o'zining "shar'iy g'azabini" g'ayridinlarga qaratmoqda", degan soxta shiorlar ham hech qanday asosga ega emas. Shuni unutmaslik kerakki, islomda diniy bag'rikenglik va dinlararo totuvlik yuqori baholanib, musulmonlar bilan bir jamiyatda yashaydigan va ularga ozor bermaydigan boshqa din vakillarining qonini to'kish gunohi azim sanaladi.

### O'zini o'zi o'ladirgan shahid emas

Shahidlik so'zining mazmuniga aniq ta'rif berilar ekan, o'zini o'zi o'ladirish orqali terroristik aktlar sodir etish, haqiqatan ham, O'zbekiston jamiyatiga xos bo'lмаган, umuman yot illatdir. Lenkin shuni unutmaslik kerakki, Sharqda ham, G'arbda ham o'zini o'zi o'ladirishga tayyor "ijrochi"larni topish va ularni "shahid"larga aylantirish mumkin.

Bu kabi ruhiyati zaif shaxslarga "jannat huzur-halovatlari" yoki "musulmonchaadolat" shiorlari ostida kuchli ta'sir o'tkazish qiyin emas. Bunda moddiy rag'batlantirish haqida yolg'on va'dalar ham muhim o'rinn tutadi. Masalan, Falastinda "shahidlik" xaridorgir tovar bo'lib, o'zini o'zi o'ladirish orqali terroristik akt uyuştirishga rozi bo'lgan shaxslar katta pul (taxminan 20 ming AQSH dollarri) olish bilan birga o'z oilalarining moliyaviy ta'minlab qo'yilishiga kafolat oladilar. Shu o'rinda Falastindagi radikal guruuhlar balog'at yoshidagi yigitlarni jannatda ularga behisob huru g'ilmonlar berilishi haqidagi so'zlar bilan aldashini ham zikr etish mumkin.

Hech qanday dunyoviy qiyinchiliklar barcha dinlar tomonidan gunohi azim hisoblanadigan va dindan chiqish deb e'tirof etiladigan o'zini o'zi o'ladirishni oqlay olmaydi. Ekstremistlar esa

bu kabi shaxslarni islom va xalifa davlati barpo etish yo'lida qurbon bo'lish shahidlar darajasiga ko'taradi", deb aldab, ulardan o'z yovuz maqsadlarida foydalanishga urinadilar.

## **Ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy omillar**

"Jihod" va "shahid" amaliyotlari kabi salbiy clementlar iqtisodiy jihatdan yetuk, o'zlarini demokratik jarayonlarning mash'allari deb hisoblovchi davlatlarda ham uchraydi.

Zero, "jihod" g'oyalari nafaqat musulmon jamiyatni hisoblanmaydigan AQSH va Ispaniya davlatlarida, balki islom olamining umume'tirof etilgan markazlari hisoblangan Saudiya Arabistonni yoki Misrda ham o'z tarafdarlarini topayotganini tashvish bilan qayd etish lozim. 1990-yillar o'rtalarida Bahraynda Eron modeli bo'yicha islom inqilobini amalga oshirish harakati "jihod" va "shahidlik" ostida iqtisodiy va ijtimoiy uqubatlar yotadi, degan mulohazalarni naqadar zaifligini ko'rsatdi.

Shuni unutmaslik lozimki, soxta "jihod" va "shahid" – terror hamda zulm o'tkazish orqali o'z siyosiy maqsadlariga erishishga intilgan siyosiy kuchlarning eng razil uslublari hisoblanadi. Bu kabi taktikani tanlagan buzg'unchi elementlar orqaga chekinishi, xalq kechirimiga sazovor bo'lishga yo'l yo'qligini yaxshi tushunishadi.

## **Islom xalifaligi**

Islom xalifaligi tushunchasining tom ma'nosi va mohiyatini tushunmagan holda unga ko'r-ko'rона intilish o'ta xavfli tendensiadir. E'tiborli tomoni shundaki, islom ahkomlari bo'yicha yashovchi Eron va Pokiston yoki arab mamlakatlari yagona xalifalikka birlashmasdan o'zlarini mustaqil davlat deb e'lon qilishgan.

Nega unda xalifalik qurish g'oyasi O'zbekiston yoki O'rta Osiyoning boshqa respublikalariga singdirilmoqda va bu halifa davlatida kim xalifa bo'ladi? Buning javobi oddiy. O'z davlati siyosiy hayotidan chetlashtirilgan va xalqning nafratiga duchor bo'lgan turli radikal guruhlar vayronaga aylangan Afg'onistonidagi panoh topdi hamda o'sha yerdan turib terror, jaholat urug'ini sochish

orqali o'zlarining nosog'lom intilishlarini qondirishga urinmoqda. Xalifalik qurishga intilar ekan, ular mutlaqo islomni targ'ib qilish emas, balki o'z tuban siyosiy maqsadlariga erishishni ko'zlamoqda. Buning oqibatida jamiyatda Qur'oni Karimning "Firqalarga bo'linmanglar" talabiga zid ravishda firqalarga bo'linish, parchalanish va birodarkushlikni keltirib chiqarmoqda.

Ekstremistlarning xalifalik qurish yo'lida jihodga chorlashlariga ko'r-ko'rona ergashganlar o'z oldilariga oddiy bir savolni qo'ymayapti. Bu ajralganlar to'dasiga butun musulmon ummati nomidan bunday siyosiy chaqiriqlarni o'rtaga tashlashga kim huquq berdi?

Agar O'zbekiston misolida uni talqin qiladigan bo'lsak, har qanday yo'l bilan o'z nafsin qondirishga urinayotgan bir guruh lo'ttibozlar emas, balki 30 millionlik mamlakat aholisining amri vojibligidan kelib chiqish kerak. Bu xalq o'z xohish-irodasini mamlakat rahbari va xalq nomzodlari saylovlariда yaqqol namoyish etgan va bugunga kelib, o'zi oliv vakolatni bergen shaxslardan O'zbekiston xalqining tinchligi va totuvligini ta'minlab berishni talab qilishga haqqi bor.

## **9-§. AMALIY MASHG'ULOT** **Vahhobiylilikning xotin-qizlar o'rtasida yoyilishi va hanafiy an'analariga zid harakatlari**

**Darsning maqsadi:** O'tgan yillarda Xotin-qizlar o'rtasida kiyinoshni o'zgartirish yoki «xijobga kirish» ning va «otinoyilar maktab»larining qanday oqibatlarga olib kelganligini talabalariga tushuntirish, shuning uchun ularni milliy an'analarimizga, qadriyatlarimizga hurmat hissini tarbiyalash, voqealarga ilmiy nuqtai- nazardan qarab mustaqil fikr yuritishga tayyorlash.

**Darsga oid jihozlar:** Plakatlar, markerlar, kerakli adabiyotlar, foto suratlar.

### **Darsning blok chizmasi:**

1. Tashkiliy daqiqa.
2. Guruhlarda ishlash.
3. Bahs-munozara.
4. Badiiy chiqishlar.

Noan'anaviy amaliy mashg'ulot «Aqliy hujum» bilan boshlanadi. Chunki hozirgi yoshlari, ayniqsa talabalar vahhobiylilik, kiyinish haqida ma'lum darajada bilimga egalar. Ayniqsa kiyinish masalasida o'z qarashlari bor. Ushbu bilimlarni mustahkamlash uchun oldingi mashg'ulotlar bo'yicha 3-4 savol beriladi. Ularga javob olingach, aqliy hujum to'xtatiladi va bugungi mavzu yuzasidan bahs-munozara o'tkazilishi hamda har bir talabaning bu masala yuzasidan mustaqil fikr bildirishini so'raydi. Shu maqsadda talabalar 4-5 guruhg'a bo'linadilar. Har bir guruh stoliga bahs-mavzusi yozilgan kartochkalar qo'yiladi. (Har bir o'quvchi mavzuni o'zi tanlashi ham mumkin).

O'qituvchi bu mavzuni talabalarga tushuntirar ekan, kundalik hayotida o'z fakultetida yoki o'z maktabida, sinfida kiyinishni o'zgartirgan yoki «hijobga kirgan» qizlarimizni misol keltirishi va ularga maxsus kiyinish – o'z diniy oqimini tashviqot qilish ekanligini, diniy oqimni tashviqot qilish amaldagi qonunga zid ekanligini tushuntirmog'i lozim. Bu mavzuni o'tishda o'qituvchi «Adolat» gazetasining 1998-yil 6 fevralida e'lon qilingan «Islomda da'vat», «Hurriyat» gazetasining 1998-yil 4 martida e'lon qilingan «Eng yaxshi libos» maqolalari, shuningdek, G. Hotamov, Sh. Hamroyevlarning «Xalq so'zi» gazetasida bosilgan «Bir bolaga yetti mahalla ota-onasi» (1998-yil 15, 16, 17 aprel), Sultonmurod Olimning «Hijob» («O'zbekiston ovozi», 1998-yil 14, 16 may) maqolalari bilan tanish bo'lishi lozim.

Chunki bugungi kunda jamoat transportlarida, olyi va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, o'rta umumta'lim maktablarida hijobga kirgan, yuzlarini ko'zigacha berkitib yurgan yosh-yosh qizlarimizni ko'rishimiz mumkin.

**1-savol: Xotin-qizlar o'rtasida kiyinishni o'zgartirish yoki «hijobga kirish» orqali vahhobiylikning tashviqot qilinishi qanday yuz bermoqda?**

**1 - guruh talabalarining javoblari:**

**1-talaba:** Ayniqsa, yozning jazirama issig'ida qop-qora kiyimga burkanib olgan, rangi siniqqan qizlarni ko'rib beixтиyor o'yga tolasan. Bizning issiq iqlimda yozda qora kiyim ikki barobar issiqni o'ziga chaqirish deganidir. Shusiz ham nafas olish og'irlashib turgan havoda shunday kiyim kiyganlarning ota-onalari qizlarining sog'liqlarini o'ylashmayaptimikin? Bu sohada sog'liqni

saqlash muassasalari xodimlari ham o‘z fikrlarini aytishlari kerak. Undan tashqari, qora kiyimlarga burkanib olish ko‘pincha azador kishilarga xos ekanligi hech kimga sir emas-ku!

**2-talaba:** Aslida, kiyinish bilan haqiqiy musulmonlik belgilanmaydi. Respublikamiz Prezidenti Oliy Majlisning XI sessiyasida ta’kidlaganidek: «**Bu ishlar din niqobi ostida, men kimman – men vahhobiyman, men haqiqiy musulmonman, degan kibrli aqida bilan qilinadi.** Kim haqiqiy musulmon, kim soxta musulmon ekanini yolg‘iz Olloh taoll biladi. Oxiratda so‘roq-javob paytida hammamizga Yaratganning o‘zi bahosini beradi. **Bu dunyoda birovni chala musulmon, o‘zini haqiqiy musulmon deyishga hech bir bandanening haqqi yo‘q. Buni islomdan xabar-dor odamlar, diniy idoralarning rahbarlari yaxshi biladilar».**

**3-talaba:** Vahhobiylar esa o‘z g‘oyalarini amalga oshirishlari uchun aholining turli xil tabaqalari bilan ularga mos bo‘lgan uslubda ish olib bormoqdalar. Shular orasida ularning qopqoniga soddallik bilan tez tushuvchi guruuh bu-yosh juvonlar, qizlardir. Yosh xotin-qizlar psixologiyasidan ayonki, bular his-hayajon ila tez ishonuvchan, tez ta’sirlanuvchan ijtimoiy guruhdir. Mana shu omil vahhobiylarga juda qo‘l kelmoqda. Ular birinchi o‘rinda yoshlarga, jumladan, xotin-qizlarga his-hiyajonli ta’siri kuchli bo‘lgan tashqi shakl omilidan keng foydalanmoqdalar. Bu - hijobdir. Hijobdagи qizlarning o‘zlarini tutishi, muomala uslublari, o‘g‘il bolalarning o‘ziga xos kiyinishi, tashqi qiyofasi va hokazolardir.

**4-talaba:** Yoshlarda mazkur o‘ziga xoslik, albatta, qiziqish uyg‘otadi. Shu asosda ular hijobga kirganlar, ular albatta, o‘ziga mustaqil, o‘ziga o‘zi javob beruvchi va har qanday vositachisiz to‘g‘ridan to‘g‘ri ilohiy olam bilan muloqotga kiruvchi sifatida tanilguvchi bo‘lib ko‘ringisi keladi. Xuddi shu tamoyil vahhobiylar muallimlarining tarbiya uslublaridan biri sifatida universallikka ko‘tariladi. Xuddi shu ko‘p qirralik asosida o‘z g‘oyalarini mo’tadil musulmonlarga qarshi qo‘yadilar. Masalan, bir suhbатdoshimiz aytgani singari, 15–16 yoshlardagi qizlarni o‘ziga jalb etgan vahhobiylar mакtabining muallimasi o‘z tarbiyalanuvchilariga «Siz-lar ota-onalaringizdan Qur’онни o‘qish, umi mutolaa qilishni talab qilingizlar, agar ular sizlarning takliflaringizni rad etsalar, ularni ishontirishga, do‘zax azoblari bilan qo‘rqtishga harakat qilinglar.

Ota-onalaringiz sizlarning fikr va harakatlaringizga astoydillik bilan qarshilik ko'rsatsalar, sizlar o'z intilish va da'vatlaringizdan qaytmangizlar. Agar oxir-oqibat padari buzruk voringiz va onaizo-ringiz sizning bu xohishingizni amalgalashishni xohlamasalar, ulardan yuz o'giringiz, shunda albatta, jannati bo'lasizlar» deb uqtirgan. Xo'sh, ayting-chi, demokratik jamiyatda yashayotgan, vijdon erkinligi adolat mezoniga darajasiga ko'tarilgan mamlakatda farzand o'zining ota-onasiga «Mening e'tiqodimni qabul qilishingiz shart, bo'lmasa yo hayot, yo o'lim» deb turishligi nima ko'rgilik! Shu ham adolatdanmi?

**5-talaba:** O'sha davrda Toshkent viloyati Bo'ka tumanida o'qituvchi Usmonjon Jo'rayev o'z qishlog'ida ro'y bergan voqeani so'zlab berdi. Qishloqda ikkita qizi Pedagogika institutidagi o'qishini tashlab, vahhobiylar mакtabiga o'qishga qatnagan va ular o'rta mакtab o'quvchilaridan yigirmadan ortiq kelishgan, chirolyi qizlarni tanlab, hijobga kiritib, mакtab ochib «da'vatchilar» tayyorlashga topshiriq olgan. Usmonjonning ukasining qizi ham ota-onasining qarshiligidagi qaramay, bu mакtabga bormoqchi bo'lgan. O'qituvchilarning uzoq tushuntirishidan keyin bu qizlarni ahdlaridan qaytarishga muvaffaq bo'lingan. Ikkiti «da'vatchi» qiz esa ham instituttan, ham vahhobiylar mакtabidan ajralib hozir uyda o'tirib qolgan.

## **2-savol: Bundan ko'zlangan maqsad nima?**

### **2-guruh talabalarining javoblari:**

**1-talaba:** Bu narsa nihoyatda nozik masala bo'lib, bir vaqt-lar AQSH o'zining Vietnamdagagi soldatlariga «xizmat qiladigan» qizlarni yuborganligini eslatadi. Vahhobiylar ham yosh-yosh qizlarni o'z ta'sirlariga olib Tojikistondagi, Afg'oniston va Pokistondagi lagerlarida tayyorgarlik ko'rayotgan jangarilarga «xizmat qilish» uchun yubormaydi, deb kim kafolat bera oladi.

**2-talaba:** «Hurriyat» gazetasining 1998-yil 4 mart sonida bosilib chiqqan Hamro Bonu Musurmonovaning «Eng yaxshi libos» maqolasida shunday deyiladi: «Ayrim qizlarimizning qop-qora kiyimga burkanib yurishlariga esa, hatto ko'pni ko'rgan keksa onaxonlarimiz ham ko'nika olishmayapti. Shuni hisobga olgan holda, qizlarimiz xalqinizni ko'ngliga yaqin ranglardan libos tanlasalar yaxshi bo'lar edi. Roviyarning aytishiga qaragan-

da, payg‘ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallamning o‘zlar ham moviy va yashil ranglarni xush ko‘rgan ekanlar. U zoti muborakning «Dinni odamlarga chiroyli ko‘rsating» degan so‘zlaridan hali-hanuz hikmat nuri yog‘ilib turibdi».

**3-talaba:** Ushbu masalalar yuzasidan juda ko‘pchilik bilan suhbatlashdim. Islomiy ilmlarning anchayin bilimdoni bo‘lgan muslima ayollarning, endigina yuziga hijob tortgan qizchalarining fikrlarini o‘rgandim. Shunda yana bir bor amin bo‘ldimki, odam diniy va dunyoviy bilimlarni qancha ko‘p bilgani sayin ezgulikka yaqinlashib borar ekan. Bunday odam dunyoga, borliqqa bir yoqlama, johilona nazar solmaydi, har bir narsaga teran mushohada bilan yondashadi. Negaki, endi u turli oqimlarning diniy qarashlarini tan olmaydi. Allohning muborak kalomi Qur’oni Karim va payg‘ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallamning hayotiy ko‘rsatmalari – Hadisi sharif ilmlariga tayanadi.

Mana shunday muslima ayollardan biri bilan suhbatlashganimda, balog‘at yoshiga yaqinlashgan qizining hali ro‘molsiz yurishi haqida gapirib qoldi. Sababini so‘radim «U hali yosh. Hozir o‘zi Qur’oni Karimni o‘qiyapti. Keljakda vrach bo‘lish orzusi bor. Tibbiy fanlarni yoqtiradi. Hozircha bilim olsin, mushohada qilsin. Balog‘atga yetguncha qanday kiyinishni o‘zi hal qilib olar. Men uni hijobda yurgin deb majburlamayman, Islomda tazyiq o‘tkazish yo‘q, menimcha», –dedi u.

**4-talaba:** Bugun endigina yoshiga yetgan qizchasiga ro‘mollar o‘ratib qo‘yayotgan opalarimiz (meni kechirsinlar) sira yuqoridaqday mushohada yuritganmikanlar? Go‘dak qizgina nima uchun hijobda yurish farz qilingani haqida tushunchaga egamikan? Afsuski, kuzatishlarim oqibatida ko‘pchilik «hijob farz qilingan» degan so‘zlardan nariga o‘tisholmaydi. Ayrimplari hatto hijob haqidagi oyatlar qaysi suralarda nozil qilinganini ham aytib berisholmaydi.

Qizlarimiz chiroyli kiyinislari bilan birga bilimli, mulohazали va tarbiyalı bo‘lishi lozim. Keyingi paytda qizlarining islomiy tarbiya olishini xohlaydigan ota-onalar ko‘pchilikni tashkil qilayapti. Bu xayrli albatta. Aslida, sharqona tarbiyaning asosini islomiy madaniyat tashkil etadi.

**5-talaba:** Bugun diniy tarbiya olayotgan qizlarimizning ayrimlari esa onasiga, xolalariga shunday muomala qilishyaptiki,

uning Islom ilmini o'rganayotganiga ham ishonging kelmay qoldadi.

— Opajon, hijobda yurmasangiz do'zaxiy bo'lasiz..

Axir bu nima degan gap. Qizning so'zlarini go'zal islomiylar loqqa zid emasmi? Onasiga yaxshilik istagan odam chirolyi uslubda islomiylar ahkomlardan so'zlab bermaydimi? Qur'oni Karimni baholi qudrat tushuntirishga intilmaydimi? Hatto payg' ambarimizning o'zlarini ham yaqinlariga, «oxiratda sizlarni nima kutayotganini bilmayman, shuning uchun Allohg'a tavakkal qiling, faqat undangina qo'rqing, uning muruvvatidan umidvor bo'ling», deganlari haqidagi hadis ko'pchilikka ma'lum-ku. Onasiga tanbeh bermoqchi bo'lgan qizgina, avval o'zi chuqurroq bilim olishga intilsa bo'lmaydimi?

**3-savol: Qishloqlarda, mahallalarda tashkil qilingan «otinoyilar maktabi» ning ahvoli va ulardag'i bir tomonlama qarashlar nimalardan iborat?**

**3-guruh talabalarining javoblari:**

**1-talaba:** Islom dini ezungulikka, yaxshilikka da'vat. Ammo uni niqob qilib, odamlarga turli johilona oqimlarning qarashlarini singdirmoqchi bo'layotganlar ham yo'q emas. Odamlarimiz esa oliv o'quv yurtini tamomlagan o'qituvchining gaplariga shubha qilishi mumkin, ammo arab alifbosidan jinday saboq olgan, salgina islomiylar ahkomlarni o'rganganlarga ishonishadi. Ayniqsa, bu holat qishloqlarda yaqqolroq ko'rindi. Din darsini berayotgan otinoyi va ustozlarning bariga bugun o'g'il-qizlarimizning tarbiyasini ishonsa bo'ladi? Ularning qarashlarida nuqsonlar yo'qmi. Qur'oni Karim ilmini to'g'ri tushuntira olyaptilarmi?

**2-talaba:** Yaqinda qishloqqa borganimda qo'shni ayollardan biri qaynonamga yozg'irib qoldi, — deb yozadi. Hamro Bonu Musurnonova—otinoyilarning bari turli-tuman gapirishadi. Ularning qaybiriga ishoningning ham bilmaysan. Avvallari otinlarning gapso'zlarini bir-birini to'ldirardi. Endi esa ikkita otin bir davrada o'tirsaga, gap talashib qolishadi. Ularning qaysi biri haq ekanini bilolmay qolasan. Shunda qaynonam «Ollohg'a tavakkal qiling» deb maslahat berdilar: Mana shu kabi hali o'z iymonida sobit bo'limgan otinoyilar endigina dunyoqarashi shakllanib kelayotgan qizlar ongini bir yoqlama qarashlar bilan cheklab qo'ymadimi? Bugun biz qizlar-

ning hijobda yurishi yoki zamonaviy kiyinishini muhokama qilishdan avval shu narsalar haqida o'ylab ko'rishimiz kerak. Bu yurtimizdag'i har bir xonadonga tegishli masala. Agar oilada farzand dunyoviy ilmlar bilan birga islomiy axloq doirasida tarbiyalansa, jamiyatga foydali yetuk inson bo'lib o'sadi. Bunga ustoz tanlashda yanglishmaslik uchun esa ota-onalarning o'zi ozmi-ko'pmi Qur'oni Karim ilmidan xabardor bo'lishi kerak. Afsuski, hali bu muborak kalomni o'qib mushohada qiladigan ayollarimiz u qadar ko'p emas.

**3-talaba:** Agar otinoyilar har jihatdan bilimli bo'lsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Shuning uchun ham masjidlarning imom-xatiblarini ma'lum vaqtarda attestatsiyadan o'tkazilayotganday, joylardagi xotin-qizlar qo'mitalari va mahalla faollari diniy idoralar ulamolari bilan kengashib otinoyilarning bilim darajalarini ham sinovdan o'tkazsalar, foydadan holi bo'lmasdi.

O'g'il-qizlarimiz yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan shaxslar bo'lib ulg'ayishi kerak. Ularning ongida johilona bir yoqlamalik shakllanib qolsa, avlodlarigacha ta'sir o'tkazishi mumkin. Ehtimol, keyingi paytlarda hijobli qizlar haqidagi yaxshi-yomon so'zlarning kelib chiqishiga ham mana shunday tarbiya sabab bo'layotgandir.

**4-talaba:** Yurtimizda har bir shaxs kiyinish erkinligiga ega. Ammo yuziga hijob tortayotgan qizlarimiz, bu narsa boshga bir ro'molni yopinish bilangina o'lchanmasligini yaxshi bilishlari kerak. O'rtada iymon va go'zal islomiy madaniyat turibdi. Odamlarga yaxshi ko'rinish uchun yoki kimadir havas qilib, yoinki har turli yomonliklarni ko'zlab kiyib bo'lmaydi uni. Zero, «eng yaxshi libos taqvo libosidir» (Qur'oni Karimdan).

«Xalq so'zi» gazetasining 1998-yil 5 mart sonida bosilgan G'. Hotamov, S. O'nar, Sh. Hamroyevlarning «Ko'ngildagi buzilish» maqolasidagi quyidagi fikrlar ham vahhobiylit yosh qizlarimiz ongiga qanday fojiali ta'sir ko'rsatayotganligini ochib yaxshi misol bo'ladi. Mualliflar yozadi: «Yaqinda bir birodarimiz universitetda o'qib yurgan singlisi kuydirib yuborganligidan zorlanib qoldi: «Avvaliga hijobga kirdi, namozlarni kanda qilmay o'qiy boshladi, ro'zani to'kis tutdi, so'ng yuzini butunlay berkitdiki, hatto ko'zi zo'rg'a ko'rindiki, yana hijobi qop-qora deng, bundan boshqa charoq rang tanlasang bo'lmaydimi desam, qulqoq solmaydi. Nima

emish, kamina – namoz o'qimaydigan odam – g'irt kofir emishman, shu bois aytgan gaplarimning birontasiniyam bajarmaslikka haqqi bor emish. Shunaqa odad chiqardiki, na non, na ovqat yeydi. Yangasiga aytibdiki, mabodo shu taomga harom aralashgan bo'lsa, sizlar qatori do'zaxga tushaman, yaxshisi, yemay qo'ya qolay!

Sizlar bilan bir dasturxon atrofida o'tirishning o'zi gunoh, debdi u. Juda alam qildi. Tug'ishgan singling sendan hazar qilsa, yovga qaraganday qarasa, nima degan gap o'zi bu?

Bir kuni uyg'a kelibdi-da, otinoyim meni Turkiyaga, madrasaga o'qishga yubormoqchi, debdi yangasiga. O'sha madrasada besh yil tashqariga chiqarmay diniy saboq berilar emish. Buning uchun otinoyisinkida yarim yilgacha xizmat qilishi, demak, sadoqati zohir bo'lishi kerak, shundagina u o'z mablag'i hisobidan o'qishga yuborar ekan.

Shu gaplardan keyin u birato'la uyga kelmay qo'ydi. Yangasiga «yaqinda hujraga kiramiz, shundan oldin fursat bo'lsa qishloqqa borib kelaman» – debdi.

Bu gapni eshitib, picha ko'nglim yorishdi. Onamning mazasi yo'q, bir-ikki kun oldida yursa, aqli kiradi, dunyoviy ishlarga moyillik sezsa ham ajab emas, deb o'yladim. Har qalay, otinoyi-otinoyi, oq yuvib, oq taragan onasi emas-ku! Onaning mehri bo'lakcha bo'ladi.

Ammo ko'p o'tmay otam telefon qildi. Onang og'irlashib qoldi, singlingni olib tezda yetib kel, dedilar. Garang bo'lib qoldim. Nimasini aytay? Avvaliga singlimni axtarishga tushdim, qani endi topila qolsa!

Umidim uzilgach, yarim kechada qishloqqa jo'nadim. Onamning ahvoli og'ir ekan, to'shakda qimir etmay yotibdi. Meni zo'rg'a tanidi, singlimni so'radi. Nima deyarimni bilmayman. To'g'risini aytsa, o'lganning ustiga tepgan bo'ladi.

Axiyri, o'qishi tugashi bilan kelib qoladi, dedim. Onamning il-haq bo'layotganini ko'rib, otam yana meni izimga qaytardi.

Dardu dunyom qorong'u desangiz. Singlimni kimdan so'rab-surishtirishni, qayerdan borib axtarishni bilmayman, xayolimga har xil o'ylar keladi, qiz bola narsam...

Nihoyat, bir kuni singlimning o'zi yangasiga telefon qilibdi, hozir hujradan chiqmay saboq olayapmiz, debdi. Yangasi, onangiz

og‘ir, yo‘lingizga ko‘z tikib yotibdi, sizni axtarib akangizning qancha ovora bo‘lganini bilsangiz edi, desa u aytgan emish:

– Men Xudo yo‘liga kirgan odamman, hujrani tashlab hech qayoqqa ketmayman!

Shundan buyon u na telefon qiladi, na o‘zi ko‘rinish beradi. U yoqda onam shu qiziga ilinib, ilhaq yotibdi. Toza kuyib ketdim. O‘zimdan o‘tganini o‘zim bilaman. Ammo islom deganda men qandaydir harbiy tartib-intizom, bunday toshmehrlikni tushunmayman. Otinoyisining chizgan chizig‘idan chiqmasa-yu, ammo tug‘ishgan akasi, ilhaq bo‘lib yotgan validai muhtaramasidan yuz o‘girsa. Yashash manzilini aytmasa. Tushuna olmayman, qanday gap o‘zi bu? O‘scha otinoyisining o‘zi kim? Diniy savodi yetarlimi? Qanday ta’lim olayapti ular? Nega buncha aqidaparast bo‘lib ketishmoqda? Yoshlarni bunday yo‘lga boshlashdan maqsad nima? Agar, rostini aytadigan bo‘lsam, shu otinoyini shu qizlarga Xudo yo‘lida saboq berayotganiga ham ishonmayman. Umuman, kim unga bunday huquq bergen?

Singlimga o‘xshagan yoshlar turli xil ta’sirlarga tushib qolishini, ularning ma’naviyatiga ziyon yetishini sira-sira istamayman».

**5-talaba:** Darvoqe, nega endi birodarimizning singlisi Turkiyaga borib, madrasada saboq olishi kerak? Turkiya mudofaa qo‘shinlari yuksak martabali rahbarlaridan birining «Nbyus upk» gazetasida yozishicha, hozir islom reaksiyon kuchlari mamlakatda kurd partizanlariga nisbatan keskinroq ekstremistik harakat qilishayotir. Shuning uchun ham yaqinda islom aqidaparastlarini cheklash va madrasalar ustidan nazorat o‘rnatish hukumat tomonidan ko‘rib chiqildi.

Alloh taologa ibodatdan keyingi eng zarur amal ota-onan rozilagini olishdir. Qur’oni Karimda ham «Alloh taologa ibodat qilish» deyilgan oyatning davomida «Ota-onangizga yaxshilik qiling» deb marhamat qilingan. Payg‘ambar alayhissalomning hadislariда «Allohnning roziligi ota-onaning roziligidir» degan muborak so‘zlar bitilgan. Nahotki, qiz bolani qandaydir noma'lum hujrada o‘qitishga shunchalik ahamiyat bergen otinoyi mazkuryat va hadislardan bexabar bo‘lsa?

#### **4-savol: Vahhobiylirkning hanafiy an'analariga qarshi kurashi qanday kechmoqda?**

#### **4-guruh talabalarining javoblari:**

**1-talaba:** Islomdag'i eng yirik mazhab – Hanafiyda din amallari oson ko'rsatilgan. Milliy urf-odatlar rad etilmaydi. Misol uchun Navro'z bayrami o'tkazish, do'ppi, atlas kiyim kiyish, salsa o'rash yoki o'ramaslik masalalarida babs yuritilmaydi.

Qabrlarni ziyorat qilish marhumlar ruhiga duo qilish savob hisoblanadi. Ixtilof qilishga yo'l qo'yilmay barcha masalalar keli-shuv yo'li – ijmo, fatvo orqali hal qilinadi.

Shu sababli xalqimizda ota bobolarimiz qabriga sag'analar qurib, ularni ziyorat qilib xotiralarini e'zozlash farzandlar uchun burch hisoblanadi. Amir Temur, At-Termizi, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi o'nlab bobokalonlarimizga qo'yilgan yodgorliklar fikrimizning dalilidir. Lekin ayrim joylarda vahho-biylar oqimidagi dindorlar tomonidan qabrtoshlarni buzib tashlash hollari ro'y bermoqda va ular tomonidan bu ulug' zotlarning ziyo-ratgohlariga borganlar kofir deb e'lon qilinmoqda. Shu to'g'rimi? Bu haqda Islomda nima deyiladi?

**2-talaba:** Bu o'rinda «Adolat» gazetasi xodimi Sh. Xudoy-berdiyevaning o'sha davrda O'zbekiston musulmonlari diniy idora-si rahbari, muftiy Abdurashid qori Bahromov bilan qilgan suhbatidan quyidagilarni keltirishimiz maqsadga muvofiqdir. Abdurashid qori deydi: «Ma'lumki, Vatanimizda ham, chet mamlakatlari-da ham qadimdan ulug' zotlarning qabrlariga maqbara qilingan-ki, vaqtı-vaqtı bilan ularni eslab – xotirlab turmog'imiz uchun. Janob Payg'ambarimizning «Ey ummatlarim! Olamdan o'tib ketgan yaqinlaringizni bu dunyoda qilib ketgan yaxshi, xayrli amal-larini yodlaringizga, xotirlaringizga olib turinglar, degan muborak amrlari bor. O'tganlarni eslamoqlik uchun ana shunday qabrtosh-lari qo'yilgan. Hozirda ham mo'min-musulmonlarimizning otanonlari, yaqinlari olamdan o'tganda, qabristonlarga kichkina bir qabrtosh qo'yadilar. Ya'ni vaqtı-vaqtı bilan qabristonlarni toza-lab, pokiza qilib, gul ko'chatlari ekib, shu bilan birga vafot et-gan yaqinlarini xotiralariga oladilar. Bizlarning shariati Islomda haqiqatdan bu man qilinmagan. Lekin Islomning avvalidan bizga ma'lumki, odamlar hali dinsiz, islomdan bexabar bo'lganliklari tufayli qabrlarga borib, qabrtoshlarga sig'inib, ulardan madad so'ranganlari uchun bu ishlar man qilingan edi. Alloh taolo muqad-das Islom ta'limotini mo'min-musulmonlar qo'llaridan kelganlari-

cha egallaganlaridan so'ng, ular qabrtoshlarni ularga sig'inish uchun emas, shu yerga dafn etilgan yaqinlarining xotirasiga qo'yganlar. Madadni esa faqat Alloh taolodan so'rab, ungagina iltijo qiladilar».

**3-talaba:** Avvaldan Islom dinimizda bu narsa doimo uchragan. Ammo vahhobiylar g'oyasiga berilgan bir guruhi yoshlari Andijon viloyati Xo'jaobod tumanida avliyolar va mozorlarga sig'inishga qarshi kurash bahonasi bilan «Mehmon Vali» qabristonida qabrtoshlarni buzib ketishgan. Ma'lum bo'lishicha, bu ishni Andijon tumani Kartum qishlog'ida yashaydigan S. Qodirov, A. Haydarov va A. Egamberdiyevlar qilganlar va ular shu nom'aqlulchilikni «ma'qul va savob ish» deb hisoblashar ekan.

– Muftiy xazratlari «vahhobiylar» ning qutqusi bilan ayrim joylarda «qazo qilganlarning ruhiga fotiha darkor emas», deya fotihaga kelganlarni qaytarib yuborish hollari ham uchravotgan ekan. Siz bunday holatga qanday qaraysiz? Degan savolga muftiy hazratlari shunday javob beradi:

– Mo'min-musulmonlarimizning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatlari juda yuksak. Xususan, mustaqil Jumhuriyatimizda istiqomat qilayotgan musulmonlar qadimdan bir-biriga oqibatli. Ular azaldan biror yaqinlari vafot etganda bir-birlariga ta'ziya bildirib, ko'ngil so'rab, qadimiy urf-odatlarimiz va shariat ahkomlarimizni bajarib kelganlar, Qur'oni Karimda mo'min-musulmonlar bir-birlarining haqlariga duoи xayr qilganlarida, vafot etgan kishilarga qanday duo qilishlik, ularning haqlariga Alloh taolodan qanday xayrlarni so'ra-moqlari darkorligi ham alohida bayon qilingan. Alloh marhamat qilyapti: mo'min-musulmon bandalarim bir-birlarining haqlariga duoи xayr qilib so'raydigan bo'lsalar, shunday so'rasisinlar:

– Ey, bizlarni yaratgan egam, bizlarning gunohlarimizni mag'firat qilgin va bizlardan oldin iymon bilan o'tgan mo'min-musulmonlarimizning gunohlarini afv qilgin. Mo'minlar Alloh taolodan shu taxlit duoda bo'lmoqliklari kerakligi bayon qilingan.

Ular yaqinlari vafot etganlarida ta'ziya bildirib, duoи xayr qilib, fotiha o'qib, Allohnинг kalomidan o'qib turishligi – bu shariati Islomiyadagi eng yaxshi amallarimizdan hisoblanadi.

**4-talaba:** Vahhobiylilik oqimiga mansub shaxslar, hatto Qur'oni Karimni o'qisa savob bo'lmaydi. Qabristonlarda ham duo o'qib bo'lmaydi, degan gaplarni ham aytishgan. Men shuni alo-

hida ma'lum qilamanki, ba'zi vahhobiylar janoza o'qiganlarida, qabristonda istig'for o'qiyimiz, shu yerdan qaytaveringlar, deganlar. Mazhabimizga ko'ra, yaqinlari vafot etganda qabristonga kelib shariat ahkomlariga rioya qilgan holda Qur'oni Karimni o'qib, o'tganlarning haqiga duo o'qimoqlik joiz. Bizlarning shariati Islomiyada Allohning kalomlariga muhabbatli bo'lish, Qur'on oyatlariga amal qilish, vahhobiylarga nisbatan o'z fikrmulohazalarimizni yetkazish siz va bizning muqaddas burchimizdir.

### **5-savol: Yoshlarimizning diniy va dunyoviy bilim olishlariga qanday sharoit yaratilgan?**

#### **5-guruh talabalarining javoblari:**

**1-talaba:** Keyingi yillarda ba'zi joylarda vahhobiylar ta'siri ostida maktab o'quvchilarining dunyoviy bilimlardan sovib, diniy bilimlariga berilib ketishlari, ayni namoz paytida hatto yosh o'quvchilarining ham darsni tashlab, masjid tomon yo'l olishi, xonadonlarda diniy maktablar ochilib xalifa-domlalarning dars o'tishi kuchayib ketgan edi. O'quvchilarining darslarga qatnashmay, diniy o'qishga berilib ketishini qanday baholash mumkin? Bu savolga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bo'lim boshlig'i Muhammadbobur qori Yo'ldoshev javobini keltirsak:

«Aslida, mamlakatimizda diniy bilim olaman deganlar uchun hech qanday to'siqlar qo'yilmagan. Aksincha, qanchadan-qancha qonuniy diniy maktablar faoliyat ko'rsatmoqdalar, u yerlarda yetuk ustozlar xalqimizning minglab farzandlariga saboq bermoqdalar. Lekin har qanday ilm avval dunyoviy bilimlardan boshlanishini unutmasligimiz kerak. Bolani maktabdagi majburiy dunyoviy ta'limdan bezdirib, faqat diniy ta'limga tortish, bu ta'limni qayerda, kimdan dars olgani noma'lum, o'quv-pedagogika uslubiyatlaridan begona shaxslardan olinishi, farzandlarimizni har tomonlama bilimi bo'sh va sayoz, yuzaki ma'lumot egasi qilib qo'yadi. Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamiz huquqiy-demokratik davlat. Shu bilan birgalikda diniy ta'limga keng yo'l ochib berildi. Hukumatimiz vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida hamda ta'lim to'g'risidagi qonunlar qabul qildi».

**2-talaba:** Demak, diniy ta'lim olish har bir kishining shaxsiy ishi. Bu xususiy e'tiqodni qoniqtirishdan iborat. Shu kunlarda

Respublikamizda Toshkent Islom instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Ikkita ayol-qizlar madrasasi mavjud. Shu bilan birqalikda, o'n to'rtta o'rta maxsus Islom bilim yurtlari ham bor. Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkentda Islom universitetining tashkil etilishi dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan kadrlarni yetishtiriishi shubhasizdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ana shunday ma'lum mashhur madrasalarimizga qaramasdan, ba'zi bir otaxonlar, onaxonlar oq-qorani ajratmagan yosh bolalarni norasmiy tashkilotlar, ya'ni hujralarga, xususiy tizimlarga olib borib berayaptilar. Hujralarda ta'lim berishning o'zi pedagogikaga yot bo'lib, bu yerda ta'lim berayotganlarning niyatları yosh farzandlarimizning ongini zaharlash, xolos. Bu joylarda ta'lim olgan farzandlarimiz to'g'ri yo'ldan adashib, oqibatda na ota-onasini, na Vatanni e'tirof qiladi. Shuning uchun ota-onalarga maslahat berardimki, farzandlari avvalo dunyoviy maktablarni to'liq bitirib, o'rta ma'lumot olsalar. Imkon bo'lsa birorta kasb-hunar egallaganlaridan keyin, ma'lum madrasalarga kelsalar. Toki madrasalarda ta'lim olsalar, ayni muddaolari ga yetgan bo'lar edilar.

Yurtimizda Imom al-Buxoriy nomli butun jahonga ma'lum va mashhur Islom instituti bor. Bu yerda yetuk ulamolar, ustozlar tahlil beradilar. Shu bilan birga o'g'il bolalar uchun madrasalarimiz ham bor. U yerda va diniy darslar mufassal o'tiladi.

**3-talaba:** Yoshlarimizning chet mamlakatlarda diniy ta'lim olishlari uchun qanday imkoniyatlar bor? Norasmiy ilmgohlarini bitirib kelganlar yurtimizda ish bilan ta'minlanadimi?, Degan savolga shunday rasmiy javob mavjud.

O'zbekistonlik yoshlarimiz rasmiy ravishda chet ellarga borib ta'lim olishmoqda. Masalan, Arab Respublikasi, Quvayt, Turkiya, Pokiston, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarda yoshlarimiz ta'lim olmoqdalar. O'qishni bitirib kelib, yurtimizdagи yuqorida aytigan dar gohlarda dars berayotganlar ham ko'p. Ularning ayrimlari ba'zi joylarda o'quv maskanlarini boshqarmoqdalar. O'z bilimini, malakasini oshirmoqchi bo'lganlar mamlakatmizdagi dunyoviy bilimgohlarda o'qimoqdalar. Respublikaning mustaqilligi sharofati bilan chet ellarga borib-kelish bemalol bo'lib qoldi. Afsuski, ba'zi yoshlarimiz tijorat-ziyorat ishlari bilan chet ellarga borib, norasmiy ravishda o'sha yerlarda qolib, ustiga-ustak, o'sha davlat tizimida, nazoratida bo'lмаган

ba'zi bir oqimlarga mansub ekstremistik ruhdagi ilmgohlarga borib jihod ruhida ta'lif olmoqdalar. Misol uchun, Pokistondagi yirik universitetda o'qiyotgan yoshlariidan farqli holda, xuddi shu mam-lakatda norasmiy, ekstremistik ruhdagi ta'lif beruvchi ilmgohda ta'lif olayotgan yoshlariiz ham bor, ular o'sha yerda jihod ruhida reaksiyon ta'lif olib kelib, qurollishni o'rganib, oqibatda diyorimizda ba'zi bir ixtiyoflarga sabab bo'lmoqdalar.

Norasmiy diniy ilmgohlarni bitirib, yurtimizga kelganlaraga diniy sohada ish berilmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ular diniy rahbar sifatida tan olinmaydi. Ular avvalo Vatan, xalq, mahalla oldida o'zlarini oqlasa, o'zimizdagি diniy ilmgohlarga kelib o'qisa, hurmat topsa, kasb-hunar o'rgansa, ehtimolki, ular jamiyat tomonidan kechirilar.

O'qituvchi aytilganlarni xulosalab, darsni yakunlaydi va talabalarini baholaydi.

## **10-§. DUNYO DAVLATLARIDA TERRORIZM HARAKATLARI**

Terrorizmning mohiyati. Hozirgi davrda globallashuv sharoitiда xalqaro terrorizm tobora kuchayib borayotganligi butun dunyo xalqlarini tashvishlantirmoqda. O'zbekiston xalqi bu mudhish hodisalarini o'z boshidan kechirdi.

Hozirgi zamonnинг global muammolarini yechmay turib, jamiyatda terrorizmni kamaytirib va yo'qotib bo'lmaydi. Shunday ekan terrorizmning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, g'oyaviy va huquqiy tomonlarini tahlil etgan. Yurtboshimiz Islom Karimov, terrorizmning tashqi ko'rinishlariga qarshi kurashish bilan bu ofatni bartaraf etib bo'lmasligi, ushbu balo-qazoning birlamchi manbalariga qarshi kurash darkorligini alohida ta'kidlagan edi. Chunki har qanday terroristik harakat rahnamolarsiz, iqtisodiy ta'minotsiz amalga oshmaydi.

Masalan, 1668–1991-yillarni olib ko'raylik: bu davrda butun dunyoda 6 ming 850 marta terrorchilik aktlari sodir etilib, 5–683 kishi o'dirilgan, 15 mingdan ziyod inson turli holatda jarohatlangan. 1992–2000-yillar orasida esa jahonda 2054 marta terrorchilik fojiasi amalga oshirilgan bo'lib, 2547 kishi hayotdan ko'z

yumgan, 20555 begunoh inson yarador bo'lgan. 2001–2003-yillarda terrorchilar 661 marta xunrezlik amalga oshirganlar. Dahshatli tomoni shundaki, unda 4146 kishi hayotdan ko'z yumgan va 4 mingdan ziyod kishi nogiron bo'lib qolgan.<sup>1</sup> Xullas, terrorizm miqyosi tubdan o'zgarib, terrorizm bugun "super terrorizmga ayланib bormoqda"<sup>2</sup>.

Jahonda terrorizmga qarshi olib borilayotgan kurashda O'zbekistonning ham o'ziga xos o'rni bor. Davlatimiz xalqaro huquqiy me'yorlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning shu masalada qabul qilingan hujjatlariga amal qilib jahon hamjamiyati oldida zimmasiga olgan majburiyatlarning to'liq bajarilishini ta'minlab kelmoqda. Demak, mamlakatimiz Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar orasida birinchilardan bo'lib 2001-yilda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Shu bilan shaxs, jamiyat va davlatni terrorizm xavfidan himoya qilishning huquqiy asosi yaratildi.

Ushbu Qonunda terrorizm tushunchasi quyidagicha ifodalan-gan: "terrorizm–siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlariga erishishi uchun shaxsnинг hayoti, sog'lig'iغا xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlanrilishi) xavfni keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etilishidan tiyilishiga majbur qilishga xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini hududiy yaxlitlikni buzilishiga, xavfsizligiga putur yetkazishiga, qurolli mojarolar chiqarishini ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqtishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining Jinoят Kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatalish bilan qo'rqtish yoki boshqa qilmishlar"dir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Parlamenti tomonidan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinganligi ham bu muammoni

<sup>1</sup> Встречный захват. «Труд-7», 2004-йил, декабрь

<sup>2</sup> Yu. Po'latov., S. Razzoqov. "Terrorizmga qarshi samarali kurashish uchun uning xususiyatlarini bilish kerak". "Falsafa va huquq". 2006. №2 33-bet.

hal etish borasida olib borilayotgan harakatlarning mantiqiy davomidir.

Ayni paytda terroristik tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tashviqot yoshlarning soxta g'oyaga aldanib qolishi, yurt ravnaqi yo'lidagi faoliyatidan chalg'ishi jamiyatdagi ma'naviyruhiy muhitning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Terroristik tashkilotlar faoliyati, shuningdek, musulmon bo'limgan mamlakatlar aholisi o'ttasida islomni "yovuzlik saltanati" va tahdid manbai sifatida qabul qilinishiga, "islomofobiya" ning turli ko'rinishlari paydo bo'lishiga ham zamin yaratmoqda. Hozirgi davrda terrorizmning kishilik jamiyatining nafaqat bugungi kuni, balki istiqboliga ham tahdid solayotgan omilga aylanganini, insoniyat bir butun vujud sifatida qarshi kurashga kirishgandagina uni yenga olishi mumkinligini ko'rsatadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Rahbari o'z davrida terrorizmga qarshi kurashda o'z pozitsiyasini qat'iy bildirgan edi: "Checheniston va Dog'iston chegaralaridan Rossiya amalga oshirayotgan operatsiyalar kabi biz ham Tojikiston hududidagi terroristlar bazalariga qarshi aynan ana shunday operatsiyalarni uyuştirishga to'la haqlimiz. Ushbu fursatdan foydalaniб, aytmoqchimanki: O'zbekiston bu bazalarga shunday zarba berishiga tamoman haqqliki, u yerda uni anchagacha eslab yurishadi, hatto o'z avlodlariga ham yetkazishadi. Bunday bosqinchilik xujumlarini biz kechirmaymiz va biz bilan o'ynashishiga yo'l qo'yamaymiz".

Terrorizm terrorchilik-zo'rlik va jaholat mafkurasi, terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy harakat. "Terror"ning lotin tilidagi birlamchi ma'nosi "qo'rqinch", "dahshat"ni anglatadi. Psiolog olim K. E. Izardning fikricha, "qo'rqinch"-bu emotsiya bo'lib, u haqda odamlar dahshat bilan o'ylashadi. Shunga qaramay qo'rqinch hayotimizning real qismidir". Zero, inson unga turli hayotiy vaziyatlarda duch kelishi mumkin. Buni ba'zi bir ta'sirlar (zo'ravonlik, kuch qo'llash, turli axborotlar, tabiiy ofatlar, ishda xatoga yo'l qo'yish, jang maydoniga tushish va b.) natijasida, inson o'z tinchligi va xavfsizligini yo'qotishdan qo'rqib, dahshatga tushishida kuzatish mumkin.

<sup>1</sup> Diniy eksteremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Toshkent 2005-yil. 99-100-betlar.

Tadqiqotchi N. Safarovaning “Terrorizm” kitobida keltirilishicha “qo‘rqnichning muntazam takrorlanib, kuchayib borishi daxshatga olib keladi. Bu holatni “Klon” filmidagi Tasko obrazida ko‘rishimiz mumkin. Demak, terror—takrorlanib, kuchayib boruvchi qo‘rqnichning dahshatga aylanishi. Terrorning ildizi insonning shuuri bilan minglab rishtalar ila bog‘langan, xususan agressivlik va shafqatsizlik oxir-oqibat muayyan tarixiy sharoitlarda anarxiya va zo‘ravonlik bilan “hayotga chorlaydi”.

Freyd fikricha, inson tabiatida ikki kuch hukmron. Birinchisi, barcha narsalarni vayron etuvchi tantanos ruhi; ikkinchisi esa, hayotga, xursandchilikka intilish kuchidir. Bu narsa hayotda turlicha namoyon bo‘ladi. Jumladan, fashistlik g‘oya ruhida tarbiya olgan kishilarda agressivlik, inson hayotiga jirkanish bilan qarash, sadizm, keng miqyosdagi qirg‘inlik, genotsid, buzg‘unchilik kabi vaxshiyliklar ustundir.

“Terror” tushunchasi muomalaga ilk bor Fransiya buyuk inqilobi davrida kiritilgan bo‘lib, aynan qo‘rquv, dahshat, zo‘ravonlik ma’nolarini anglatadi. Hozir bu atama xalqaro siyosiy lug‘atda mustahkam o‘rnashdi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan bir qatorda “terror”, “terrorizm” tushunchalari ham yangi mazmun bilan boyib bormoqda.

Terrorizm ikki xil ko‘rinishga egadir.

1. Individual terror. U davlat siyosatining saqlanishi yoki o‘zgartirilishida yuzaga keladi. Shaxs yoki raqiblarni jismonan yo‘q qilish uslubini qo‘llaydi. Sulolaviy nizolar negizida va nomaqbul hukmdor, davlat va jamoat arboblarini yo‘q qilinishi ko‘rinishida bo‘ladi.

2. Ommaviy terror. Zo‘rlikka qarshi zo‘rlik ishlatish natijasida ommaviy girdobga tortish natijasida yuzaga keladi. Xalqni itoatda saqlash, inqilobchilar tomonidan siyosiy muxolifatning qatag‘on qilinishi uslubini qo‘llaydi. Hokimiyatni boshqarish quroli, siyosiy kurash usuli ko‘rinishida bo‘ladi.

Terrorizmga turli olimlar bir qator ta’rif bergenlar. S. A. Efirov: “terrorizm – barcha ko‘rinishdagi davlat terrorizmi, terror siyosati va genotsidning zimdan amalga oshiriladigan qo‘poruvchilik harakatini birlashtiruvchi harakat”. Yu.M. Antonyan: “terrorizm – vahima solish, davlat va jamiyat tartibotini buzish, qo‘rquv uyg‘otish,

o‘z dushmanini o‘zi xohlagan qarorni qabul qilishga majburlash, siyosiy yoki boshqa o‘zgarishlar qilish maqsadlarida o‘zgalarga xavf soluvchi keskin kuch ishlatishdir”.

Terrorizm – zo‘ravonlikka asoslangan uslub va vositalar yordamida siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan tizimli va uyushtirilgan, siyosiy mazmunga ega ijtimoiy hodisa. Terroristik harakatlar bu yangilik emas, u qadiimdan insoniyatning yo‘ldoshi bo‘lib kelmoqda.

### **Qadimgi davrda terroristik harakatlar**

Terrorning ilk namoyon bo‘lishiga nazar solish maqsadga muvofiqdir. Bu narsa uning tarixiy shakllarini chuqur tahlil etish terrorizm muammosining yechimini topishga imkon beradi. Zero, bu yerda suiqasd, fitna bilan terrorni farqlash ham zarur. Odatta suiqasd, fitna ham terrorning bir ko‘rinishidir. Chunki ular ham zo‘ravonlik va kuch ishlatish yordamida amalga oshiriladi. Eng dastlabki fitnachilik va suiqasdchilik harakati Ahamoniylar davlatida sodir bo‘ldi. Ahamoniylar sultanati boshlig‘i Kambiz Misrdan o‘z vataniga qaytishda miloddan avvalgi 522-yilda terrorchilar qo‘lida halok bo‘ladi. Miloddan avvalgi 336-yilda so‘ngi ahamoniylar podshosi Artakserks III fitna yo‘li bilan Misrda o‘ldiriladi. Miloddan avvalgi 338-yilda Makedoniyalik Filip II butun Yunonistonni bosib olib, 10 ming kishilik qo‘shinni Kichik Osiyo sohillariiga yuboradi va ammo o‘zi miloddan avvalgi 336-yilda qizining to‘yida fitnachi qotillar tomonidan o‘ldiriladi, uning o‘rniga o‘g‘li Iskandar (mil. avv. 356–323) taxtni egallaydi.

Olimlarning hisoblariga qaraganda ilk terror qadimgi Italiyada diktator Sulla davrida sodir bo‘lgan<sup>1</sup>. Mitridian VI Ekvador (mil. avv. 111–63-yillarda hukmronlik qilgan) bilan Dardan sulhini tuzgach, Lutsiya Korneliya Sulla (mil. avv. 82–79-yillarda hukmronlik qilgan) Italiyaga shoshilinch qo‘shin tortadi. Sulla askarlari va bu to‘qnashuvda Gay Mariy (mil. avv. 107-yilda konsul etib saylangan) ustidan g‘alaba qozonib, Rimda Diktatura o‘rnatadi (mil. avv. 82–79-yillar). Manbalarda ayttilishicha, bu urushda 110 minggacha kishi

<sup>1</sup> Всемирная история. Т. И. Госполитиздат. 1956. с.366.

halok bo'lib Italiya qonli janglar maydoniga aylanadi. Rimda dahan-shatli qirg'inlar boshlanadi. Ko'chalarda barcha mol-mulki musodara etishga, o'zi esa o'limga hukm qilingan ro'yxati osib qo'yiladi.

Miloddan avvalgi I asrda Rimda Yuliy Sezar imperator bo'ladi. Lekin bu tanho hukmronlik Rim aslzodalariga kerak emas edi. Miloddan avvalgi 44-yilda Jupiter bayrami kuni Cassi va Brut boshchiligidagi fitnachilar Sezarni 23 joyidan xanjar bilan yarador qilib chavaqlab o'ldiradilar. Eramizning 41-yilida esa imperator Kaligulini ham sirkdan saroyga qaytib kelayotganda Palatin tepaligida qatl etishgan.

54-yilda malika Agrippina eri Klavdiyni zaharlab o'ldirgan. Chunki Klavdiy Agrippinaning oldingi eridan tug'ilgan o'g'li Neronni taxt vorisi qilib tayinlamagan edi.

Kichik Osiyo, Kavkaz orti, Kaspiy bo'ylarida muvaffaqiyatsiz urush olib borib sultanatning obro'siga putur yetkazganligi uchun eramizning 96-yilida imperator Domisian o'z saroyida fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

Rimda Mark Avreliyning o'g'li Kommod taxtga o'tirib o'yin-kulgi, tomoshalarga berilib ketganligi, aholiga bepul oziq-ovqat ulashib xazinani ko'kka sovurganligi, imperiyada oziq-ovqat tanqisligi kuchayganligi sababli 192-yili fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Demak, terrorizm kishilik jamiyatining barcha bos-qichlarida sodir bo'lgan va bo'ladigan noyob hodisa (fenomen) dir. Masalan, diniy mazmundagi terrorchilik (Zardushtning o'ldirilishi) siyosiy terrorizm Sezarning o'ldirilishi va h.k.

### O'rta asrlardagi eng yirik terrorchiliklar

Eramizning IV–V asrlaridan XVI asr boshlarigacha o'rta asrlar davri bo'lib, bu davrda ham terroristik harakatlar davom etdi. Demak, terrorizm – avvalambor siyosiy-huquqiy, tarixiy, ijtimoiy-psixologik dinlararo va boshqa muammolarga borib taqaluvchi juda murakkab turli ko'rinishli, o'zgaruvchan va kundan-kunga avj olib borayotgan mudhish hodisa bo'lib, uning bartaraf qilinishi bu muammolarning yechimi bilan ham bog'liq.

Terror "kuch, turli xildagi qurollarni qo'llash, ko'pincha, begunoh qurbanlarga sabab bo'luvchi zo'ravonlik" sifatida ta'riflanadi.

Biroq, biror bir mamlakat ichidagi yoki davlat chegarasidan tashqaridagi fojeali voqeani tahlil qilganda yagona bir yondashuv hozircha yo‘q.

Dunyo mamlakatlarida siyosiy va diniy terrorchilik aralashib ketdi. Chunki, hukmdor ham diniy hamda dunyoviy hokimiyatning qonuniy egasi hisoblangan. Masalan, Muhammad s.a.v. va fotidan keyin hukmronlik qilgan to‘rtta xalifadan faqatgina Abu Bakr Siddiq (632–634) gina o‘z ajali bilan o‘lgan. Qolgan xalifalar Umar ibn Xattob (634–644), Usmon ibn Affon (644–656) va Ali ibn Abu Tolib (656–661) larning barchasi siyosiy muxoliflar tomonidan o‘ldirilgan.

Saib yurishlarida ham juda katta terrorchilik harakatlari olib borildi. Ritsarlar 1099-yili Quddus shahrini bosib oldilar va musulmon abolini dahshatli ravishda qirdilar. Ular xotin-qizlarga ham, bolalarga ham rahm qilmadilar. XII–XVII asrlarda ham G‘arbiy Yevropada muqaddas “Injil” g‘oyalariga shak keltirganlarni inkvizitsiya (diniy terror) yordamida dahshatga solib cherkovning jamiyatdagi hukmron mavqesini saqlab qolishga jon-jahdi bilan urinishlar asosida diniy mazmundagi terror (“inkvizitsiya”) siyosati amalga oshirila boshladi. Bundan shu narsha ma’lum bo‘ladiki, terror siyosati, terrorizm davr guruhiga mos kelmaydigan g‘oyalarni hayotga tatbiq etishda ojiz qolgan kuchlar tomonidan amalga oshirishga harakat qilinadi. Demak, terrorchilik – ojizlik belgisi, deb xulosa chiqarish mumkin.

Yevropada ereslar yoki yosh eretiklar (yunoncha tanlab olish, grekcha bid‘atchi, dindan qaytgan, shakkok) harakati keng tus oлади. Ereslar yoki eretiklar dinning rasmiy ahkom va aqidalaridan turlicha chekinib, unga muxolifatda bo‘ldilar, bu harakatlari uchun ularni bid‘atchi deb ataydilar. Ular dinning asosiy muqaddas kitobi, aqida va talablarini tan olgan holda, ma’lum bir davr ijtimoiy kuch va muayyan mamlakat ehtiyojlarini nazarda tutib, unchaliq prinsipial ahamiyatga ega bo‘lmagan masalalarda tanqidiy fikr yuritgan kishilar bo‘lib bid‘atchi hisoblangan.

Xristianlikda eretiklar troitsa, gunohkorlik, sirlar, cherkovning muqaddasligi, monaxlar inkor etilgan, mayjud dunyo zulm, shayton podsholigidir, deb e‘lon qilingan. Eretiklar cherkov “bu-zilgan”, papa xudoning vakili emas, iblis noibi derdilar. Ular

cherkovning dabdabali marosimlarini rad qilar, ruhoniylarning ushrdan, o'zlarining yer-mulkleri va boyliklaridan voz kechishni talab qillardilar. Eretiklarning chiqishlari ruhoniylarning obro'siga putur yetkazardi. Eretiklarga qarshi cherkov va davlat hokimiya-ti o'ziga xos salb yurishi e'lon qilgan, eretiklar soborlarda qoralan-gan, quvg'in ostiga olingan, jismonan yo'q qilingan. Cherkov erez-tilar ko'p bo'lgan viloyatlarga harbiy yurish uyushtirardi. XIII asr boshlarida papa Innokentiy III Fransiyaning janubiy viloyat-lariga ritsarlardan iborat qo'shin jo'natdi. Papa shu yurish qatnash-chilarining gunohlarini kechishga va'da berdi. 20 yil davom et-gan bu urushda ko'pgina shaharlar talandi, vayron qilindi, aholisi qirib tashlandi. Shaharlardan birida 20 ming kishini qirib tashla-dilar. Papa elchisidan, "mo'min katoliklardan eretiklarni qanday qilib ajratish kerak?" deb so'raganlarida, u: "bir boshdan yoppasi-ga o'ldiraverenglar, xudo u dunyoda o'z bandalarini ajratib oladi!" deb javob bergan.

Eretiklarga qarshi XIII asr boshlarida katolik cherkovi tomoni-dan yuqorida aytiganidek inkvizitsiya joriy qilingan.

Inkvizitsiya (lot – tekshiruv, tergov, qidiruv) – katolik cher-kovining erkin fikrlarga, papa hokimiysi g'oyaviy dushmanlariga qarshi kurashi maqsadida tuzilgan maxsus sud muassasasi. Dast-lab bevosita Rim papasi tasarrufida bo'lgan. 1231-yildan e'tiboran dominikanlar ordeniga topshirilgan. U xristianlikning sofligi-ni mutlaqlashtirgan, shu sababli aqidaparastlikka yo'l qo'ygan. Inkvizitsiya insoniyatning g'oyaviy erkinligiga qarshi qator ji-noyatlarni sodir etgan. Ko'plab olim, yozuvchi, ziyolilar mavjud siyosiy tizim va cherkov doktrinasining g'oyaviy muxoliflari sifati-da inkvizitsiya qurban ni bo'lgan. Masalan, Fransiya xalqining afso-naviy qahramoni Janna d'Ark 1431-yilda Ruan shahrida inkvizitsiya sudi tomonidan jodugarlikda ayblanib, o'tga tashlab kuydiriladi. Chexiya xalqining sardori Yan Gus ham ruhoniylarning qilmishla-rini shafqatsizlik bilan fosh etardi. U Rimda mansablar pulga soti-layotganligidan g'azablanib, papani qalloblar piri deb atardi. Gus Chexiyada indulgensiyalar (gunohlarni kechirish haqidagi maxsus yorliq, afv) savdosini qattiq qoralardi. Praga arxiepiskopi Gusga va'zxonlik qilishni taqipladi, so'ngra uni murtad deb e'lon qildi, keyin esa cherkovdan haydadi. Ammo Gus 2 yil Fransiya janubida

va'zxonlikni davom ettirdi. Rim papasi Yan Gusni Germaniya janubidagi Konstansa shahriga oliv ruhoniylar s'yezdiga chaqiradi va himoya yorlig'i berib, hech qanday xavf-xatar yo'qligi va'da qilinadi. Konstansada Gusni zanjirband qilib zax va sovuq, qorong'i zindonga tashladilar. U olti oy zindonda yotdi, so'ngra uni sud qildilar. Sobor uni o'z qarashlaridan voz kechishni talab qildi. Ammo u o'z maslagidan qaytishdan ko'ra o'limni afzal ko'rди. 1415-yili Yan Gus o'tda kuydirildi. U azobli o'limni mardonavor kutib oldi.

Katolik cherkovi butun Yevropoga yoyilgan Germaniyadagi reformatsiyaga (u papa siyosati va indulgensiyaga qarshi edi) qarshi kurashda o'z muxoliflarini ommaviy ravishda qirishdan ham qaytmadi. Reformatsiyaga ko'p dvoryanlar va shaharliklar qo'shilgan. Fransiyada katoliklar protestantlarni qirdilar. Ular protestantlarning yo'lboshchilarini qirol singlisining nikoh to'yiga taklif qilish bahonasi bilan Parijga aldab olib keldilar. 1572-yilning avgust oyi kechalaridan birida (avliyo Varfolomey kuni arafasida) protestantlarni qirg'in qilish boshlandi. Xotinlar va bolalar ham ayab o'tirilmadi. Ommaviy qirg'in davrida 30 mingdan ortiq kishi o'ladirildi. Protestantlarning bu qirg'in qilinishi tarixda "Varfolomey kechasi" deb ataladi. Rim papasi bu o'ladirishlarni ma'qullabgina qolmay, hatto bu voqeaga esdalik tariqasida medal yasashni buyurdi.

Koinot haqidagi diniy ta'lilotga ulug' polyak olimi Nikolay Kopernik (1473–1543) qaqqhatg'ich zarba berdi. Ulug' italyan mutafakkiri Jordano Bruno Kopernikning "Osmon jismlarining aylanishi haqida" kitobini tashviqot qildi. Olam son-sanoqsiz yulduzlardan iborat, ularning har biri bizdan uzoqda turgan quyoshdir dedi. Brunoni 8 yil turmada qiy nab 1600-yili o'tda kuydirdilar. 1619-yili buyuk olim L. Vanini ham o'tda kuydirildi.

### **Yangi davrda terrorchilikning kuchayishi**

Qo'rqtish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ta'qib, zo'ravonlik, qo'poruvchilik va qotillik terrorchilikning har qanday ko'rinishi uchun umumiy xususiyat bo'lib, u gumanizm,

demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun terrorizm qanday “bayroq” ostida amalga oshirilmasin mohiyatan insoniyatga, ezungulikka qarshi jinoyatdir. Iqtisodiy manfaatlarni ko‘zlovchi va moddiy boyliklarni o‘zlashtirishni maqsad qilib olgan terrorchilik harakatlari keng tarqalgan. Unda raqiblarni yoki ularni yaqinlarini jismoniy yo‘q qilish, o‘g‘irlab ketish, zo‘ravonlik, tajovuz bilan qo‘rqitib, o‘z hukmini o‘tkazishga urinish, boyliklarni o‘zlashtirib olish usullaridan keng foydalaniлади.

Terrorizm dinamikasi tasnifi<sup>1</sup>.

1. Jamiyat o‘zgarishi jarayonidagi davlat terrorizmi XVI asrda feodalizmning yemirilishi va kapitalistik ishlab chiqarishning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Yevropadagi terrorizm Angliyada kuchaydi. 1172-yilda Angliya Irlandiyani bosib oladi va islohotlar terror bilan o‘tkaziladi. Britaniya bilan Irlandiya o‘rtasidagi kurash 900 yildan beri davom etib kelmoqda.

2. Diktatura ko‘rinishidagi terrorizm.

XVIII asrda ma’naviy inqilob, ya’ni diniy ma’rifat o‘rniga dunyoviy ma’rifatning jamiyatdagi o‘rni keskin o‘sishi natijasida dunyoviy davlatlarning cherkovdan mustaqil, dunyoviy manтиqqa asoslangan siyosati qaror topishi bilan siyosiy mazmundagi terrorchilik keng avj oldi. 1789-yilgi Fransuz inqilobi terrorchilikni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. “Terrorizm”, “terrorchilik” atamasi o‘sha davrda siyosiy maqsadlari amalga oshirishning alohida uslub va vositasi sifatida ilmiy-siyosiy muloqotda keng ishlatila boshlandi.

M. Robesper 1794-yil 5 fevralda Konventda so‘zga chiqib: “terror – tez, ayovsiz va qat’iy hakamdir” dedi. Yakobinchilar diktaturasi davrida 35-40 ming kishi terrorizm qurboni bo‘lishdi.

3. Partizanlar urushi. 1808–1814-yillarda ispanlarning Napoleonga qarshi ozodlik urushi deb partizanlik ko‘rinishida terroristik harakatlar amalga oshirildi. Bu ko‘rinish keyingi yillarda ancha kuchaydi.

4. Anarxistik harakati ko‘rinishidagi terrorizm.

Bunga misol tariqasida Rossiyadagi noroziliklarni keltirish mumkin. 1876-yili narodniklarning “Yer va erk” degan yashirin

<sup>1</sup> N. Safarova. Terrorizm. T. “Noshir”. 2009-yil, 31 bet.

tashkiloti tuzildi. Siyosiy kurashga munosabat tufayli vujudga kelgan ixtiyoqlar, faoliyatining individual terror va fitnachilik metodlari tarafdarlarining guruuhlarining paydo bo'lishi 1879-yilda "Yer va erk"ning ikki tashkilotga: "Xalq erki" (1879–1882) va "Cherniy peredal" (1879–1884) tashkilotlariga ajralib ketishiga olib keldi. Chernoperedelchilar omma orasida propaganda ishlari olib borishning eski pozitsiyalarida qoldilar. Xalq erkchilari esa samoderjaviyani sinflar ustidagi hodisa deb hisobladilar. Shu sabablar mavjud tuzumni o'zgartirish uchun kurashning terroristik metodlari bilan qurollangan fitnachilarning tor guruhini tuzishning o'zi kifoya qiladi, deb hisobladilar. Ularning fikricha, podsho va humumatning eng e'tiborli a'zolarini o'ldirish hokimiyatning inqilobchilar qo'liga o'tishiga va zarur demokratik qayta o'zgarishlarni amalga oshirishga olib kelmog'i kerak edi.

Individual terror taktikasi samoderjaviyyaning yo'q qilinishiga olib kelishi mumkin emas edi. Bundan tashqari, bu taktika xalq ommasini "qahramonlar" faoliyati natijalarini passiv kutib turgan "olomon" holatiga solib qo'yari, ularni ommaviy inqilobiy kurashni avj oldirishdan chalg'itar edi.

Lekin rus anarxistlari: "So'z emas faqat terrorchilik harakatigina ommani qo'zg'ata oladi" degan da'vatni olg'a surdi. Narodniklik terrorizmi Rossiya tarixida chuqur iz qoldirgan terrorizmning bir ko'rinishidir. 1878-yil 24 yanvarda 193 nafar narodnik ustidan sud qilish arafasida Vera Zasulich Sankt-Peterburg general-gubernatori Trepovga o'q uzadi. Bu o'q uzish qator suiqaqlar va repressiya to'lqinlarini yuzaga chiqardi. 1870–80-yillarda harakat qilgan terrorchi guruuhlar orasida "Narodnaya volya" guruhi podsho Aleksandr II ga nisbatan sakkizta suiqaqd uyuشتirdi. Maqsad zo'ravonlik va kuch ishlatish yordamida monarxiyanı yo'q qilish edi.

1881-yil 1 martida Aleksandr II ning o'ldirilishi kurashning terroristik metodi butunlay asossiz ekanligini tasdiqladi. Eski podsho o'rnnini yangisi egalladi. A.I. Jelyabov, S.L. Perovskaya va suiqaqdning boshqa ishtirokchilari podsho sudining hukmiga ko'ra osib o'ldirildi, reaksiya yanada kuchaydi.

XX asrdagi milliy tazyiq siyosatini ham terrorchilik siyosating alohida ko'rinishlari sifatida talqin qilish mumkin. Janubiy

Afrika Respublikasida to XX asrning 90-yillariga qadar olib borilgan aparteid siyosati yoki XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 70-yillarigacha AQSH da qora tanli fuqarolarga nisbatan olib borilgan davlat siyosatini ham terror siyosatining alohida ko'rinishlari ekanligini e'tirof etmoq kerak.

Agar hukmron millatning manfaatlari hisobga olinib, qolgan barcha kichik etnik guruhlarning milliy ehtiyojlari inobatga olinmasdan o'tkaziladigan tazyiq siyosati milliy terrorizmni keltirib chiqarsa, muayyan sinflarning manfaatlari va irodasi qonur dajaranisiga ko'tarilib, boshqa har qanday guruhlar manfaatlari inkor etiladigan jamiyatlar (masalan, burjua diktaturasi, proletariat diktaturasi) dagi siyosat esa sinfiy terror siyosatining alohida ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi va h.k.

#### 5. Davlat mafkurasi ko'rinishdagi terrorizm.

Ushbu terrorning ko'rinishi bolsheviklar hokimiyati davrida yanada kuchaydi. Eserlar Leninga qarshi terror (Kaplan nomli ayol o'q uzdi) uyuştirgandan keyin bolshevizm dushmanlariga qarshi "Qizil terror" uyuştirildi. Ushbu terror davlat siyosati dajaranisiga ko'tarildi.

Oq gvardiyachilar esa unga qarshi "Oq terror" bilan javob berdilar. Millionlab aholi bu terrorning qurbanini bo'ldilar. Germaniya da 1919-yilda Kommunistlarga qarshi terroristik harakat natijasida K. Libknext va Roza Lyuksemburglar o'ldirildilar.

#### 6. Fashizm va genotsid ko'rinishdagi terrorizm.

Ushbu terrorchilik harakati 30-yillardan, ya'ni fashizm hokimiyat tebasiga kelgandan keyin boshlandi. Birinchi navbatda komunistlar nishonga olindi. Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) yillar davomida fashistlar egallab olgan joylarda, konsentratsion lagerlarda millionlab kishilar o'ldirildilar, yoqib yuborildi.

#### 7. Hozirgi paytda terrorizm.

Hozirgi paytda, ya'ni XX asrning so'ngi choragida terrorizm alohida olingen davlat yoki mintaqalari doirasidan chetda chiqib, to-bora xalqaro miqyosda, uyushgan tashkilot sifatida namoyon bo'lmoqda. Agar XX asrning 70-yillarida "Qizil brigadalar" (Italiya) bir mamlakat doirasida faoliyat olib borgan bo'lsa, endilikda insoniyat taqdirini hal qiluvchi g'oyalarga qarshi muxolif kuchlar, ta'limotlar atrofida uyushib dunyoviy taraqqiyot kelajagiga katta

xavf solayotgan xalqaro tashkilotga aylanib ulgurdi. Hozirgi kunda jahonda 500 dan ortiq turli xil xalqaro terroristik tashkilotlar, markazlar va guruuhlar mavjud. “Al-Qaida” xalqaro terrorchilik tashkilotini bunga misol qilib olish mumkin. Bu tashkilotning tub maqsadi va mafkurasi dunyoviy taraqqiy etayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda AQSH, Yevropa mamlakatlari xalqlari hayotiga daxshat urug‘ini sochish orqali, mazkur xalqlar o‘z hukumatlari siyosatiga tazyiq o‘tkazib, uni Yaqin Sharq (Falastin, Afg'oniston, Iraq) muommosini hal etishda xalqaro terrorizm manfaatlariga mos ravishda o‘zgartirishga erishishdan iborat. 1999-yil fevral, 2004-yil aprel, 2001-yil sentabrda AQSHda hamda Ispaniya, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda 2004-yilda sodir etilgan dahshatli terroristik xurujlar shuni ko‘rsatmoqdaki, terrorizm qanday bayroq ko‘tarib chiqmasin, qanday shiorlar bilan niqoblanmasin, uning reaksiyon, jinoyatkorona mohiyatini farqlab olish, yovuz niyatini olib tashlash ongli, hurfikrli insonning, har bir vatanparvar fuqaroning burchidir.<sup>1</sup>

“Aurum Senrikyo” guruhi Yaponiyada 1987-yilda tashkil etilgan bo‘lib unga 10 mingga yaqin kishi a‘zo bo‘lgan edi. Metroga zarin gazining ochib yuborilishi natijasida 13 kishi halok bo‘ldi. Tashkilot rahbari Atahara va 5 kishi 2004-yilda o‘lim jazosiga hukm qilindi. Olib borilgan 13 yillik sud natijasida jabrlanganlarning oilalari uchun 38 million dollar tovon puli beriladigan bo‘ldi. Shundan 40 foizini “Aurum senrikyo” ning musodara qilingan mablag‘lari tashkil etadi.

2001-yil 11 sentabr oylari AQSH shaharlariда sodir etilgan terrorchilik harakatlari nafaqat aholisini, balki butun jahon hamjamayatini ham qo‘rquv va dahshatga soldi.

Hozirgi kunda terroristlar o‘z qabih ishlarini amalga oshirishda odamlarning soddaligi, hayotiy tajribasizligi, muqaddas dinimizga bo‘lgan qiziqish va intilishlaridan g‘arazli maqsadda foydalanishga harakat qilmoqdalar. Buning uchun ular “jihad”, “shahidlik” haqidagi tushunchalarni noto‘g‘ri talqin qilish yo‘lidan boradilar.

---

<sup>1</sup> Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. Toshkent, 2004-yil. 13-bet.

Bir aqidaga mukkasidan ketib, boshqa fikrlarni noto‘g‘ri hisoblab, ularga murosasiz kayfiyatda bo‘luvchi hamda o‘z rahnamolari g‘oyasi uchun o‘zini qurbon qilish holati aqidaparastlik deb ataladi. O‘zini portlatib, “shahidlik” da‘vosini qilayotgan kishilar diniy aqidaparastlarning namoyondalaridir.

Terrorchi kim deganda odatda, ongi zaharlangan, fanatizmga berilgan, o‘zi qiladigan jinoiy harakatiga o‘zi javob bera olmaydigan, qilayotgan harakatini anglamaydigan, kimningdir yovuz niyatini bajaradigan ijrochi kimsa deb qabul qilish kerak.

Odamlarning joniga qasd qilish, o‘ldirish, tazyiq ostiga olish, aholini vahimaga solish maqsadida qilinadigan, tinch insonlarni garovga olish kabi holatlar va buning ortida siyosiy-diniy yoki fanatik maqsadlarda uyushtirilgan jinoyatlarni terrorizm qatoriga qo‘sish o‘rinli.

Shu o‘rinda “Qur‘oni Karim”dan misol keltirishni joiz deb topdik: “Kimda kim bir mo‘minni o‘ldirsa, uni jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g‘azab qilgay, la’natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo‘ygay” (“Niso” surasi, 93-oyat).

Terrorist kuchlar bugungi kunda ayrim islomiy tushunchalaridan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanmoqdalar.

Mantiqqa zid bo‘lsa-da johillar quroli bo‘lmish terrorizm fantexnika yutuqlaridan samarali foydalanmoqda. Bir misol keltiraylik. Internet sahifalarida 7000 betlik “Jihod ensiklopediyasi” ning paydo bo‘lganligi tufayli portlovchi vositalarni oshxonada ham tayyorlash mumkin bo‘lib qoldi. Chunki, bu sahifalarda biologik quroldan qanday foydalanish yoki shahidlik kamarini tayyorlash kabi masalalar bo‘yicha “qimmatli” ko‘rsatmalar berilgan.

Yadro energetikasi, kompyuter kommunikatsiyalari rivojlangan ilg‘or texnologiyalar asrida yuqoridagi maqsadlarga faqat va faqat majburlash, zo‘ravonlik yo‘li bilangina erishish mumkin. Qur‘oni Karimdagи “Dinda majburlash yo‘q” oyati bu johil kimsalarning niyatları islomga mutlaqo zid ekanligini fosh etsa, “o‘zingizni o‘ldirmangiz” degan oyat shahidlikka da‘vo qilayotganlarning “rahnamlari” ning jannah huzur-halovatlari haqidagi yolg‘on va’dalariga laqqa tushganini ko‘rsatadi.

Terrorizmga qarshi kurashning eng samarali yo‘li, bu ofatni tag-tomiri bilan qo‘porib tashlashning yagona chorasi – ter-

rorizm uning mafkuraviy poydevoridan mahrum qilishdir. Taas-sufki terrorizmga qarshi kurashning aynan shu jabhasi ko‘pincha e’tiborimizdan chetda qolmoqda. Vaholanki, aynan jaholat mafkurasi kishilarni to‘g’ri yo‘ldan adashtiradi. Terrorni g‘oyaviy jihatdan oziqlantirish aynan soxta g‘oyalar terrorchilarining har qanday razilliklarni “oqlash”ga xizmat qiladi, terror ijrochilarini o‘limga tik borishga undaydi. Aynan qon to‘kishga asoslangan mafkura begunohlarning o‘ldirishni muqaddas burch deb tushuntiradi. Qon to‘kilishini adolatning tiklanishi deb baholaydi.

Terrorizmga g‘oyaviy zarba berishda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish lozimligini ham unutmasligimiz kerak.

Qolaversa, hayotimizda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, ayrim muammiolar haqida ochiq-oydin gapirmasligimiz aqidaparastlarning tillarini besh qarich qilib qo‘yishi mumkinligini e’tibordan qochirmsligimiz lozim. Bir so‘z bilan aytganda terrorizmga qarshi axborot urushi e’lon qilishimiz, mafkuraviy kurashda johil yovga yutqazib qo‘ymasligimiz talab etiladi.

Turli sinov va tanlovlardan asosida dastlab dinga qabul qilishlar hisobidan, ekstremistik va terroristik tashkilotlar safini yangi a’zolar bilan to‘ldirib borish ko‘zda tutilgan. Ekstremistik harakatlarning eng quyi tabaqasi ko‘pincha siyosiy tusga ega bo‘lmagan, mayda zo‘rlik va jinoyatlar sodir etadigan unsurlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday zo‘rlikning siyosiylashtirilishi terrorizm tomon qo‘yilgan birinchi qadam bo‘ladi. O‘z doirasiga yangi kimsalarni tortar ekan, terrorchilik guruhi yoki uning rahbariyati so‘zsiz bo‘ysunishni va “ish”ga mutaassibona sadoqatni talab qiladi. Keyinroq esa yollanuvchilar “hamma narsani biluvchi” va ularga yo‘lboshchilik qiluvchi sarbonga duch keladilar.

Hozirgi davrda eng avvalo axborot chegaralarining barham topishida o‘zligini namoyon qilayotgan globallashuv sharoitida va bir paytlar xalqaro munosabatlar mazmunini belgilagan ikki qarama-qarshi kuch – sotsializm va kapitalizm o‘rtasidagi o‘zaro kurashning barham topishi natijasida ekstremizm va terrorizm mamlakatlar, mintaqalar va umuman dunyo xavfsizligiga asosiy tahdid sifatida birinchi o‘ringa chiqdi. Qo‘poruvchilik faoliyatining turli ko‘rinishlarini o‘z ichiga olgan infrastrukturani shakllantirgan va rivojlantirgan mazkur ikki dunyoqa-

rash o'rtaqidagi kurash hozirda turli xil kuchlarni birlashtirgan ko'p qutbli dunyoning mazkur infrastrukturaga qarshi kurashidek shakl-shamoyil kasb etmoqda.

Avvalo, ekstremizm va terrorizmning anarxizm va fashizmning arxaik shakllari bilan qorishmasi hisoblangan va ommaning keng qatlamlari bilan bog'lovchi halqa sifatida islam shiorlari dan ustalik bilan foydalanadigan, aslida esa xalq bilan hech qanday aloqasi yo'qligini mohirona yashira oladigan holat kasb etdi. O'z vaqtida, XX asrning 70-yillarda, terrorchilar xalq bilan birgalikni ko'rsatish va uning nomidan harakat qilish uchun kommunizm shiorlari ostida faoliyat yuritishi va shu yo'l bilan mablag' to'plashi qulayroq edi. O'sha yillarda Lotin Amerikasida ekstremistik ruhdagi kommunistparast tuzilmalarining jangarilari jamiyatda parokandalikni yuzaga keltirish va tartibsizlik to'lqinida kommunistlarning hokimiyatni qo'lga olishiga sharoit yaratishga qaratilgan ko'plab terrorchilik xurujlarini sodir etardilar. Biroq aksariyat holdarda, ular hokimiyatni qo'lga olish niyatlariga erisha olmadilar va jamiyat a'zolari diqqatini jalb qilish maqsadini ko'zlagan shovshuvli terrorchilik xurujlarini amalga oshirish bilan qanoatlanishga majbur bo'ldilar. Ekstremistik tuzilmalarining asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo'rquv va vahimada tutib turish va shu yo'l bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchszilik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan edi.

### **Terrorizmga qarshi kurashning mafkuraviy va ma'naviy-tarbiyaviy asoslari**

Respublikamizda g'ayriinsoniy va g'ayriislomiy g'oyalarni tarqatishga harakat qilayotgan diniy ekstremistlar ham o'zlarining g'arazli maqsadlarini, ya'ni yoshlarni chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatib yuborishga intiladilar. Yuqoridagi mulohazalardan ham kishilar qalbi va ongini egallash g'oyaviy kurashning bosh maqsadiga aylanganini anglab yetish mumkin. "Bugungi kunda, – deb yozadi Yurtboshimiz, – insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurolyarog'lar yer yuzi kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi

eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, balki mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim”.

O‘z mohiyati bilan insoniyatga zid bo‘lgan, shu jumladan diniy ekstremistik g‘oyalarga qarshi tura olish uchun kishilarimizda mafkuraviy immunitetini shakllantirish markaziy masalalar dan biriga aylanmoqda. Immunitet (lot. Immunitas – ozod bo‘lish, qutilish) deganda tibbiyotda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o‘zini turli, shu jumladan, zararli ta’sirlardan himoya qilishga qodir bo‘lgan xususiyatlari majmui tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli infektion kasalliklariga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi.

Insonning tug‘ma bo‘lgan ana shu umumiyligi immunitet tizimidan farqli ravishda mafkuraviy immunitetni ham shakllantirib borish zarur. U har bir avlod uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi va mafkuraviy daxlsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitet tiziminining, asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko‘p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafдорлари ham muayyan bilimlarga tayanadilar va uni onma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma’naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu bir tomonidan, ikkinchi tomonidan bu bilimlar o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra, Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i kerak. Fuqarolarning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo‘lishlari diniy ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlari dan biri hisoblanadi.

G‘oyaviy himoyalashning ikkinchi asosiy unsuri ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo‘lsa, uning zamirida yuzaga kelgan baholar qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo‘lida mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

Qayd etilgan mulohazalar asl islom haqida muayyan bilimlariga ega bo'lish, uning bayrog'i ostida taqdim etilayotgan g'oyalar, qarashlar va harakatlarni to'g'ri baholash, ularning mohiyatan islo miy qadriyatlarga butunlay zid ekanini anglab yetishga xizmat qiladi degan xulosani chiqarish imkonini beradi. Bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday aniq tizim bo'lmas ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo'lsin, goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amrimaholdir.

G'oyaviy immunitet tizimini shakllantirishga yot g'oyalar kirib kelishini oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshirilgan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuuni to'g'ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi. Bugungi kunda mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasi ruhi bilan yo'g'rilgan ana shunday tarbiya tizimi yaratildi. Uni doimiy takomillashtirib borish va davr da'vatlariga hozirjavobligini ta'minlash esa har birimiz va hammamizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Millat bor ekan milliy davlat bor ekan uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar".

Ko'pchilik mamlakatlarda mafkuraviy va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimi dunyoviy mohiyatga ega ta'lif-tarbiya muassasalarida yoshlarga din haqida ilmiy asoslangan bilimlar berish va diniy muassasalar imkoniyatlaridan diniy ma'naviy tarbiyaning muhim o'chog'i sifatida foydalanishdek jihatlarni qamrab oladi. Ularni ro'yobga chiqarishda turli, shu jumladan anchagini qismi xalqaro tashkilotlar maqomiga ega bo'lgan nohukumat, notijorat tashkilotlar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Diniy-siyosiy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning oxirgi yillardagi xalqaro tajri-

sida dinlararo bag'rikenglik g'oyasi targ'iboti alohida o'rin tutmoqda. Bugun uni targ'ib qilayotgan o'nlab tashkilotlar dunyo bo'ylab faoliyat yuritmoqda. Ularning orasida YUNESKO kabi global miqyosda amal qilayotgan nufuzli xalqaro muassasalar bor.

Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy zaminini mustahkamlash bilan birga, uning ma'naviy-ma'rifiy asoslari ni kuchaytirish jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb vazifalar dan biri hisoblanadi.<sup>1</sup>

### **Terrorizmga qarshi kurashda qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlar va shartnomalar**

Terrorizm konvension jinoyatlar turiga mansub bo'lib, ushbu jinoyatlar xususida, insoniyat o'z qarashlarini va munosabatini turli xalqaro hujjatlarni qabul qilish orqali namoyon etgan. Terrorizmning oldini olish va jazolash to'g'risida 1937-yilda qabul qilingan "Jeneva konvensiyasi" bunga misol bo'ladi. Ushbu sohaga mansub bo'lgan xalqaro-huquqiy aktlarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- universal xususiyatga ega bo'lgan xalqaro aktlar – bularga Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyalar ni kiritish mumkin. Bular 20 ga yaqin aktlardir. Terrorizmning oldini olish va uni jazolash to'g'risidagi konvensiya, 1979-yilgi odamlarni garovga olishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya, 1994-yil qabul qilingan xalqaro terrorizmni yo'qtish choralarini to'g'risidagi deklaratsiyaga to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritildi.

- mintaqaviy xususiyatga ega bo'lgan xalqaro aktlar – bularga 1979-yilda qabul qilingan terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, 1996-yil 5-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi hamda Qozog'iston Respublikasi hukumatlari o'rtasidagi kelishuv va hokazolar kiradi. Bunday

<sup>1</sup> Diniy Eksterimizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Toshkent 2005-yil, 136-bet.

aktlar mintaqaviy xususiyatga ega bo'lib, ular o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Terroristik akt tushunchasini belgilaydi;

– hukumatlararo shartnomalar – bular eng avvalo, xalqaro jinoyatchilikning ayrim turlariga qarshi kurash to'g'risidagi ikki tomonlama kelishuvdir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 1995-yil 11 noyabrda qabul qilingan Uyushgan jinoyatchilik, terrorizmga qarshi hamkorlikda kurash olib borish to'g'risidagi kelishuv, 1995-yil 4 sentabr O'zbekiston Respublikasi hamda Gruziya Respublikasi hukumatlari tomonidan qabul qilingan terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi kelishuv, 1996-yil 19 oktabr O'zbekiston Respublikasi hamda Pokiston Islom Respublikasi hukumatlari tomonidan qabul qilingan terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi kelishuv va boshqalar.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm xavfi 1990-yilda Namangan va Andijonda, 1990–96-yillarda Tojikistondagi Fuqarolik urushi va mojaralar davomida, 1999-yili 16 fevralda Toshkent shahrida, 1999–2011-yillari Qirg'izistonning Botken, O'zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004-yilning mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida hamda 2004-yilning iyul oyida Toshkent shahri hamda 2005-yil may oyida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari timsolida o'zini ko'rsatdi.

Mamlakatimiz rahbari Islom Karimov 1993-yil 28 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48 sessiyasida qilgan ma'rzasida jahon hamjamiyatini Afg'oniston muammosini izchil o'rganish va yechishga chaqirdi. "Tolibon" harakatining diniy mutaassib va jangarilik faoliyati haqida ushbu haqqoniy fikr AQSH dagi 2001-yil 11 sentabr fojealaridan so'ng tan olindi.

2011-yilning 28 sentabrida BMT ning xavfsizlik kengashi 1373(2001) sonli rezolyutsiyasini qabul qilib, BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash qo'mitasini tuzdi. Ushbu qo'mitaning tuzilishi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov taklif qilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining konsepsiyasiga hamohangdir. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov 1999-yili Turkiyaning Istanbul shahrida Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining navbatdagi yig'ilishida: "Xalqaro ter-

rorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Markazning asosiy vazifasi terrorizm ko'rinishlari bilangina emas, eng avvalo, xalqaro terrorizmni mablag' bilan ta'minlayotgan, qo'llab-quvvatlayotgan, qurol-yarog' bilan ta'minlab, joylarga jo'natayotgan mablag'larga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan qarorlarning so'zsiz bajarilishi bo'yicha faoliyatlarni muvofiqlashtirishdan iborat bo'lishi lozim" – degan edi. 2000-yilning 7–8 sentyabr kunlari Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining "Ming yillik sammiti" da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifini bayon etgan edi. Ushbu tashabbus ro'yogha chiqqandan so'ng, O'zbekiston 2001-yil dekabr oyida va 2002-yilning avgust oyida BMT xavfsizlik kengashining yuqorida zikir etilgan rezolyutsiyasining bajarilishi xususida BMT ning terrorizmga qarshi kurash qo'mitasiga ma'ruzalar taqdim etdi.

O'zbekistonda terrorizmga qarshi qaratilgan ko'plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, ulardag'i majburiyatlarni izchil bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, bu masalalar da o'zining tashabbuslarini ilgari surayotganini ham alohida ta'kidlash zarur.

BMT ning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashiga qaratilgan 13 ta hujjati (11 ta Konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. Hozirda O'zbekistonda 10 dan ortiq ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. Ular qatorida 1991-yildagi fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlariga qarshi kurash; 1973-yildagi xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, shu jumladan diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlar uchun jazolash va ularni bartaraf qilish; 1980-yildagi yadroviy materiallarning himoyasi; 1988-yildagi dengiz kemalari harakati havfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlariga qarshi kurash; 1997-yildagi bombaviy terrorizmga qarshi kurash; 1999-yildagi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash xalqaro konvensiyalari borligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda BMT tomonidan "Yadroviy terrorizm xurujlariga qarshi kurash bo'yicha yalpi konvensiya" loyihalari tayyorlanayotgani O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash borasidagi tashabbuslariga hamohangdir.

O‘zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan 7 ta xalqaro shartnoma imzolagan. Ularning ichida 1977-yildagi terrorizmni oldini olish; 1978-yilda shaxslarning o‘qotar qurollarini sotib olish va ularning saqlanishini nazorat qilish; 1983-yildagi zo‘ravonlik bilan amalga oshirilgan jinoyatlar oqibatida jabrlanganlarga konpensatsiyalar berish to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyalari hamda 1957-yildagi eksraditsiya to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi 1975- va 1978-yildagi qo‘srimcha protokollari bilan imzolanganligini alohida qayd qilish lozim.<sup>1</sup>

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, terrorizm o‘z harakatidan voz kechmagan, u o‘z rejalarini davrga moslashtirib, takomillashtirib bormoqda.

Bu xavfli harakatga qarshi kurashish bugun birinchi navbatda yoshlar ongini rivojlantirish va har qanday amaliy tadbirlarni qo‘llab, terrorizmnинг yoyilishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

### **TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR:**

Terrorizm, huquqiy me’yorlar, BMT, “islomofobiya”, emotsiya, agresivlik, shafqatsizlik, individual, qadimgi davr, Italiya, O‘rta asrlar, siyosiy, diniy, ereslar, aqida, katolik cherkovi, J. Bruno, reformatsiya, inkvizitsiya, narodniklar, anarxistlar, oq terror, qizil terror, fanatizm.

### **MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:**

1. Terrorizmning mohiyati nima?
2. Individual va ommaviy terrorga misollar keltiring.
3. Qadimgi davrda terroristik harakatlar qanday edi?
4. O‘rta asrlardagi terrorchilik nimalarga asoslanadi?
5. Inkvizitsiya qanday amalga oshirildi?
6. Yangi davrda terrorchilik qanday amalga oshirildi va uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Diktatura ko‘rinishidagi terrorizmga misollar keltiring.
8. Davlat mafkurasi ko‘rinishidagi terrorizm qanday amalga oshirildi?
9. Terrorizmga qarshi kurashning mafkuraviy tarbiyaviy asoslari qanday?
10. Terrorizmga qarshi kurashda qabul qilingan xalqaro hujjatlarning mazmunini tushuntiring.

<sup>1</sup> Diniy Eksterimizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. Toshkent 2005-yil, 140-bet.

## **11-§. MISSIONERLIKNING KELIB CHIQISHI VA HOZIRGI XAVFI<sup>1</sup>**

Missionerlikning kelib chiqishi va mohiyati. Missionerlik ha-qida so‘z borar ekan, avvalo ushbu tushunchaning lug‘aviy va isti-lohiy ma’nolari tushunib olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu so‘z lotin tilidagi “missio” fe'lidan olingen bo‘lib, “yu-borish”, “vazifa topshirish” missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan ma’nolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazi-falarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmui-ni bildiradi.

Turli lug‘atlar va manbalarda missionerlikka ko‘plab ta’riflar berilgan. Ularning deyarli barchasida missionerlikka xos xusu-siyatlar tavsiyalanishi barobarida, bu so‘z asosan xristian dini bi-lan bog‘lanadi.

Jumladan, har yili qayta nashr etiladigan “World Book” (“Jahon kitobi”) ensiklopedayasida “Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni o‘z diniga targ‘ib qilish va kiritish uchun yuborilgan in-son”, –degan fikr qayd etilgan. 2005-yilda Moskva shahrida nashr etilgan “Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi”da esa “Mis-sionerlik biror diniy birlashma vakillarining o‘z e’tiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati”, - degan ta’rif keltirilgan.

“Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da missioner – yerli xalqni xristian diniga o‘tishga targ‘ib qilish uchun o‘zga yurtlarga yuborilgan shaxs” deb tarjima qilinadi.

Umuman olganda, turli lug‘atlar va manbalarda bayon etilgan ta’riflar bir-biriga juda yaqin va o‘xshash bo‘lib, ularga tayangan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Avvalambor, missio-nerlik – bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilishni anglatadi. Bunday harakat dastlab Buddizm doirasi-da miloddan avvalgi III asrdan boshlab yoyilgan. Xristianlikda esa missionerlik IV asrdan paydo bo‘lgan va XIII–XVI asrlarda xristian missionerligi Hindiston, Xitoy, Yaponiyaga kirib borgan.

---

<sup>1</sup> Ushbu paragrafni tayyorlashda A. Ochildiyev, J. Najmiddinovlarning “Missionerlik mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olosh yo’llari” (Toshkent – 2009) kitobidan foydalanildi.

XV–XVI asrlarda Ispaniya va Portugaliya mustamlaka im-  
periyalari tashkil topgach, missionerlik Katolik (Xristianlikda-  
gi eng yirik oqimlardan biri bo'lib, lotin tilidan tarjima qilingan-  
da «butun jahon» degan ma'noni beradi.) Cherkovi doirasida o'z  
faoliyatini kuchaytirgan va yangi yerlarni zabit etishda g'oyaviy asos  
bo'lib xizmat qilgan. Katoliklarning turli yo'nalishlariga mansub  
missionerlarning oshkora yoki maxfiy ravishda Amerika, Osiyo,  
Afrika xalqlarini zabit etishda qatnashganlari bunga dalil bo'la oladi.

Shunisi e'tiborga molik-ki, missionerlik rivojlanib borgani sa-  
ri tegishli tashkiliy asoslar ham yaratib borilgan. Xususan, katolik  
missionerlariga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy XV 1662-yil-  
da Diniy targ'ibot kongregatsiyasini (1968-yildan Xalqlarni Injilga  
e'tiqod qildirish kongregatsiyasi) ta'sis etgani fikrimizning isboti  
bo'la oladi. Rim papasi Piy XII ning missionerlikka da'vat ruhi bi-  
lan sug'orilgan "Fideyi Donum" (1957), Ioann XXIII ning "Print-  
seps postorum" (1959), Pavel VI ning "Populorum progressio"  
(1967) nomlari, II Vatikan soborida (1962–65) missionerlik mas-  
lalariga bag'ishlab qabul qilingan maxsus dekret qabul qilingani  
ham bu yo'ldagi ishlar tadrijiy tashkil etilganini ko'rsatadi.

Missionerlik muassasalari yirik kapital va yerlarni tasar-  
ruflariga olib, o'z mamlakatlari siyosatini o'tkazishda faol  
ishtirok etganlar. Ma'rifat tarqatish, tibbiy yordam ko'rsatish ish-  
larini monopollashib olib shu yo'l bilan xristianlik targ'ibotini  
kuchaytirganlar.

Shu asnoda tajriba osha borgani va faoliyat xududi kengaygani  
sari missionerlar xristianlikni qabul qilgan aholi ichidan mahal-  
liy ruhoniy kadrlar tayyorlashga e'tibor bera boshlashgan. 1978-  
yildagi kohklavlarda<sup>1</sup> Afrikadan 12 kardinal, Osiyodan 9 kardinal  
ishtirok etgani ana shu harakatning hosilasi edi.

1517-yili katolikdan ajralib chiqqan protestantlik uyushmalar  
esa umumjahon ruhoniyligi tamoyiliga amal qilib, har bir dindor-  
dan missionerlik qilishni talab etib kelmoqda. Xususan, 1772-yil-  
da Germaniyaning Drezden shahri yaqinidagi Gerngut degan joy-

---

<sup>1</sup> Katolik cherkovining eng yuqori darajadagi ruhoniylari – kardinallarning  
kengashi hisoblanib, Papa ham aynan shu kengash orasidan saylanadi. Bu ham  
konklavlarning maqomi nechog'lik yuqori ekanini anglatadi.

da yuzaga kelgan gernguterlar jamoasi protestantlardan birinchi bo‘lib missionerlik faoliyatini olib borganlar. XVIII–XIX asrlarda protestant missionerligi Angliyaning kolonial siyosati bilan bog‘liq holda o’sib bongan.

Shuningdek, missionerlik faoliyati bilan xristianlik doirasida yuzaga kelgan, izdoshlari soni ozchilikni tashkil qiladigan yangi konfessiyalar ham shug‘ullana boshlaganini qayd etish zarur.

Yuqoridagi mulohazalar ham missionerlikka asosan xritsian dini bilan bog‘liq hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Katoliklik va protestantlikda missionerlik bilan shug‘ullanish har bir masixiyning burchi darajasiga ko‘tarilgan.

Shunga qaramay, missionerlikni faqat xristian dini bilan bog‘lash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Hozirgi kunda missionerlik faoliyati bilan faol shug‘ullanishga harakat qilayotganlar orasida vahhobiylar va krishnachilar ham borligi fikrimizga misol bo‘la oladi.

### **Zamonaviy missionerlik uyushmalari**

Hozirgi kunda missionerlik sertarmoq soha hisoblanadi. Bugun missionerlar kirib bormagan jabha, ular faoliyat yuritmayotgan mamlakat dunyoda topilishi qiyin.

Missionerlar alohida e’tibor qaratayotgan jihatlar qatorida ta’lim sog‘liqni saqlashni va bepul ijtimoiy yordam tizimini ko‘rsatish mumkin.

Zamonaviy missionerlikka bir qator umumiy xususiyatlar xos.

Eng avvalo ko‘pgina zamonaviy missioner tashkilotlari o‘z hukumatlari tomonidan turli shakllarda ko‘mak olib turishlarini ta’kidlash zarur. Shuningdek, missionerlar o‘zlari faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan hudud aholisi diniy e’tiqodi ularning ijtimoiy muamolari haqida ma’lumot olishlari uchun o‘z tadqiqot markazlariga ham egalar. Missionerlar bugungi kunda xohlagan tilda va adadda o‘z diniy adapbiyotlari chop eta olishlari mumkinligi ham ularning imkoniyatlari naqadar keng va kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Zamonaviy missionerlar dunyo bo‘yicha demokratik qadriyatlari, inson huquqlari ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganidan ham o‘z maqsadlari yo‘lida ustalik bilan foydalanmoqdalar. Chu-

nonchi, ularning faoliyati qaysi davlatda taqiqlansa, o'sha davlatda xalqaro hujjatlar buzulayotgani, inson huquqlari poymol etilayotgani haqida jar solishadi. Bunday hollarda ular ayrim xalqaro hujjatlarda qayd etilgan qoidalarni ro'kach qiladilar. Xususan ko'pincha "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi" va "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt"larda keltirilgan, har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga egaligi ushbu huquq o'z dinini yoki e'tiqodini o'zgartirish ekanligini hamda ta'limotda toat-ibodat qilishda, diniy rasm-rusum va ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish o'z dini va e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga olishi, axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga olishi haqidagi bandlarini keltirishadi. Lekin missionerlar ushbu qonunlarni ro'kach qilishlari unchalik ham asosli emas. To'g'ri, yuqoridagi ikki hujjatda keltirilgan bandlar mavjud. Lekin, ushbu moddaning keyingi bandlariga nazar tashlansa, xuddi bizning "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" qonunimizdagi holat kelib chiqadi. Ya'ni, avval vijdon erkinligi daxlsizligi e'tirof etilib, so'ngra bu narsa cheklanishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlar keltirib o'tilgan.

<<World Book>> ensiklopediyasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiyl missionerlarning 2/3 qismini katolik missionerlari tashkil etadi. Shunday bo'lsada, hozirgi kunda Protestantlik missionerlikning asosiy homisi bo'lib turibdi.

Bir qancha oqimlarga bo'linib ketgan Protestantlikda missionerlik din arkonlaridan biri hisoblanib, missionerlik jamiyatining har bir a'zosi esa bunday amaliyotni o'zi uchun farz deb biladi. Shuning uchun ham, hozirda dunyodagi xalqaro missionerlarning ko'pchiligini protestant missionerlari tashkil qiladi. Agarda protestantlik tarqalgan hududlar xotirasiga nazar tashlasak, ularning deyarli barchasi rivojlangan yirik davlatlarda joylashganiga guvoh bo'lamiz.

Protestantlikda oqimlar juda tez-tez paydo bo'lib turadi, har bir oqim o'z missionerlik tashkilotiga ega bo'ladi. Quyida protestantlikda eng yirik va missionerlik bilan faol shug'ullanadigan tashkilot va uyushmalar haqida fikr yuritiladi.

Protestant oqimlari orasida eng yiriklaridan biri bo'lmish adventizm<sup>1</sup> oqimiga 1831-yili Uayt Miller tomonidan asos solingan. U.Miller Bibliya matnlariga asoslangan holda 1843–1844-yillarda Insonning ikkinchi qaytishi yuz beradi deb bashorat beradi. Bashorat amalga oshmagan bo'lsa-da, oqimning ta'siri ko'pchilik orasida saqlanib qoladi.

**“Yettinchi kun adventistlari”** Adventizm zamirida paydo bo'lgan eng yirik oqim hisoblanadi. 1844-yilda Nyu-Gempshir shahrida bir guruh kishilar tomonidan tuzilgan ushbu oqimning asoschisi Yelena Uayt hisoblanadi. 1860-yilda alohida diniy konfessiya sifatida rasman tan olingen ushbu oqim vakillari 1863-yildan boshlab o'z diniy tashkilotlarini tuza boshaydilar.

Yettinchi kun adventistlari asosiy aqida sifatida Iso Masihning qaytishiga ishonishni saqlab qolishgan. Bundan tashqari ular Bibliya buyruqlariga bo'y sunishni qat'iy talab qilib qo'yib, ulardan eng muhimmi to'rtinchi buyruq, ya'ni shanba kuniga amal qilishni talab qiladilar. Ayni paytda, ular ruhning abadiyligi, jannat va do'zax tushunchalarini inkor qilishadi, cho'qintirishni esa butun tanani suvgaga botirish orqali o'tkazishadi.

Tashkilotning har bir a'zosi, o'z oylik daromadining o'ndan birini cherkov hisobiga o'tkazishi shart.

Yo'nalish asoschisi Yelena Uayt tomonidan ishlab chiqilgan “Sanitar reformatsiya”ga ko'ra, cherkov a'zolariga “nopok hayvonlar” go'shti, xususan, cho'chqa go'shtini yeyish, kofe, choy, vieno ichish, tamaki chekish taqiqlanadi. Turli xil ko'ngil ochish ishlari, badiiy kitob o'qish esa qoralanadi. Tashkilot a'zolariga yuqori darajadagi aktiv missionerlik xosdir. Ularning aqidalariga ko'ra, Isoning tezroq qaytishi, barcha insonlar adventistik targ'ibotni qancha tez eshitishlariga bog'liqdir.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 5 millionga yaqin adventistlar bor. Ular 184 mamlakatda 22000 dan ortiq cherkov, 5000 dan ortiq o'quv markazlari, 50 nashriyot, 160 ta kasalxonaga ega, AQSH va Kanadada bu yo'nalish vakillari nisbatan keng tarqalgan, 170 dan ortiq tilda missionerlik adabiyotlarini chop etadi.

---

<sup>1</sup> lot adventus – kelish, qaytish. Ushbu oqim vakillari Iso Masih qaytib kelishi va yer yuzini poklanishini kutib o'tirishadi.

Missionerlikni amalga oshirishda Yettinchi kun adventistlari an'anaviy usullar bilan bir qatorda radio, televideniye, internet kabi zamonaviy usullardan ham faol foydalanishmoqda.

“**Pyatidesyatniklar**”<sup>1</sup> yoki “**To‘liq injil xristianlari**” – Protestantlikdagi eng yirik oqim bo‘lib, XX asr boshlarida AQSHda yuzaga kelgan. Diniy hayotda “Muqaddas Ruh”<sup>2</sup> in’omlari” degan tushunchaga tayanishadi. Ta’limotga ko‘ra, bu in’omlar faqatgina Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirish<sup>3</sup> orqali Xudo O‘g’lining (ya’ni Iso Masihning) asl izdoshlariga, unga xizmat qilish vositasi sifatida beriladi. Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilganlikning tashqi belgisi deb pyatidesyatniklar glossaliya, ya’ni “xudo bilan notanish tilda gaplashish”ni tushunishadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Pyatidesyatniklik tarixi rasman 1901-yilning 1 yanvariga borib taqaladi. Aynan shu kuni Kanzas shtatinning Topeke shahridagi Bibliya maktabalarining birida Ch. Parxem ismli ruhoniy boshqarayotgan talabalardan biri Agnes-sa Ozman “uchinchi rahmat”ga erishib (ya’ni, Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilib), xitoy tilida gapira boshlaydi. Uning ketidan “xudo bilan notanish tilda gaplashish” “epidemiya”si butun maktabni qamrab oladi. Shundan so‘ng Ch. Parxem o‘z o‘quvchilari bilan janubiy shtatlarda pyatidesyatniklikni targ‘ib qila boshlagan.

Ch. Parxem shogirdlaridan biri, qora tanli D. Seymour Los-Anjelesdag‘i metodist cherkovining tashlandiq binosida “muqaddas pyatidesyatnik”<sup>4</sup> g‘oyasini targ‘ib qila boshlagan. Uch yil davomida ushbu cherkov aktiv faoliyat yuritib, AQSHdagi qora va oq tanlilarning diqqatini o‘ziga jalb qildi. Bu yerda Xudo bilan notanish tilda gaplashishni boshidan o‘tkazgan ko‘pchilik keyinchaлик o‘zining pyatidesyatniklik cherkovlariga asos solishdi. Bundan cherkovlar Skandinaviya, Angliya, Hindiston, Chili, Germaniya kabi davlatlarda ham paydo bo‘ldi. Ularning bir-biridan asosiy

<sup>1</sup> Yahudiylarning qadimiу “Пятдесятница” bayrami nomidan kelib chiqqan.

<sup>2</sup> Muqaddas Ruh xristian ta’limotiga ko‘ra Xudoning 2 qiyofasidan biri.

<sup>3</sup> Bunga dindor Xudo tomonidan cho‘qintirilgan hisoblanib, bu bilan u Xudoga yaqin bo‘ladi.

<sup>4</sup> Xristian aqidasisiga binoan yahudiylarning Пятдесятница bayrami kuni xavoriy larga Muqaddas Ruh tomonidan rahmat tushirilib, ularning barchasi turli tillarda gapira boshlagan.

farqi xudoning rahmatlari soni va suv bilan cho'qintirishning us-lublaridadir. Muqaddaslik cherkovlaridan<sup>1</sup> ajrab chiqqan pyatidesyatniklar 3 ta rahmatga ishonishadi – dinka kirkizish, nurlantirish, ya'ni, xristian ta'limoti bilan chuqurroq tanishtirish va Muqaddas Ruh bilan cho'qintirish.

Baptistlardan ajrab chiqqan pyatidesyatniklar esa faqat 2 ta rahmat – dinka kirkizish va Muqaddas Ruh bilan cho'qintirishni tan olishadi. Shuning uchun ham, ularni “Ikki rahmat cherkovlari” deb atashadi. Ularning eng yirik birlashmasi “Xudo Assambleyalari” hisoblanadi. Suv bilan cho'qintirish usullari, ya'ni muqaddas uchlikni tan olishlari yoki inkor qilishiga ko'ra, pyatidesyatniklar ikkiga bo'linadi. Lekin bunday bo'linish barcha pyatidesyatnik cherkovlariga taalluqli emas. Ayni paytda, ba'zi cherkovlar xristianlik chegarasidan chiqqanini ta'kidlash zarur.

1960-yillarda “xudo bilan notanish tilda gaplashish” tushunchasi ba'zi boshqa protestant cherkovlari, hatto 1966-yildan kato liklar orasida ham tarqalgan.

Hozirgi kunda pyatidesyatniklik ko'p sonli turli oqimlar ko'rinishida tarqalgan bo'lib, ularning rahbarlari har 2-3 yilda “Butan dunyo pyatidesyatnik konferensiyalari”da uchrashib turishadi.

Pyatidesyatniklik insonlarning qayg'u-alamlari, muammolari va jamiyatda o'z o'rinalarini yo'qotib qo'yishlari bilan bog'liq masalalarga alohida urg'u berishi va ulardan ustalik bilan foydalanimishga intilishi tufayli unga ergashuvchilar soni tez suratda o'sib bormoqda. 1990-yilda dunyo bo'yicha bu oqim a'zolarining soni 50 millionni tashkil qilgan bo'lsa, hozirda taxminan 120 millionni tashkil qilmoqda.

Pyatidesyatniklikning eng yirik oqimlaridan biri – “**Xudo Assambleyalari** cherkovlariga

1914-yilda AQSHning Arkanzas shtatida asos solingan. Markazi Missouri shtatining Springfield shahrida joylashgan. Bu cherkov a'zolarining soni 2 million dan ortiqni tashkil etadi. Ushbu cherkov pyatidesyatniklikning muqaddas uchlik, Muqaddas Ruh bilan cho'qintirish, “xudo bilan notanish tilda gaplashish” (glossaliya) kabi g'oyalari qatoriga, e'tiqod orqali shifo topish, Isoning ikkinchi qaytishi,

<sup>1</sup> Protestantizmdagi ilk oqimlardan biri.

o'liklarning ikki marta qayta tirilishi, Isoning 1000 yillik podshohligi va balog'atga yetganlarni suvgaga butunlay botirish orqali cho'qintirishdek aqidalarni ham qo'shgan. Assambleya boshida 2 yilda bir yig'iladigan Markaziy kengash turadi. Ular 16 nashr, jumladan, ayollar va bolalar uchun jurnallarga, bir necha kollej va Bibliya maktablariga egalar. Xudo Assambleyalari cherkovi 98 mamlakatda o'z jamoalariga ega, 71 mamlakatda missionerlik faoliyatini olib boradi.

**Xudo Cherkovi** – 1884-yilda AQSHning Tnnesi shtatida tashkil etilgan. Ushbu cherkov XVI asrda tuzgan reformatsiyani davom ettirish g'oyasini olg'a suradi. Cherkov har qanday aqidalardan pok, Xuddi Iso Masih davridagidek, sevgi bilan ish olib boriliishi lozim degan aqidaga tayanadi. Shu g'oyalarni amalga oshirish uchun 1886-yili xristian ittifoqi tuzilib, 1902-yili uning asosida “Muqaddaslik cherkovi” tuzildi va 1907-yili u “Xudo cherkovi” nomini oldi.

“Xudo Cherkovi” trinitarian-pyatidesyatnik<sup>1</sup> e'tiqodiga mansub bo'lib, “uch krizis” aqidasiga tayanadi. Hozirgi kunda tashkilotni har ikki yilda yig'iladigan “Markaziy Assambleya” boshqaradi. Uning 8 ta nashri mavjud. AQSHning o'zida cherkov a'zolarining soni 500 ming kishini tashkil etadi. Ushbu cherkov 72 mamlakatda missionerlik faoliyatini olib bormoqda.

**Xalqaro Birlashgan Pyatidesyatnik Cherkovlari** ham AQSHda 1945-yilda yuzaga kelgan. Aqida sifatida Iso Masih nomi bilan cho'qintirishni olg'a surishadi. Muqaddas uchlik troitsa haqidagi ta'limotni rad etadilar. Ushbu tashkilot voyaga yetganlarni suvgaga botirish orqali cho'qintirish bilan bir paytda oyoqlarни yuvish, ya'ni o'zaro muhabbatni ifodalash uchun har bir jamaa a'zosining bir-birlarining oyoqlarini yuvishi<sup>2</sup> amaliyotiga rioya qiladi. Tashkilot markazi AQSHning Missouri shtatidagi Xezvid shahrida joylashgan. Cherkov o'z radiosiga, “Pentecosfal Herald”

<sup>1</sup> Trinitarian – “trio”, ya'ni “uchlik” so'zidan kelib chiqqan. Cho'qintirish vaqtida Ota, O'g'il va Muqaddas Ruhlar nomi bilan cho'qintiradigan пятидесятниклар, trinitarian – пятидесятниклар deb atalgan.

<sup>2</sup> Bir oyda bir marta “Причесшение” (non yeish va vino ichish) marosimidan oldin amalga oshiriladi.

nomli jurnaliga ega. Hozirda ushbu cherkov 46 mamlakatda misionerlik faoliyatini olib bormoqda.

Pyatidesyatniklikda To'liq injil xristianlaridan tashqari ta'limotining mazmuniga ko'ra bir-biri bilan bog'liq bo'lган va umuman farq qiladigan boshqa ko'plab oqimlar ham mavjud.

O'zbekiston hududida mazkur yo'nalishga taalluqli birinchi tashkilot 1985-yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan. Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha to'liq injilchi xristianlarning 21 ta diniy tashkiloti mavjud.

Ko'pgina ogohlantirish va ma'muriy choralarga qaramay ular yurtimizda o'zlarining misionerlik faoliyatlarini olib borishga intilishmoqda. Jumladan, yakshanba kunlari o'zbek tilida ma'ruzalar, qo'shimcha Bibliya o'qish darslari tashkil qilish qo'lidagi harakatlar, "Hosil yig'ish kuni" deb ataladigan va har bir a'zo cherkovga yangi odam olib kelishini rag'batlantirishga qaratilgan amaliyotning mavjudligi ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

**"Iegovo Shohidlari"** oqimiga Charlz Teyz Rassel tomonidan asos solingan. 1870-yilda Ch.Rassel AQSHning Pensilvaniya shtatidagi Pitsburg shahrida mustaqil Bibiliyani o'rganish kurslarini ochdi. 1881-yilda uning zamirida "Sion qo'riqchi minorasi va traktatlar uyushmasi" maxsus misionerlik adabiyotlarini chop etish uchun "Qo'riqchi minora jamiyatni" tuzildi. 1931-yilga kelib tashkilot "Iegovo Shohidlari" nomini oldi.

Rassel vafotidan keyin tashkilotga rahbarlik qilgan Iosif (Djozef) Franklik Ruzerford davrida ta'limotni yanada keng tarqatishga alohida e'tibor berildi. Tashkilot a'zolari keskin darajada oshdi. Aynan Ruzerford iegovochilikka "armageddon"<sup>1</sup> tushunchasini kiritdi va 1925-yili Xudoning podshohligi boshlanishini bashorat qildi.

Ruzerford har yili iegovochilarining xalqaro konferensiyalarini o'tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ'ibot ish-

<sup>1</sup> Yunon tilidagi armagedon, qadimgi yahudiy tilidagi harmegiddo – "tog'li hudud Megiddo" so'zidan olingan bo'lib, Xayfa yaqinidagi qadimgi davrda janglar o'tkazilgan hudud. Iegovichlar aqidasiga binoan Iso yerga qaytgach, u va imonlijar jamoasi, lyulis va jinlar qo'shniga qarshi shu joyda jang o'tkazib, g'olib bo'ladi. Bu Isoning Yer yuzidagi 1000 yillik podsholigining boshlanishi bo'ladi.

larida radio va grammoplastinkalardan foydalanishni yo‘lga qo‘ydi.

Ruzerforddan so‘ng 1943-yildan tashkilotga Natan Gomer Norr (1905–1977) rahbarlik qila boshladi. O‘scha yiliyoq Norr missionerlik faoliyatini yanada faollashtirish uchun “Qo‘riqchi minoraning Bibliya maktabi – Galaad”<sup>1</sup> – 5 oylik o‘qitishga asoslangan, iegovo chilikni butun dunyo bo‘ylab tarqatish uchun xizmat qiladigan, missionerlarni tayyorlaydigan markazni ochadi.

“Iegovo Shohidlari” uchlik<sup>2</sup> haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa oqimlar kabi uning barcha ko‘rinishlarini izohlashadi. Barcha narsaning asosi va yaratuvchisi deb Iegovani tan olishadi. Iegovo shohidlari Xudoning o‘z shaxsiy ismi bor, bu ism “Iegova”dir deb, bu haqda o‘z tarqatma adabiyotlarida jumladan shunday deydilar: “Xudoning shaxsiy ismi bor va lexovo Shohidlidan kimda-kim unga topinsa, bu ismdan foydalanishlari kerakligiga aminlar. Har narsaga qodir Xudo Musoga o‘z ismini “Iegovo”, deb e’lon qildi. O’tmishda Ibrohim, Muso va boshqa sadoqatli erkaklar Xudoning ismidan foydalanganlar. Aslida esa, kitobda Iegovo degan ism bir necha ming marotaba uchraydi”.

Ushbu tashkilot Iso Xudoning o‘g‘li bo‘lganiga ishonsada, uning Xudo bo‘lganini inkor qiladilar. Iso Iegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan. Muqaddas Ruh – Xudoning ko‘rinmas kuchi bo‘lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan.

Iegovo butun insoniyat tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o‘lgandan so‘ng to‘g‘ridan to‘g‘ri tiriladi va osmon podshohligiga o‘tib ketishadi. Hozirgi kunda o‘scha tanlangan 144 ming kishi, ya’ni “kichik poda”dan (imoni mustahkam va din yo‘lida ko‘p xizmat qilgan) 9 minggi tirik deb e’tiqod qilinadi. Qolgan imonlilar, ya’ni Iegovo shohidlariiga qo‘shilgan “qo‘ylar”ga (oddiy dindorlar) yer yuzida abadiy jannatda yashashlari va’da beriladi.

<sup>1</sup> er. 70-yillarda quddus qamal qilingach, yahudiylar qochib berkingan, lordan daryosi sohilidagi joy nomi.

<sup>2</sup> Ya’ni, Xudoning 3 ko‘rinishga ega ekanini.

Iegovo shohidlari faqatgina bitta bayramni nishonlaydilar, bu Iso Masih o'limini eslash kechalari bilan bog'liq bayramidir. Bu kuni jamoa a'zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishi shadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb biladigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo'lishi shart.

Iegovo shohidlari missionerlikka katta e'tibor beradilar. Jamoa paydo bo'lgan davrdan boshlab asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o'z izdoshlarini ko'paytirishga harakat qiladilar. Hozirgi kunga kelib iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq deb hisoblanadi. Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun "Qo'riqchi minora, Bibliya va risolalar jamiyatni" tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQSHning Bruklin shahrida joylashgan. Korporatsiyani yetti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya prezidentini saylashadi.

Hozirgi kunda Iegovo shohidlari 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo'ylab 111 bo'limga ega. Tashkilotning "Qo'riqchi minora" jurnali oyiga ikki marta 125 tilda, 22 milliondan ortiq nusxada "Uyg'oninqlar!" jurnali oyiga bir marta 81 tilda, 20 million adadda nashr etildi. Ushbu nashrlar asosan missionerlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

2006-yildan "Qo'riqchi minora"si jurnali o'zbek tilida ham chop etila boshlandi. Iegovochilar ushbu jurnal nashrlarini yurtimiz hududiga olib kirish yo'lida doimiy harakatlar olib bormoqda. Missionerlik faoliyatini iegovochilar:

- ularning zarracha bo'lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirish;
- so'ng ularni ta'limotni qabul qilishga tayyorlash;
- da'vat qilinayotgan odamning ongiga Bibliya kurslari va uning matnini o'rGANISH orqali diniy ta'limotlarini singdirish;
- prozelitlarni suv bilan cho'qintirish;
- ularni missionerlik faoliyatiga tayyorlash kabi to'rt bosqicha amalga oshiradilar.

Iegovochilikning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, unda har bir a'zo missionerlik faoliyatida qatnashishi shart. Ana shunday maqsadli faoliyat natijasida iegovo shohidlari soni yildan yilga ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda iegovochilar soni dunyo bo'yicha 6,7 millionni tashkil etadi. Iegovo shohidlarining bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta'minlashga ketadigan sarf-xarajatlardan tashqari missionerlarining kundalik xarajatlariga yiliga 100 million AQSH dollariga yaqin mablag' sarflanadi.

O'zbekistonda birinchi iegovochilar 1950-yillarning oxiri, 1960-yillarning boshlarida paydo bo'lgan 1972-yilda Angren va Chirchiq shaharlarda ularning ilk jamoalari paydo bo'ldi.

Bugungi kunda respublika bo'yicha faqat bitta "Iegovo shohidlar" cherkovi – Chirchiq shahrida rasmiy faoliyat olib bormoqda. Ushbu tashkilotning mintaqaviy markazi Qozog'iston Respublikasining Olma-ota Esik shahrida joylashgan bo'lib, 72 rasmiy tashkiloti va 34 mahalliy jamoalarga mansub 20 ming kishini birlashtiradi.

